

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



Moliyaviy barqarorlik sharhi

2025-yil I yarim yillik

Moliyaviy barqarorlik sharhi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yiliga ikki marta chop etiladi. Mazkur sharh makromoliyaviy sharoitlar tahlili, tizimli xatarlarni aniqlash va ta'sirini baholash, makroprudensial siyosat yo'nalishini belgilash masalalari hamda tavsiyalarni qamrab olgan.

Mazkur sharh 2025-yil 1-iyulgacha bo'lgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik departamenti tomonidan tayyorlangan. Sharh 2025-yil noyabr oyida chop etilgan.

Fikr va mulohazalaringizni udjumanazarov@cbu.uz elektron manziliga yuborishingiz mumkin.

Qisqartmalar

XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
YaIM	Yalpi ichki mahsulot
BSSM	Bayesian state space model
CAR	Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti
CCA	Contingent claims analysis
CCoB	Kapitalning konservatsiya buferi
CCyB	Kontrsiklik kapital bufer
CET1	I darajali asosiy kapital
CoVaR	Conditional value at risk
D-SIB	Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar
DSTI	Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati
GaR	Growth-at-Risk
GMM	Generalized method of moments
HH	Xerfindal-Xirshman
HP	Hodrick-Prescott
LCR	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti
LTV	Kredit summasining garov summasiga nisbati
NSFR	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti
PD	Probability of default
pnCCyB	Ijobiy neytral kontrsiklik kapital buferi
ROA	Aktivlar rentabelligi
ROE	Kapital rentabelligi
SSM	State space model
SyRB	Tizimli xatar buferi
Tier 1	I darajali kapital
UCI	Uzbekistan Composite Index

2025-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi

Mundarija

Umumiy xulosa	3
Moliyaviy zaifliklar xaritasi	6
I. Makromoliyaviy sharoitlar	8
1-havola. Xatarlar sharoitida iqtisodiy o'sish	15
II. Moliyaviy sektor	18
2.1. Bank sektori	18
2-havola. Tizimli xatarlarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma	35
3-havola. Tizimli shartli talablar tahlili	38
2.2. Nobank moliya sektori	41
III. Nomoliyaviy sektor	48
3.1. Uy xo'jaligi sektori	48
4-havola. Aholi qarz yuki bo'yicha so'rovnoma	66
3.2. Korporativ sektor	70
IV. Aktivlar bozori	75
4.1. Ko'chmas mulk bozori	75
4.2. Kapital bozori	84
V. Bank tizimi bo'yicha makro stress-test	89
5.1. Makroiqtisodiy ssenariylar	89
5.2. To'lov qobiliyati makro stress-testi	95
5.3. Likvidlilik makro stress-testi	109
VI. Makroprudensial siyosat	116
6.1. Makroprudensial siyosat vositalari	116
6.2. Xatarlar va yengillashtiruvchi choralar	127
Iqlim o'zgarishi xaritasi	131
Ilovalar	136
Atamalar	165

Umumiy xulosa

2025-yil I yarim yilligida O'zbekistonda makromoliyaviy sharoitlar yengillashdi. Ichki valyuta bozoridagi o'zgarishlar, bank sektori va makroiqtisodiy holat hisobiga O'zbekiston moliyaviy sharoitlar yengillashdi. O'zbekiston moliyaviy sharoitlarining yengillashishi xatarlar ko'lamining biroz kamayganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston bank tizimining moliyaviy holati barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Jami regulativ kapitalning monandilik koeffitsiyenti 17,4 foizni tashkil etib, minimal chegaradan yuqori bo'ldi. Bank tizimida muammoli kreditlarning ulushi past darajada shakllanmoqda. Bank tizimining likvidlilik xatarlariga bardoshlilik holati yaxshilangan. Jami aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlarning ulushi ortib bormoqda.

Bank tizimida moliyaviy stress holati past darajada qolmoqda. 2025-yil I yarim yilligida ichki valyuta bozoriga xos bo'lgan tebranuvchanlik va pul bozoridagi holatning deyarli o'zgarishsiz qolganligi hamda bank sektorida ijobiy o'zgarishlarning kuzatilganligi ta'sirida moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog'liq xatar darajasi o'zining tarixiy o'rtacha trendida shakllandi. Tizimli ahamiyatga molik banklarda defoltgacha bo'lgan masofa hamda defolt ehtimolligi bilan bog'liq holat yaxshilangan.

Makroprudensial kapital vositalarni joriy qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Mamlakat bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan likvidlilik va qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari doimiy takomillashtirilib, faol foydalanib kelinmoqda. Ayni vaqtda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davriy tizimli xatarlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va banklarning to'lov qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan makroprudensial kapital vositalariga zarurat paydo bo'lmoqda.

Korporativ sektorda xavotirlar biroz pasaygan. Xorijiy valyutadagi korporativ kreditlarning ulushi biroz kamaydi. Korporativ kreditlar qoldig'ining YalMga nisbati pasayib, o'zining uzoq muddatli trendiga nisbatan manfiy tafovuti kengaymoqda. Yirik korxonalar bo'yicha leveraj koeffitsiyentida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Shuningdek, korxonalarning likvidlilik holati hamda rentabellik ko'rsatkichlari mustahkamlandi.

Qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial vositalarning qo'llanilishi hamda moliyaviy sharoitlar ta'sirida aholi qarz yuki holati yaxshilandi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) cheklovining qat'iylashtirilishi aholining umumiy qarz yuki darajasining 36 foizdan 33

foizgacha pasayishida o'z ifodasini topdi. Aholining DSTI ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ipoteka va avtokreditlarda ijobiy o'zgarish kuzatildi.

Aholining barcha qarz majburiyatlari summasi tarkibida bankdan tashqari majburiyatlarning ulushi past darajada shakllanmoqda.

Jismoniy shaxslar barcha majburiyatlarining 93 foizi bank kreditlari hissasiga to'g'ri kelgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YalMga nisbati ko'rsatkichining amaldagi qiymati bilan uzoq muddatli trendi orasida manfiy tafovut shakllangan. Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslar orasida bir nechta qarz majburiyatlari mavjud bo'lgan holatlar ko'paymoqda.

Mikroqarzarlar bo'yicha kredit portfeli sifati yomonlashgan. Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzarlar qoldig'idagi yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. Bir nechta mikroqarz shartnomasi mavjud qarzdorlar ko'lami ortmoqda.

Avtokreditlar bozorida tartibga solish arbitraji bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Avtokreditlar bo'yicha o'rnatilgan bilvosita cheklovlarning samarasi ma'lum bir kechikish bilan namoyon bo'lmoqda. Avtokreditlar bo'yicha konsentratsiya xavfi pasaymoqda. Biroq, ayrim banklar amaldagi konsentratsiya cheklovlarini chetlab o'tish amaliyotlari orqali tartibga solish arbitraji¹ bilan bog'liq xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

Uy-joy narxlarida tuzatishlar kuzatilmoqda. Ko'chmas mulk bozorida taklifning ortganligi, shuningdek spekulativ talabning kamayganligi fundamental qiymat va bozor narxi orasidagi tafovut 17 foizdan 4 foizgacha pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Ipoteka kredit standartlari biroz yumshagan hamda mehnatga layoqatli aholi orasida ipoteka krediti mavjud qarzdorlar ko'lami kengaymoqda. Aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati pasayishdan to'xtagan. Uy-joy narxlari aholi jon boshiga hisoblangan YalMga nisbatan pasaymoqda.

Xatarli ssenariy bo'yicha makro stress-testi natijalari ayrim banklarning to'lov qobiliyati pasayishi mumkinligini ko'rsatdi. 2028-yil I yarim yilligi yakunida bank tizimining I darajali asosiy va jami regulyativ kapitali monandlilik koeffitsiyentlari mos ravishda 6,1 hamda 8,4 foizlargacha pasayishi mumkin. Kapital yetarliligini ta'minlashda xatarli ssenariyda qo'shimcha kapitalga talab paydo bo'ladi. Xatarli ssenariy bo'yicha bank defoltining bank tizimiga tarqalishning xatar darajasi past baholanmoqda.

Likvidlilik makro stress-testi natijalari bank tizimida likvidlilik holati barqarorligini namoyon etdi. Bank tizimi bo'yicha milliy valyutadagi

¹ Tartibga solish arbitraji (regulatory arbitrage) – moliyaviy bozor ishtirokchilari cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida nisbatan kamroq nazorat qilinadigan bozor segmentlarida o'z faoliyatlarini ko'chirishi va (yoki) boshlashi natijasida nisbiy afzalliklarga ega bo'lishi.

qisqa muddatli aktivlar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda barqaror holat kuzatilmoqda. Xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik darajasi past shakllanmoqda. Xatarli ssenariy bo'yicha ushbu banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy pul kirimini qoplash uchun yetarli yuqori likvidli aktivlarning mavjudligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xatarini yuzaga kelishini oldini oladi.

Ayrim banklarning depozit portfelida konsentratsiya saqlanib qolmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, milliy valyuta bo'yicha banklardagi eng yirik depozitor mablag'larining bank tizimi bo'yicha jami depozitlardagi ulushi 19 foizni, xorijiy valyutada 5 foizni tashkil etmoqda.

Moliya tizimi barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar saqlanib qolmoqda. Bunday xatarlar qatoriga tashqi moliyalashtirish manbalarning nobarqarorligi, banklarda depozit konsentratsiyasining mavjudligi, mikroqarzlar bo'yicha kredit xatarining ortishi, uy-joy narxlarida tuzatishlar bo'yicha noaniqliklar hamda kiberhujumlar xavfini kiritish mumkin.

Moliyaviy zaifliklar xaritasi

Zaiflik		2020				2021				2022				2023				2024				2025	
		Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2
Kreditlarning keskin o'sishi	Kreditning YalMga nisbati tafovuti																						
	Kreditning YalMga nisbati o'sishi																						
	Jami kreditlar qoldig'ining o'sishi (YoY)																						
	Ipoteka kreditlari qoldig'i bo'yicha leveraj																						
	Nobarqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti																						
	Joriy hisob balansining defitsiti/profitsiti																						
Uy xo'jaligi sektori	Uy xo'jaliklari kreditlari qoldig'ining o'sishi																						
	Uy-joylarning real narxi																						
	Uy-joy narxining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati																						
	Jami kreditlar tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi																						
	Jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbati																						
Korporativ sektor	Korporativ kreditlar o'sishi																						
	Jami kreditlar tarkibida korporativ kreditlarning ulushi																						
	Tijoriy maqsadlar uchun ko'chmas mulk kreditlari																						
	Xorijiy valyutada berilgan kreditlar ulushi																						
	Korporativ kreditlarning YalMga nisbati tafovuti																						
Likvidlilik va valyuta xatarlari	Kreditning depozitga nisbati																						
	Jami majburiyatlar tarkibida nobarqaror moliyalashtirishning ulushi																						
	Jami aktivlarda yuqori likvidli aktivlarning ulushi																						
	Kreditlar tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi																						
	Jami depozitlarda uzoq muddatli depozitlarning ulushi																						
	Sof ochiq valyuta mavqei																						
Tarkibiy tizimli xatarlar	Bank sektorining konsentratsiya darajasi (aktivlar bo'yicha)																						
	Bank tizimi aktivlarining YalMga nisbati																						



Moliyaviy zaifliklar xaritasi 2025-yil I yarim yilligida uy xo'jaligi sektori va ko'chmas mulk bozori bilan bog'liq zaifliklar mavjud ekanligini namoyon qilmoqda. 2025-yilning dastlabki yarim yilligida tijorat banklari tomonidan chakana kreditlash hajmining ortib borayotganligi, shuningdek ko'chmas mulk bozorida narxlarning pasayishiga qaramay uy-joyning real narxi yuqoriligi hisobiga uy xo'jaligi sektori va aktivlar bozori bo'yicha xavotirlar saqlanib qolgan.

Ko'chmas mulk bozoridagi xatarlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlari ko'lami ortgan. Ipoteka kreditlari qoldig'i bo'yicha leveraj koeffitsiyentining yuqori ekanligi, shuningdek banklarning kredit portfelida tijoriy maqsadlar uchun ajratilgan ipoteka kreditlarining ortganligi ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zaifliklarning ta'sir darajasini oshiradi.

Moliyaviy zaifliklar xaritasi valyuta o'zgaruvchanligining bank tizimiga ta'siri ortganligini ko'rsatmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tijorat banklaridagi chet el valyutasidagi talablar majburiyatlardan ortib, bank tizimida uzun valyuta pozitsiyasi kuzatilgan. Bu esa, banklarning valyuta kursiga ta'sirchanligining oshishi bo'yicha xavotirlarni uyg'otmoqda.

Bank tizimi moliyaviy barqarorligining real iqtisodiyotdagi ahamiyati oshgan. Bank tizimi aktivlarining YalMga nisbati ko'rsatkichining ortishi mamlakat iqtisodiyotida bank tizimining konsentratsiyasi oshayotganligi va ushbu sektorning ta'sirchanlik ko'lami kengayotganligini ifodalaydi.

I. Makromoliyaviy sharoitlar

2025-yil I yarim yilligi yakunida global miqyosda moliyaviy sharoitlar yengillashdi. 2025-yil may oyida e'lon qilingan savdo tariflarining kechiktirilishi ta'sirida xalqaro bozorlardagi o'zgaruvchanlik kamaydi. Dunyoning yetakchi markaziy banklari tomonidan asosiy foiz stavkalar tushirilishi bo'yicha kutilmalar hisobiga xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalar pasaygan. Shuningdek, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valyutaning mustahkamlanishi kuzatildi va 2025-yilning II choragidan boshlab kapital oqimi tiklandi².

Global miqyosda noaniqliklar saqlanib qolmoqda. 2025-yil I yarim yilligida savdo siyosati noaniqliklari bo'yicha muhokamalar qamrovining ortishi savdo siyosati noaniqlik indeksini (Trade Policy Uncertainty (TPU) Index)³ o'sishida o'z ifodasini topdi. Bunda, savdo tariflarining tiklanishi ta'sirida iqtisodiy o'sishning pasayishi bo'yicha xavotirlar mavjud⁴. 2025-yilning dastlabki yarim yilligida jahon noaniqlik (World Uncertainty Index, WUI)⁵ indeksini o'sishi xalqaro miqyosda mavjud noaniqliklar to'g'risidagi iqtisodchilarning xavotirlari yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Global miqyosda asosiy xavotirlar fokusi savdo siyosatidagi noaniqliklarga o'zgarmiqda. Bu esa, o'z navbatida, 2025-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha geosiyosiy xatar (Geopolitical Risk (GPR) Index)⁶ hamda jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik (Global Economic Policy Uncertainty, GEPU)⁷ indekslarini pasayishida namoyon bo'ldi.

² International Monetary Fund. (2025, July). World Economic Outlook.

³ Matteo Iacoviello. (2025). Trade Policy Uncertainty (TPU) Index.

Indeksda 7 ta yetakchi gazetalar inobatga olingan: Boston Globe, Chicago Tribune, Guardian, Los Angeles Times, New York Times, Wall Street Journal, Washington Post.

⁴ International Monetary Fund. (2025, July). World Economic Outlook.

⁵ World Uncertainty Index. (2024). World Uncertainty Index (WUI): Global.

Indeksda 21 ta davlat inobatga olingan: Avstraliya, AQSh, Braziliya, Birlashgan Qirollik, Germaniya, Gretsiya, Janubiy Koreya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Kolumbiya, Meksika, Niderlandiya, Rossiya, Fransiya, Hindiston, Xitoy, Chili, Shvetsiya va Yaponiya.


⁶ Matteo Iacoviello. (2025). Geopolitical Risk (GPR) Index.

Indeksda 10 ta yetakchi gazetalar inobatga olingan: Chicago Tribune, Daily Telegraph, Financial Times, Globe and Mail, Guardian, Los Angeles Times, New York Times, USA Today, Wall Street Journal, Washington Post.


⁷ Economic Policy Uncertainty. (2024). Global Economic Policy Uncertainty Index.

1-chizma. Global noaniqliklar va xatar indekslari


Jahon noaniqlik indeksi*




Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi**



Savdo siyosati noaniqlik indeksi***



Geosiyosiy xatar indeksi****



Manbalar: Jahon noaniqlik indeksi, Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi va Matteo Iacoviello.

Izohlar: Indeksning yuqori qiymati noaniqliklar va xatarlar darajasining yuqoriligini, aksincha past qiymati esa noaniqliklar va xatarlar darajasining pastligini anglatadi.

*Jahon noaniqlik indeksi 143 ta mamlakatni qamrab olib, Economist Intelligence Unit tomonidan mamlakatlar bo'yicha chop etiladigan hisobotlarida qo'llanilgan "noaniqlik" (yoki uning variantlari) so'zlari sonining ushbu hisobotlarning jami so'zlaridagi ulushini 1 mln martaga ko'paytirilgan qiymati va mamlakatlar YalMdan kelib chiqqan holda o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi.


**Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi 21 ta mamlakat bo'yicha hisoblangan ushbu indeks va mamlakatlar YalMdan kelib chiqqan holda o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi. Har bir mamlakatda chop etiladigan gazetalardagi "iqtisodiyot", "siyosat" va "noaniqlik" so'zlariga aloqador jumlar ishtirok etgan maqolalarni ushbu gazetalarning jami maqolalardagi ulushi topiladi. So'ngra, ushbu nisbatlarning 1997–2015–yillardagi o'rtacha qiymatini 100 ga tenglashtirish orqali normalashtirilgan holda hisoblanadi.

***Savdo siyosati noaniqlik indeksini aniqlashda jami 7 ta yetakchi gazetalardagi savdo siyosatining noaniqligi muhokama qilinadigan maqolalar umumiy sonining jami maqolalar sonidagi ulushlari hisoblanadi. Yakuniy indeks qiymatini normalashtirilgan holda aniqlashda har bir foiz ulush 100 ga tenglashtiriladi.


****Geosiyosiy xatar indeksini aniqlashda jami 10 ta eng yetakchi gazetalardagi, jumladan AQShning 6 ta, Birlashgan Qirollikning 3 ta va Kanadaning 1 ta chop etiladigan gazetalardagi xatarli geosiyosiy voqealarga oid maqolalar sonining ushbu gazetalardagi jami maqolalar sonidagi ulushlari topiladi. Hisoblangan ulushlarning 1985–2019–yillardagi o'rtacha qiymatini 100 ga tenglash orqali yakuniy geosiyosiy xatar indeksi baholanadi.

Jahon fond bozorlari dinamikasida kuzatilgan tebranishlarga qaramay, ijobiy tendensiya saqlanib qoldi. 2025-yil I yarim yilligida rivojlangan davlatlar bo'yicha Morgan Stanley Capital International (MSCI) indeksi o'rtacha 3 757 AQSh dollarini tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 403 AQSh dollariga yuqoriroq bo'ldi. Rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko'rsatkich yillik hisobda 8 foizga o'sib, 1 123 AQSh dollariga yetdi. Shu bilan birga, jahon MSCI indeksi yillik 12 foizga oshdi va o'rtacha 855 AQSh dollarida shakllandi.

2-chizma. MSCI indekslari*, AQSh dollari



3-chizma. Global inflyatsiya prognozi, %**



Manbalar: XVJ va Bloomberg.


Izohlar: *MSCI indekslari 23 ta rivojlangan va 24 ta bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlardagi yirik korxonalarning aksiyalari narxlarini qamrab olgan jahon fond bozoridagi vaziyatni aks ettiruvchi indekslar hisoblanadi. Ushbu indekslar qiymatining ortishi jahon qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalar narxida ijobiy o'zgarish kuzatilganligini anglatadi.

**Global inflyatsiya darajasi har bir mamlakat bo'yicha inflyatsiya ko'rsatkichi hamda xarid qobiliyati paritetiga asoslangan YalM hajmidan kelib chiqib o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi. Global inflyatsiya darajasi sifatida o'rtacha iste'mol narxlarining o'zgarishi inobatga olingan.

Global inflyatsiya darajasining pasayishi kutilmoqda. XVJ prognozlariga ko'ra, o'rtacha global inflyatsiya darajasi 2025-yilda 4,2 foizda shakllanib, 2026–2027-yillarda mos ravishda 3,7 va 3,4 foizlargacha pasayishi prognoz qilinmoqda. O'z navbatida, geosiyosiy keskinliklar sababli global ta'minot zanjirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlar va buning

ta'sirida xomashyo narxlarining ortishi bilan bog'liq xavotirlar⁸ inflyatsion kutilmalarni o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin.

4-chizma. O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi⁹



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Moliyaviy sharoitlar indeksining musbat qiymatlari moliyaviy sharoitlarning qat'iyilashishini, manfiy qiymatlari esa moliyaviy sharoitlarning yengillashishini anglatadi.

Ichki valyuta bozoridagi o'zgarishlar, bank sektori va makroiqtisodiy holat hisobiga O'zbekiston moliyaviy sharoitlar yengillashdi. 2025-yil I yarim yilligida tashqi moliyaviy sektorda kuzatilgan o'zgaruvchanlikka qaramay, ichki valyuta bozoridagi bosimning kamayishi hamda bank sektoridagi ijobiy vaziyat hisobiga mamlakat moliyaviy sharoitlari yengillashdi. Jumladan, 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston xalqaro rasmiy zaxira aktivlari 48,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, yillik hisobda 34 foizga oshdi¹⁰. O'z navbatida, 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha AQSh dollariga nisbatan milliy valyuta kursi yillik hisobda 0,8 foizga qadrsizlangan bo'lsa, 2025-yil boshidan buyon 2,1 foizga mustahkamlandi¹¹.


⁸ International Monetary Fund. (2025, October). World Economic Outlook.

⁹ O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksini hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.


¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Valyutalar kurslari arxivi.

5-chizma. YalM yillik o'sishining dekompozitsiyasi*, foiz band



6-chizma. O'zbekiston va asosiy savdo hamkor davlatlar iqtisodiyotining¹² real o'sish sur'atlari, %**



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi, XVJ va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Ichki talab yakuniy iste'mol xarajatlari va yalpi jamg'arishlar yig'indisidan iborat. YalMni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda yuzaga kelgan statistik tafovut chizmada aks ettirilmagan.

**Chizmadagi to'rtburchak shakl O'zbekiston va ma'lumotlari qo'llanilgan savdo-hamkor davlatlar uchun YalMning o'rtacha tortilgan o'sish sur'atlari orasidagi farqni ko'rsatadi. O'sish sur'atlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, to'rtburchak shakli ham shunchalik uzun bo'ladi. Agarda O'zbekiston YalMning o'sish darajasi o'rtacha tortilgan o'sish sur'atidan ortiq bo'lsa, to'rtburchakning ichki qismi to'liq bo'yalgan rangda va aksincha kichik bo'lsa, oq rangda bo'ladi. Vertikal qora chiziqning eng yuqori nuqtasi ma'lum bir yil uchun mazkur davlatlar orasida maksimum o'sish ko'rsatkichini, uning quyi nuqtasi esa minimum o'sish sur'atiga ega bo'lgan davlatning ko'rsatkichini bildiradi.

¹² Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Xitoy va Qozog'iston davlatlari hisobga olingan.

Sof eksport manfiy saldosing kamayishi YaIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. 2025-yil I yarim yilligida mamlakat YaIM hajmining yillik real o'sish sur'ati 7,2 foizni tashkil etgan¹³. Bunda, 2025-yil dastlabki yarim yilligida qisqargan sof eksport manfiy saldosing real YaIM o'sishiga ijobiy ta'siri 0,8 foiz bandni tashkil etgan bo'lsa, ichki talabning ta'siri 6,5 foiz bandda shakllandi. Xususan, ichki talab tarkibidagi yakuniy iste'mol xarajatlarining yillik real o'sish sur'ati 8,7 foizni¹⁴ tashkil etgan bo'lsa-da, yalpi jamg'arish miqdorining qisqarishi ichki talabning real YaIM o'sish sur'atiga ta'sirini kamayishiga sabab bo'lgan.

O'zbekistonda asosiy savdo hamkor davlatlariga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati saqlanib qolishi kutilmoqda. 2025 va 2026-yil yakunlari bo'yicha, XVJ tomonidan O'zbekistonning real YaIM yillik o'sishi mos ravishda 6,8 va 6 foizlarda¹⁵, Jahon banki tomonidan 6,2 va 6 foizlarda¹⁶ bo'lishi prognoz qilinmoqda. XVJ ma'lumotlari asosida O'zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bo'yicha o'rtacha tortilgan iqtisodiy o'sish sur'atlari 2025–2026-yillarda mos ravishda 4 va 3,6 foizlarni tashkil etishi kutilmoqda.

2025-yil I yarim yilligida joriy operatsiyalar hisobi balansining manfiy saldosi qisqardi. 2025-yilning I yarim yilligi bo'yicha joriy operatsiyalar hisobi manfiy saldosi 2024-yilning mos davridagi 2,9 mlrd AQSh dollaridan 156,3 mln AQSh dollarigacha pasaydi. 2025-yil dastlabki yarim yilligida birlamchi va ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi 6,2 mlrd AQSh dollarida shakllandi. Shuningdek, tovar va xizmatlar bo'yicha amalga oshirilgan eksportning yillik o'sishi import hajmining o'sishiga nisbatan 19 foiz bandga yuqoriroq bo'ldi. Buning natijasida, savdo balansi manfiy saldosi 2025-yilning I yarim yilligida 2024-yilning mos davriga qaraganda 20 foizga qisqarib, 6,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi¹⁷.

¹³ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari (yakuniy iste'mol usulida choraklik).


¹⁴ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari (yakuniy iste'mol usulida choraklik).

¹⁵ International Monetary Fund. (2025, October). World Economic Outlook.


¹⁶ World Bank. (2025, Fall). Jobs and Prosperity.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi (tahliliy ko'rinishi).

7-chizma. Joriy operatsiyalar hisobi balansining choraklik taqsimlanishi, mlrd AQSh dollari



8-chizma. O'zbekiston banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining YalMga nisbati, %



Manba: Markaziy bank.

Bank tizimi bo'yicha norezidentlar oldidagi majburiyatlarning YalMga nisbati o'zgarmadi. 2025-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha banklarning norezidentlar oldidagi majburiyatlari yillik hisobda 20 foizga ortgan¹⁸. O'z navbatida, mamlakat YalM bank tizimi bo'yicha norezidentlar oldidagi majburiyatlarning o'sishiga mutanosib ravishda oshgan. Buning natijasida, banklarning norezidentlar oldidagi majburiyatlarining YalMga nisbati 14 foizda shakllanib, 2024-yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

1-havola. Xatarlar sharoitida iqtisodiy o'sish

Xatarlarni hisobga olgan holdagi iqtisodiy o'sish (Growth at Risk, GaR)¹⁹ modeli joriy makromoliyaviy sharoitlarning kelgusi davrdagi real YaIM o'sishiga ta'sirini baholashga xizmat qiladi. Bunda, GaR modeli orqali makromoliyaviy omillar ta'sirida kutilayotgan real YaIM o'sishining taqsimoti aniqlanib, iqtisodiy pasayishning ehtimolligi baholanadi.

GaR modelini amalga oshirishda kelgusi davr uchun baholangan real YaIM o'sishining shartli uzluksiz taqsimoti aniqlanadi²⁰. Bunda, O'zbekistonning keyingi bir yillikdagi real YaIM o'sishi moliyaviy sikl indeksi²¹ va joriy real YaIM o'sishini inobatga olgan holda kvantil regressiya modeli²² yordamida turli kvantillarda baholandi.

Kvantil regressiya modeli orqali kelgusi davrlardagi real YaIM o'sishi turli $q \in (10, 25, 50, 75, 90)$ kvantillarda quyidagicha baholanadi:

$$y_{t+h}^q = \alpha^q + \beta_C^q X_{C,t} + \beta_G^q X_{G,t} + \varepsilon_{t+h}^q$$

Bu yerda,

q – kvantil;

t – vaqt qatori;

h – chorak;

y_{t+h}^q – real YaIMning q kvantilda h chorak keyingi davrdagi o'sishi;

$X_{C,t}$ – moliyaviy sikl indeksi;

$X_{G,t}$ – real YaIM o'sish sur'ati;

α^q – o'zgarmas son;

ε_{t+h}^q – nisbiy xatolik;

β_C^q, β_G^q – noma'lum koeffitsiyentlar.

Kelgusi davr uchun hisoblagan turli kvantillardagi real YaIM o'sishi shartli taqsimotni aniqlash imkoniyatini beradi. Jumladan, keyingi davr uchun kvantil regressiyaning baholangan diskret qiymatlarini aniqlashda turli kvantillarda baholangan kvantil regressiya modeli parametrlaridan foydalaniladi.

Kvantil regressiyaning baholangan diskret²³ qiymatlariga egri-t (skew-t)²⁴ taqsimotini moslashtirish orqali shartli uzluksiz taqsimot funksiyasi olinadi. Shartli kvantil

¹⁹ Prasad, A., Elekdag, S., Jeasakul, P., Lafarguette, R., Alter, A., Xiaochen Feng, A., & Wang, Ch. (2019). Growth at Risk: Concept and Application in IMF Country Surveillance. IMF Working Paper.

²⁰ Xatarlarni hisobga olgan holdagi o'sish (Growth at Risk) modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

²¹ Moliyaviy sikl indeksi metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


²² Kvantil regressiya modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

²³ Diskret qiymatlar – muayyan hodisa va jarayonlarda uzluksiz davom etmaydigan cheklangan miqdordagi qiymatlar.

²⁴ Basalamah, D. (2017). Statistical Inference for a New Class of Skew T Distribution and Its Related Properties. Bowling Green State University.

regressiyalarning bashorat qilingan qiymatlariga egri-t taqsimotini moslashtirgan holda kelgusi davrdagi real YaIM o'sishi taqsimlanadi²⁵.

9-chizma. Keyingi bir yilda real YaIM o'sish sur'ati bo'yicha GaR modeli natijalari



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ehtimollik zichlik funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum oraliqdagi ehtimollik zichligini²⁶ ifodalaydi. Kumulyativ taqsimot funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum bir qiymatni qabul qilish ehtimollik darajasini²⁷ ifodalaydi va ehtimollik zichlik funksiyasidan integral olish orqali aniqlanadi.

Egri-t taqsimoti o'rtacha, standart chetlanish, egrilik va erkinlik darajasi parametrlari yordamida tavsiflanadi. Egri-t taqsimoti Styudent-t taqsimoti²⁸ yordamida hosil qilinadi. Bunda, o'rtachasi nol va standart chetlanishi bir bo'lgan standart egri-t taqsimoti asimmetrik shaklda bo'ladi.

Styudent-t taqsimotining ehtimollik zichlik hamda taqsimot funksiyalari ko'paytmasi egri-t taqsimotining ehtimollik zichlik funksiyasini hosil qiladi. Noma'lum parametrlarning optimal bahosi kvantil regressiya qiymatlari va egri-t taqsimotining teskari taqsimot funksiyasi orasidagi kvadratik farqni minimallashtirish orqali topiladi.

Minimallashtirishda egri-t taqsimotining teskari taqsimot funksiyasini parametrlarga bog'liq holdagi ko'rinishidan foydalaniladi. Ushbu egri-t taqsimotining

²⁵ Drenkovska, M., & Volcjak, R. (2022). Growth-at-Risk and Financial Stability: Concept and Application for Slovenia. Banka Slovenije.

²⁶ Ehtimollik zichligi – belgilangan oraliq birligiga to'g'ri keladigan tasodifiy miqdorning sodir bo'lish ehtimolligi. Ehtimollik zichligi 0 dan kichik bo'lmagan qiymatlarga ega bo'ladi.

²⁷ Ehtimollik darajasi – sodir bo'lish imkonining miqdoriy ko'rsatkichi. Ehtimollik darajasi 0 va 1 oraliqida shakllanadi.

²⁸ Styudent-t taqsimoti – tasodifiy miqdorning standart chetlanishi ma'lum bo'lmaganda o'rtacha ko'rsatkichni baholashda foydalaniladigan simmetrik taqsimot turi. Namuna hajmi qanchalik katta bo'lsa, ushbu taqsimot normal taqsimotga yaqinlashadi. Styudent-t taqsimotining ehtimollik zichlik funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

teskari taqsimot funksiyasi Kornish-Fisher kengaytmasi (Cornish-Fisher expansion) yordamida aniqlanadi²⁹.

Kornish-Fisher kengaytmasi orqali hosil qilingan taxminiy teskari egri-t taqsimotidan foydalanib, noma'lum parametrlar aniqlanadi. Noma'lum parametrlar aniqlangan egri-t taqsimotining 5 foiz ehtimollik bo'yicha qiymati GaR modelining natijasi sifatida foydalaniladi. GaR modeli orqali kelgusida zaif iqtisodiy o'sishni yuzaga kelish ehtimoliga moliyaviy sharoitlar va zaifliklarning ta'siri baholanadi.

GaR modeli natijasiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining kelgusi davrdagi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar ko'lami biroz pasaygan. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha GaR modeli natijasi keyingi bir yilda 5 foiz ehtimollik bilan xatarlar sharoitida iqtisodiy o'sish sur'ati 6 foizni tashkil etishi mumkinligini ko'rsatdi. O'z navbatida, 2024-yil yakuni bo'yicha GaR modeli orqali xatarlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan real YaIM o'sishi sur'ati 5,9 foizga baholangan edi. 2025-yilning dastlabki yarim yilligi yakuni bo'yicha keyingi bir yildagi real YaIM o'sishining yuqoriroq baholanganligi mamlakatda moliyaviy sharoitlarning yengillashganligi hamda xatarlar ko'laminin biroz pasayganligidan dalolat bermoqda.

$$t_v(x) = \frac{G\left(\frac{v+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi v} G\left(\frac{v}{2}\right)} \left(1 + \frac{x^2}{v}\right)^{-\frac{v+1}{2}}$$

$$v = t - 1$$

$$G(p) = \int_0^\infty x^{p-1} e^{-x} dx.$$

Bu yerda,

$t_v(x)$ – ehtimollik zichlik funksiyasi;

v – erkinlik darajasi;

t – namuna hajmi;

$G(p)$ – Gamma funksiyasi.

²⁹ Amedee-Manesme, C., & Barthelemy, F. (2012). Cornish-Fisher Expansion for Real Estate Value at Risk.


II. Moliyaviy sektor

2.1. Bank sektori

2025-yilning I yarim yilligida O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati ijobiy saqlanib qoldi. Banklarning likvidlik holati sezilarli darajada yaxshilandi. Shuningdek, jami regulyativ kapitalning monandilik koeffitsiyenti 17,4 foizni tashkil etib, o'rnatilgan minimal talablardan yuqori shakllandi.

Bank tizimida moliyaviy stress holati past darajada qolmoqda. 2025-yil I yarim yilligida ichki valyuta bozoriga xos bo'lgan tebranuvchanlik³⁰, pul bozorida holatning deyarli o'zgarishsiz qolganligi hamda bank sektorida ijobiy o'zgarishlarning kuzatilganligi ta'sirida moliyaviy stress indeksi³¹ o'zining o'rtacha hamda bir standart chetlanish qiymatlari yig'indisidan quyi darajada shakllandi.

10-chizma. O'zbekiston moliyaviy stress indeksi




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


³⁰ 2025-yil II choragidagi valyuta almashinuv kursi o'zgaruvchanligida valyuta bozoriga xos bo'lmagan omillar ta'siri inobatga olinmagan.

³¹ O'zbekiston moliyaviy stress indeksini hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

11-chizma. Banklar qirqimida ΔCoVaR ko'rsatkichi



12-chizma. Bank tizimi uchun ΔCoVaR ko'rsatkichi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Banklar qirqimida ΔCoVaR ko'rsatkichini hisoblashda kuzatuvlar davrida ma'lumotlarning uzoq vaqt qatori mavjudligi, shuningdek ma'lum bir bankning bank tizimi umumiy holatidan keskin farq qilmasligidan kelib chiqqan holda 21 ta bank inobatga olingan.

Bank tizimi uchun ΔCoVaR ko'rsatkichi har bir bank bo'yicha ΔCoVaR ko'rsatkichi hamda bank kapitalining bank tizimi jami kapitalidagi ulushlarining o'zaro ko'paytmalari yig'indisini absolyut qiymatlari orqali hisoblangan. ΔCoVaR ko'rsatkichining o'sishi bank tizimida tizimli xatarlar oshayotganligini, pasayishi esa kamayayotganligini anglatadi.

Bank tizimi uchun ΔCoVaR ko'rsatkichi eksponensial harakatlanuvchi o'rtachasi orqali ko'rsatilgan. Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha tasodifiy va qisqa muddatli tebranishlarni kamaytirish orqali ko'rsatkich qiymatini tekislash usuli hisoblanadi. Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha oddiy harakatlanuvchi o'rtachadan farqli ravishda, ko'rsatkichning so'nggi qiymatlariga yuqoriroq vazn berishi natijasida ko'rsatkich qiymatidagi joriy o'zgarishlar aniqroq ifodalanadi.


Moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog'liq xatar darajasi o'zining tarixiy o'rtacha trendida shakllandi. 2025-yil dastlabki yarim yilligida banklar bo'yicha likvidlilik holatining yaxshilanganligi natijasida ΔCoVaR^{32} ko'rsatkichlarida keskin o'zgarishlar kuzatilmadi. Shuningdek, moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog'liq xatar darajasi aksariyat banklarda barqaror tendensiya kuzatildi.

Kredit bozori holatida barqarorlik kuzatildi. Xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati, banklar majburiyatining kapitalga nisbati hamda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti ko'rsatkichlari o'zgarishsiz qoldi. 2025-yilning dastlabki yarim yilligida xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati 2024-yilning mos davriga nisbatan

³² Dinamik ΔCoVaR ni hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

deyarli o'zgarmadi va 31 foiz atrofida shakllandi. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti hamda majburiyatlarning kapitalga nisbati ko'rsatkichlari 19 va 580 foizlarni tashkil etdi.

13-chizma. Kredit bozorining holati




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning depozitga nisbatida ijobiy tendensiya kuzatildi. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, chakana kreditlarning depozitga nisbati 135 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 19 foiz bandga pasaydi. Bunda, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sishi 22 foizni tashkil etdi. Aholidan jalb etilgan depozitlar hajmi 146 trln so'mda shakllanib, yillik hisobda 40 foizga oshdi³³.

³³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

14-chizma. Moliyaviy barqarorlik holati



15-chizma. Bank tizimi bardoshlilik holati



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holatida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, bank tizimi aktivlarining yillik o'sish sur'ati 23 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga tezlashdi. Shuningdek, banklarning soliq to'langunga qadar sof foydasi yillik 13 foizga ortishiga qaramay, aktivlarning yuqori sur'atlarda o'sishi hisobiga bank tizimida aktivlar bo'yicha daromadlilik ko'rsatkichi deyarli o'zgarishsiz 2 foizda shakllangan. Bundan tashqari, bank tizimi bo'yicha kredit portfeli tarkibida substandart va muammoli deb tasniflangan kreditlarning ulushi 21 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmadi³⁴.

Bank tizimining likvidlilik xatarlariga bardoshlilik holati yaxshilangan. 2025-yilning I yarim yilligi yakunida, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti 117 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5 foiz bandga ortgan. Likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti 195 foizda shakllanib, yillik hisobda 31 foiz bandga oshgan³⁵.


³⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

16-chizma. Bank aktivlarining dekompozitsiyasi, %



17-chizma. Bank manbalarining dekompozitsiyasi, %




Manba: Markaziy bank.


Bank tizimi aktivlarining asosiy qismi kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, bank tizimi jami aktivlari 852,2 trln so'mgacha ortib, uning tarkibida 65 foizlik ulushni kreditlar tashkil etgan. Shu bilan birga, boshqa banklardagi mablag'larning jami aktivlardagi ulushi 10 foiz, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning ulushi 8 foizga yetgan.

Banklar faoliyatida moliyalashtirish manbai sifatida depozitlarning ulushi ortib bormoqda. 2025-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha jalb etilgan depozitlar qoldig'ining bank tizimi passivdagi ulushi 42 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3 foiz bandga ortgan. Shuningdek, bank tizimida moliyalashtirish manbalarining mos ravishda 29 va 15 foizlari kreditlar va kapital hissasiga to'g'ri kelgan.

18-chizma. Bank tizimida kapital monandlilik koeffitsiyenti, %



19-chizma. Bank tizimida I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti, %




■ Interkvartil oraliq — Bank tizimi — Mediana — Tizimli ahamiyatga molik banklar

Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Bank tizimining kapital yetarlilik ko'rsatkichlari bo'yicha interkvartil oralig'i³⁶ qisqarmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, bank tizimi bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti 14,6 foizda shakllanib, o'rnatilgan minimal talabdan yuqori bo'ldi. Shuningdek, tizimli ahamiyatga molik banklarning jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentlari mos ravishda 16,3 va 14,1 foizlarni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarmadi.

³⁶ Interkvartil oraliq – bu 25 va 75 kvantil chegaralari orasidagi oraliq.

20-chizma. Ayrim mamlakatlarda tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi, % (2025-yil 1-iyul holatiga)



21-chizma. O'zbekistonda tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi va rentabelligi, %



Manbalar: vakolatli davlat organlari va Markaziy bank hisob-kitobi.

O'zbekiston bo'yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi ayrim Markaziy Osiyo, Kavkaz va boshqa davlatlarga nisbatan yuqori shakllangan. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonda tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi³⁷ 94 foizni tashkil etgan. O'zbekiston bank tizimi bo'yicha jami tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning umumiy summasi yillik hisobda 20 foizga ortib, 802,6 trln so'mga yetdi³⁸. 2025-yil I yarim yillik yakuni bo'yicha O'zbekiston banklari bo'yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligi 2 foizni qayd etgan.


³⁷ Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning jami aktivlarga nisbati orqali topiladi. Ushbu ko'rsatkich jami aktivlarning o'rtacha tavakkalchilik darajasini ifodalaydi. Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligining yuqori bo'lishi bank aktivlari xatar darajasining yomonlashganini, aksincha kamayishi esa aktivlar xatar darajasi yaxshilanganini bildiradi.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

22-chizma. I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti o'zgarishining taqsimlanishi, %



23-chizma. Bank sektori rentabelligi




Manba: Markaziy bank.

Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligining kamayishi kapital monandlilik koeffitsiyentiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligining 2024-yilning mos holatiga nisbatan 2,9 foiz bandga kamayishi I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentiga 0,4 foiz bandlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentining yillik o'zgarishida jami aktivlarning ortishi 2,8 foiz bandlik salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, I darajali kapital miqdorining ko'payishi 2,8 foiz bandlik ijobiy ta'sirga ega bo'lgan.


2025-yil I yarim yilligida banklarning kapital rentabelligi barqaror shakllandi. 2025-yilning dastlabki 6 oyligida banklarning sof foydasi 6,5 trln so'mga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 18 foizga oshdi. Shuningdek, kapital rentabelligi (ROE) 10,8 foizni tashkil etdi³⁹.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

24-chizma. Bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) dekompozitsiyasi, %



25-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga banklar bo'yicha likvidlilik ko'rsatkichlari, %




Manba: Markaziy bank.

Izoh: Uzuq to'g'ri chiziqlar 2025-yil 1-iyul holatiga bank tizimi bo'yicha likvidlilik ko'rsatkichlarining qiymatlarini anglatadi. Shuningdek, LCR va NSFR ko'rsatkichlari mos ravishda 350 hamda 150 foizdan yuqori bo'lgan banklar grafikda aks ettirilmagan.


Sof foizsiz daromadlarning ortishi aktivlar rentabelligiga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan bo'ldi. 2025-yilning I yarim yilligida 2024-yilning mos davriga nisbatan operatsion xarajatlar va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdori mos ravishda 29 va 28 foizlarga ortib, aktivlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Banklar sof foizsiz 21,1 trln so'm va sof foizli 18,1 trln so'm miqdorida daromadga ega bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 37 va 13 foizlarga oshgan⁴⁰.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

26-chizma. Bank tizimida sof barqaror moliyalashtirish me'yori ko'effitsiyenti (NSFR), %



27-chizma. Bank tizimida likvidlilikni qoplash me'yori ko'effitsiyenti (LCR), %



■ Interkvartil oralik — Bank tizimi — Mediana — Tizimli ahamiyatga molik banklar


Manba: Markaziy bank.

Banklarning likvidlilik holati ijobiy shakllanmoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, likvidlilikni qoplash me'yori ko'effitsiyenti (LCR) tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha yillik hisobda 28 foiz bandga ortib, 172 foizni tashkil etgan va bank tizimi medianasidan pastda joylashgan. Bank tizimi va tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha sof barqaror moliyalashtirish me'yori ko'effitsiyentlari (NSFR) interkvartil oraligining quyi chegarasi yaqinida shakllangan.


Jami aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlarning ulushi ortib bormoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati 18 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. Bunda, kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari, shuningdek banklarning Markaziy bankdagi mablag'lari mos ravishda yillik hisobda 30 va 51 foizga o'sganligi⁴¹ yuqori likvidli aktivlarni oshiruvchi asosiy omillardan bo'ldi.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklari jamlanma balansi.

28-chizma. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, %



29-chizma. Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YalMga nisbati, %




Manba: Markaziy bank.


Izoh: 2020-yil 1-iyundan boshlab yuqori likvidli aktivlar uchun 10 foizlik minimal talab o'rnatilgan.

Tijorat banklari kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi o'sishda davom etmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmining YalMga nisbati mos ravishda 12 va 24 foizlarni tashkil etgan. Chakana kreditlari jami bank kreditlarining 34 foizini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga ortgan.

30-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari* bo'yicha kreditlarning YalMga nisbati, %



31-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari* bo'yicha depozitlarning jami majburiyatlardagi va talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushlari, 2025-yil 1-iyul holatiga**




Manbalar: vakolatli davlat organlar, Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Armaniston, Gruzija, Ozarbayjon, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari hisobga olingan.


**Har bir davlat bo'yicha jami bank aktivlarining mamlakat YalMdagi ulushi pufakchalar o'lchamida o'z aksini topgan. Shuningdek, uzun to'g'ri chiziqlar Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo'yicha ko'rsatkichlarning 2025-yil 1-iyul holati uchun oddiy o'rtacha qiymatlarini anglatadi.

O'zbekistonda bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi nisbatan pastroq shakllanmoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga O'zbekiston bank tizimi majburiyatlarining 49 foizi depozitlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, ayrim Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 25 foiz bandga pastroq shakllangan. Shuningdek, O'zbekistonda kreditlarning YalMga nisbati Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarining mediana ko'rsatkichiga nisbatan 9 foiz bandga yuqori bo'lgan.

32-chizma. Kreditning depozitga nisbati va ular orasidagi farq, %



33-chizma. Kreditlar va depozitlar qoldig'i bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi*




Manba: Markaziy bank.

Izoh: *Xerfindal-Xirshman indeksi (Herfindahl-Hirschman Index, HHI) bank xizmatlari bozoridagi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi. HH indeksi har bir bank bo'yicha depozit va kredit qoldig'ining jami bank tizimi depozit va kredit qoldig'idagi ulushi kvadratlari yig'indisi orqali ifodalangan.


Depozitlarni jalb etish kredit ajratishga nisbatan tezroq sur'atda o'smoqda. 2025-yilning I yarim yilligi yakunida kreditning depozitga nisbati 162 foizgacha pasayib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 24 foiz bandga kamaygan. Bunda, depozitlar qoldig'ining kreditlar hajmiga nisbatan yillik hisobda 18 foiz bandga tezroq o'sishi kuzatilib, 2025-yilning 1-iyul holatiga kredit va depozitlar orasidagi farq 9 trln so'mga qisqargan.

Kredit va depozitlar konsentratsiyasining pasayish dinamikasi saqlanib qolmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, HH indeksi bo'yicha konsentratsiya darajasi bank kreditlari bo'yicha 898 gacha va depozitlar bo'yicha 626 gacha kamayib, past darajadagi konsentratsiyalashgan guruhda shakllangan. Bunda, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i bo'yicha HH indeksi 1 222 ni tashkil etib, 2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 72 birlikka kamaygan.

34-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga banklar qirqimida depozitlar va kreditlar miqdorining yillik o'sish sur'atlari



35-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga banklar qirqimida depozitlarning majburiyatlardagi va talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Chap chizmada yashil rang depozitlar hajmining o'sish sur'ati kreditlar hajmining o'sish sur'atidan yuqori, jigarrang esa aksincha, kreditlar hajmining o'sish sur'atidan past bo'lgan banklarni ifodalaydi. Har bir bank bo'yicha bank aktivining jami aktivlardagi ulushi pufakchalar o'lchamida o'z aksini topgan.


O'ng chizmada yashil rang talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasaygan banklarni ifodalaydi. Jigarrang esa aksincha, ushbu depozitlarning jami depozitlardagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan banklarni ifodalaydi. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar 2025-yil 1-iyul holatiga bank tizimi bo'yicha ko'rsatkichlarini anglatadi.

Bank tizimi bo'yicha jami depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi kamaygan. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 32 foizni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, tizimli ahamiyatga molik banklarda depozitlar hajmining o'sish sur'ati kreditlar hajmining o'sish sur'atidan yuqori shakllanmoqda.

36-chizma. Muammoli kreditlar hajmi va kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati



37-chizma. Muammoli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi ulushi, %




Manba: Markaziy bank.


Muammoli kreditlar (NPL) qoldig'i kredit portfeliga nisbatan sekinroq o'smoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, muammoli kreditlarning hajmi 21,9 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 9 foizga o'sgan. O'z navbatida, jami kreditlar qoldig'ining ortishi bank tizimi bo'yicha muammoli kreditlar ulushini 3,8 foizgacha pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, so'nggi yillarda valyuta almashuv kursining barqarorligi hisobiga uning muammoli kreditlarga ta'siri sezilarsiz bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston banklari kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi ayrim Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarining mediana qiymatiga yaqinlashgan.

Tizimli ahamiyatga molik banklarda kredit xatari boshqa banklarga nisbatan yuqoriroq shakllangan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha muammoli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi ulushi 4 foizda, boshqa banklarda 3,3 foizda shakllangan. Tizimli ahamiyatga molik banklar kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi yillik hisobda o'zgarmagan, boshqa banklarda 0,7 foiz bandga kamaygan.

38-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari* bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi, %



39-chizma. Muammoli kreditlarning sifati bo'yicha tarkibi, %




Manba: Markaziy bank.


Izoh: *Armaniston, Gruzziya, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari, shuningdek 2021-yil IV chorakdan e'tiboran Ozarbayjon davlati hisobga olingan.

Muammoli kreditlar tarkibida asosiy ulushni yo'qotishlar ehtimoli nisbatan past bo'lgan kreditlar tashkil etmoqda. 2025-yilning I yarim yilligi yakuniga ko'ra, muammoli kreditlarning 40 foizi "qoniqarsiz", 35 foizi esa "shubhali" deb tasniflangan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Muammoli kreditlar tarkibida "qoniqarsiz" deb tasniflangan kreditlarning qaytarilishi bo'yicha ishonchlilik darajasi nisbatan yuqori hisoblanadi.

40-chizma. Muammoli kreditlar va ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralari, %



41-chizma. Muammoli kreditlar ulushining yillik o'zgarishi dekompozitsiyasi, %



Manba: Markaziy bank.


Bank tizimining kredit yo'qotishlariga bardoshliligi oshgan. 2025-yilning I yarim yilligi yakuniga ko'ra, muammoli kreditlar bo'yicha yaratilgan maxsus zaxiralarning muammoli kreditlar hajmiga nisbati 49 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 19 foiz bandga ortgan. Maxsus zaxiralarni chiqarib tashlangan holdagi muammoli kreditlarning regulyativ kapitalga nisbati 12 foizdan 8 foizgacha pasaygan. Shuningdek, valyuta kursi o'zgarishi muammoli kreditlar ulushiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

2-havola. Tizimli xatarlarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma

2025-yilning iyul oyida Markaziy bank tomonidan O'zbekiston moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatarlarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajasini baholash maqsadida 36 ta tijorat banklari (respondentlar) orasida navbatdagi so'rovnoma⁴² o'tkazildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, geosiyosiy xatarlar respondentlar tomonidan qayd etilgan eng asosiy xatar sifatida belgilangan. Shuningdek, valyuta kursi o'zgaruvchanligi, aholi orasida qarz yuki darajasining ortishi, yuqori inflyatsiya va kiber hujumlar bilan bog'liq xavflar moliya tizimi uchun asosiy xatarlar deya baholanmoqda.

42-chizma. O'zbekiston moliya sektoridagi asosiy tizimli xatarlar



Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.

Izoh: Tizimli xatarlarning shrift kattaligi ularning muhimlik darajasidan kelib chiqqan. Muhimlik darajasi 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala bo'yicha vaznlar asosida hisoblangan.

Vaznlar bo'yicha hisoblangan har bir respondent tomonidan qayd etilgan 5 ta eng muhim tizimli xatarlar to'plamining 61 foizi tashqi geosiyosiy xatarlar, 42 foizi valyuta kursining keskin o'zgaruvchanligi, 33 foizi aholi qarz yukining ortishi, 30 foizi inflyatsiya sur'atining tezlashishi, 26 foizi kiber hujumlar bilan bog'liq xatarlardan iborat⁴³.

Shu bilan birga, respondentlar tomonidan kredit xatari, iqtisodiy pasayish, yirik qarz oluvchilarning defolt xavfi, likvidlilik muammolari hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq


⁴² Tizimli xatarlarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma namunasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

⁴³ Mazkur savolda har bir bank tomonidan 5 tadan tizimli xatarlar sanab o'tilgan. Bunda, vaznlar bo'yicha hisoblangan moliya tizimiga ta'sir etuvchi ma'lum bir xatar turini tanlagan respondentlar sonining jami respondentlar sonidagi ulushi, boshqa bir xatar turining respondentlar o'rtasida tizimli xatar sifatida baholanish darajasi bilan o'zaro bog'liq emas. Banklar tomonidan belgilangan tizimli xatarlarning barcha respondentlar javoblari orasida tarqalishi o'zaro bog'liqsiz hodisalar (non-mutually exclusive) hisoblanadi. Shunga ko'ra, respondentlar tomonidan qayd etilgan xatar turlari bo'yicha ulushlarning yig'indisi 100 foizlik to'plamdan kelib chiqilmagan.

xavflar O'zbekiston moliya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar qatorida sanab o'tilgan.

2025-yil iyul oyida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, qisqa muddatda tizimli xatarlarning sodir bo'lish ehtimolini past darajada baholayotgan respondentlarning ulushi 39 foizni tashkil etib, 2025-yilning yanvar oyidagi so'rovnoma natijasiga nisbatan 17 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, respondentlarning 39 foizi xatar sodir bo'lish ehtimoli o'rtacha deb belgilagan bo'lib, 19 foiz bandga oshgan. Bu, o'z navbatida, qisqa muddatli istiqbolda respondentlarning tizimli xatarlarning yuzaga kelish ehtimoli bo'yicha kutilmalari oshganligi bilan izohlash mumkin.

43-chizma. Tizimli xatarlarning sodir bo'lish ehtimoli, %




Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.

O'rta muddatda tizimli xatarlarning sodir bo'lish ehtimoli past darajada deya baholagan respondentlarning ulushi oshishda davom etib, 33 foizni tashkil etdi. Respondentlarning 50 foizi xatar sodir bo'lish darajasini o'rtacha deya qayd etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2025-yil yanvar oyida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga nisbatan 11 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, respondentlarning 14 foizi o'rta muddatda tizimli xatar sodir bo'lish ehtimolini yuqori baholagan.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 67 foizi kreditga bo'lgan talabni oshganligini qayd etishgan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga qaraganda 10 foiz bandga yuqoriroq bo'ldi.

Shuningdek, respondentlarning 42 foizi banklararo likvidlilik holati yaxshilanganligini qayd etishgan, bu 2024-yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga nisbatan 5 foiz bandga oshgan.

44-chizma. So'nggi 6 oy davomida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, %



Manba: Markaziy bank so'rovnoma.

Bundan tashqari, respondentlarning 14 foizi qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining kamayganligini ta'kidlashgan. 2024-yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bilan solishtirilganda, moliyalashtirish manbalarining qisqa muddatlida 12 foiz bandlik, uzoq muddatlida 18 foiz bandlik pasayish kuzatildi.

3-havola. Tizimli shartli talablar tahlili

Global miqyosda kuzatilayotgan geosiyosiy keskinliklar hamda O'zbekiston moliya sektorida bank tizimining salmog'i yuqoriligi banklarning tizimli xatarlarga bardoshlilikini baholashning dolzarbligini oshirmoqda.

Banklarning buxgalteriya balansidagi statistik ma'lumotlarga asoslangan tahlil retrospektiv⁴⁴ bo'lib, iqtisodiy shoklar sharoitida yuzaga keladigan tizimli xatarlarni to'liq yoritib olmasligi mumkin. Tizimli shartli talablar tahlili (Contingent Claims Analysis, CCA) esa banklarning balans va bozor ma'lumotlaridan foydalangan holda har bir bankning defolt ehtimolligi, kutilayotgan yo'qotishlar hamda ushbu yo'qotishlardan foydalangan holda bank tizimining umumiy zaifliklari baholanadi (1-ilova).

Tizimli CCA modeli faqatgina alohida banklarning xatarlari yig'indisini emas, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha tizimli xatarlarni ham inobatga oladi. Natijada, butun moliya tizimining xatar darajasi individual xatarlar yig'indisidan yuqori bo'lishi mumkin. Ushbu model bank aktivlarining individual kutilayotgan yo'qotishlarni birlashtiradi. Bunda, Ekstremal qiymatlar nazariyasining (Extreme Value Theory, EVT)⁴⁵ statistik usulidan foydalangan holda moliyaviy stress sharoitida bir nechta bankning bir vaqtda inqirozga uchrash ehtimolligidagi yo'qotishlar aniqlanadi.


O'zbekiston bank tizimi uchun qo'llanilgan SSA model natijalariga ko'ra, tanlab olingan uchta tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha defoltgacha bo'lgan masofaning (Distance-to-Default) qisqarishi banklardagi defolt bo'lish ehtimolligining pasayishida o'z ifodasini topgan. Xususan, tahlil qilingan banklar bo'yicha model orqali baholangan defolt ehtimolligining oddiy arifmetik o'rtacha qiymati 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha 34 foizda shakllanib, 2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 41 foiz bandga kamaygan.

Tahlil qilingan tizimli ahamiyatga molik banklar orasida aktivlarning baholangan qiymati va belgilangan xatar chegarasidan kelib chiqib baholangan defoltgacha bo'lgan masofaning musbat shakllanishi natijasida defolt ehtimoli 50 foizdan pasaygan. Tanlab olingan tizimli ahamiyatga molik banklardagi defolt ehtimolining sezilarli pasayishi hisobiga ushbu banklardagi umumiy kutilayotgan yo'qotishlar miqdori 2025-yil I yarim yilligi yakunida 2024-yilning mos davriga nisbatan 80 foizga qisqargan.


⁴⁴ Retrospektiv tahlil – bu o'tgan davrdagi ma'lumotlar, voqealar yoki jarayonlarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish usuli.

⁴⁵ Peon, P. (2020). Statistical Extreme Value Theory. Application to basins of the Basque Country.


45-chizma. Defoltgacha bo'lgan masofa, standart og'ishlar soni




46-chizma. Defolt ehtimoli, %



47-chizma. Bank aktivlarining kutilayotgan yo'qotishlari, natural logarifm qiymat



48-chizma. Bank tizimi aktivlari bo'yicha eng xatarli holatidagi yo'qotishlarning bank tizimi aktivlaridagi ulushi, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Defoltgacha bo'lgan masofa baholangan aktivlar qiymatining belgilangan xatar chegarasidan uzoqda bo'lgan standart og'ishlar sonini ifodalovchi o'lchov hisoblanadi. Defoltgacha bo'lgan masofaning 0 ga teng bo'lishi defolt ehtimolining 50 foizga tengligini, musbat qiymati defolt ehtimolining 50 foizdan kam ekanligini, aksincha manfiy qiymati esa defolt ehtimolining 50 foizdan yuqori ekanligini anglatadi.


Tanlab olingan tizimli ahamiyatga molik banklar aktivlarining kutilayotgan yo'qotishlari bo'yicha ayrim banklarda yuqori konsentratsiyalashuvning kuzatilganligi sababli yo'qotishlar hajmi standartlashtirilib, so'm birligidan natural logarifm ko'rinishiga keltirilgan.

2025-yilning I yarim yilligida, tahlil qilingan tizimli ahamiyatga molik banklarda defoltgacha bo'lgan masofa hamda defolt ehtimolligi bilan bog'liq holat yaxshilangan. Shuningdek, tanlab olingan tizimli ahamiyatga molik banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar hamda ushbu yo'qotishlar ta'sirida sodir bo'ladigan tarqalish xatari bo'yicha baholangan jami ehtimoliy yo'qotishlar miqdori kamaygan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, bank tizimi aktivlari bo'yicha eng xatarli holatidagi ehtimoliy yo'qotishlarning bank tizimi aktivlaridagi ulushi 2024-yilning mos holatiga nisbatan 13 foiz bandga pasaygan. 2025-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, 5 foiz ehtimollikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank tizimi aktivlaridagi yo'qotishlar hajmining jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi 4 foizda shakllangan.


2.2. Nobank moliya sektori

Moliya tizimida nobank moliya sektori⁴⁶ kichik ulushni tashkil etmoqda. 2025-yilning I yarim yilligida nobank moliya sektori aktivlarining YalMdagi ulushi 1,8 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz bandga ortgan. Nobank moliya sektorining eng katta qismini tashkil etuvchi sug'urta sektori daromadliligining pasayishiga qaramay, sug'urta tashkilotlarining operatsion samaradorligi hamda sug'urta xizmatlari ommalashish darajasi ortib bormoqda. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari aktivlarining o'sishi ta'sirida kapital yetarililik ko'rsatkichi tushgan bo'lsa-da, minimal chegaradan yuqori shakllangan. Bundan tashqari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining daromadlilik darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

49-chizma. Nobank moliya sektori aktivlari, trln so'm



50-chizma. Nobank kredit tashkilotlari kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati, %




Manbalar: Markaziy bank, Milliy statistika qo'mitasi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Korporativ axborot yagona portali.

⁴⁶ Nobank moliya sektori tahlilida nobank kredit tashkilotlari va sug'urta kompaniyalari inobatga olingan.


Nobank moliya sektori aktivlarining o'sish dinamikasi saqlanib qolmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatida nobank moliya sektori aktivlari 28,9 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 39 foizga oshgan. 2024-yil 1-iyul – 2025-yil 1-iyul davr oralig'ida nobank moliya tashkilotlari tarkibidagi mikromoliya tashkilotlari aktivlari 62 foizlik yillik o'sish kuzatildi. Shuningdek, 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, nobank moliya sektori aktivlarining 44 foizi sug'urta tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

Nobank kredit tashkilotlari⁴⁷ tomonidan kredit ajratish sur'ati sekinlashmoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, nobank kredit tashkilotlari kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 24 foiz bandga qisqarib, 55 foizni tashkil qildi. Shuningdek, 2025-yil I yarim yilligi yakuniga kelib, nobank kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 14 trln so'mda shakllanib, ushbu kreditlarning 65 foizi lombard hamda mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan.

51-chizma. Sug'urta tashkilotlari aktivlari rentabelligi, %



52-chizma. Sug'urta tashkilotlari aktivlari, trln so'm



Manbalar: Korporativ axborot yagona portali va Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Sug'urta sektori uchun aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichi barcha sug'urta tashkilotlarining balans ma'lumotlarini umumlashtirgan holda hisoblab chiqilgan.

⁴⁷ Nobank kredit tashkilotlari mikromoliya tashkilotlari, lombardlar hamda ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotini o'z ichiga oladi.


Sug'urta tashkilotlari daromadlilik ko'rsatkichida pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining aktivlar rentabelligi⁴⁸ ko'rsatkichi 6,5 foizda shakllandi. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha sug'urta tashkilotlari aktivlarining yillik hisobda 26 foizga ortishi sharoitida soliq to'lashdan oldingi sof foyda 5,8 foizga kamaydi. Natijada, aktivlar rentabelligi 2024-yilning mos holatiga nisbatan 1,5 foiz bandga tushdi.

Sug'urta tashkilotlari aktivlari barqaror o'sib bormoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining jami aktivlari 2024-yilning mos holatiga nisbatan 2,7 trln so'mga ko'paydi. Jami sug'urta tashkilotlari aktivlarining ortishida umumiy sug'urta tashkilotlari aktivlarining yillik hisobda 2,5 trln so'mga ko'payishi asosiy o'rin tutgan. 2025-yil I yarim yillik yakunida, umumiy sug'urta tashkilotlarining aktivlari 12,3 trln so'mni tashkil etib, jami sug'urta tashkilotlari aktivlarining 96 foiziga to'g'ri kelgan.

53-chizma. Sug'urta tashkilotlarining investitsiyalari tarkibi, trln so'm



54-chizma. Sug'urta tashkilotlarining choraklik sug'urta to'lovlari va mukofotlari, trln so'm




Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi.

⁴⁸ Aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichi soliqlarni to'lashdan oldingi yillik sof daromadni o'rtacha jami aktivlarga bo'lish orqali hisoblanadi.


Sug'urta tashkilotlari ko'chmas mulk bozoriga investitsiya kiritishni faollashtirdi. 2025-yilning 1-iyul holatiga sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalar hajmi 8,3 trln so'mni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos holatiga nisbatan 36 foizga oshdi⁴⁹. Xususan, depozitlar hamda ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalar hajmi mos ravishda 25 va 160 foizlarga o'sgan. Investitsiya portfeli tarkibida depozitlar 61 foiz bilan yuqori ulushni saqlab qolmoqda. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining ko'chmas mulkka kiritgan investitsiyalari hajmi 1,6 trln so'mgacha ortdi.

Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortganligi sug'urta mukofotlarining o'sishida o'z aksini topdi. 2025-yilning I yarim yilligida sug'urta mukofotlari⁵⁰ miqdori 6,2 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 46 foizga oshdi. Shuningdek, sug'urta to'lovlari⁵¹ 12 foizga ko'payib, 1,2 trln so'mga yetdi.

55-chizma. Sug'urta to'lovlarining mukofotlarga nisbati, %



56-chizma. Sug'urta bozorida mukofotlar bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi⁵²



Manbalar: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Markaziy bank hisob-kitobi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yilning I yarim yillik yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

⁵⁰ Sug'urta mukofoti – sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan sug'urta uchun to'lov.

⁵¹ Sug'urta to'lovi – bu sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

⁵² HH indeksi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi.


Sug'urta tashkilotlarining operatsion samaradorligi yaxshilanib bormoqda. 2025-yilning I yarim yilligida sug'urta to'lovlarining sug'urta mukofotlariga nisbati 20 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 6 foiz bandga pasaygan. 2025-yil dastlabki yarim yilligi bo'yicha sug'urta to'lovlarining yillik o'sish sur'ati sug'urta mukofotlari yillik o'sishiga qaraganda 34 foiz bandga sekinlashgan. Sug'urta tashkilotlari operatsion samaradorligining ortishi sug'urta tashkilotlarining kelgusidagi daromadligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sug'urta mukofotlari bo'yicha konsentratsiya xavfi o'rta darajada shakllanmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakunida sug'urta tashkilotlari mukofotlari bo'yicha HH indeksi 1 348 ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 15 foizga kamaydi. O'z navbatida, sug'urta tashkilotlari soni 34 tagacha⁵³ qisqargan bo'lsa-da, sug'urta mukofotlari bo'yicha konsentratsiyalashuv darajasining joylashuvi o'rta hududda saqlanib qolmoqda.

O'zbekistonda sug'urta xizmatlari zichligi va ommalashish darajasining ortayotganligi sug'urta bozorining moliyaviy barqarorligi va iqlim bilan bog'liq xatarlarga nisbatan bardoshlilik mustahkamlanayotganligini ko'rsatmoqda. 2025-yilning I yarim yilligi yakunida sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi 7,7 promilleni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,3 promille bandga o'sgan. Sug'urta xizmatlarning zichligi 18 AQSh dollaridan 24 AQSh dollarigacha oshgan. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari zichligining o'sishiga qaramay, iqtisodiy rivojlanish darajasi o'xshash bo'lgan mamlakatlar orasida past ko'rsatkichga ega mamlakatlar qatorida qolmoqda.


⁵³ O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yilning I yarim yillik yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

57-chizma. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari zichligi va ularning ommalashish darajasi



— Sug'urta xizmatlari zichligi, AQSh dollari
 — Sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi, % (o'ng shkala)

58-chizma. Ayrim davlatlarda sug'urta xizmatlari zichligi va ularning ommalashish darajasi (2025-yil 1-iyul holatiga)



Manbalar: vakolatli davlat organlari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Promille (‰) sonning mingdan bir ulushini yoki foizning o'ndan bir qismini ifodalaydi.

Sug'urta xizmatlari zichligi (insurance density) jami sug'urta mukofotlarini aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu nisbatni hisoblashda yillik jami sug'urta mukofotlari inobatga olingan.


Sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi (insurance penetration) jami sug'urta mukofotlarining nominal YaIMga nisbati orqali hisoblanadi. Bunda, sug'urta mukofotlari va nominal YaIM ko'rsatkichlarining mos davrlardagi qiymatlaridan foydalanilgan.

Mikromoliya tashkilotlari to'lov qobiliyatida pasayish kuzatilmoqda. 2025-yilning 1-iyul holati bo'yicha mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyenti⁵⁴ 29 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 5 foiz bandga pasaydi. Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali yillik hisobda 38 foizga oshgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkich aktivlar o'sishiga nisbatan 24 foiz bandga sekinroq bo'ldi⁵⁵.


⁵⁴ Mikromoliya tashkiloti kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti mikromoliya tashkiloti jami xususiy kapitalining jami aktivlariga nisbati orqali hisoblanadi.

⁵⁵ Markaziy bank. (2025). Nobank kredit tashkilotlarining ko'rsatkichlari.

59-chizma. Mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyenti, %



60-chizma. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining aktivlar rentabelligi, %



Manbalar: O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: 2023-yil 14-apreldan e'tiboran mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyentiga minimal talab o'rnatilgan.

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining rentabellik ko'rsatkichi o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2025-yilning I yarim yilligida ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining sof foydasi yillik hisobda 185 foizga oshib, 91,2 mlrd so'mni tashkil qildi⁵⁶. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining daromadida kuzatilgan yuqori o'sish sur'ati hisobiga 2025-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha aktivlar rentabelligi 3,4 foizda shakllanib, 2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,6 foiz bandga yuqoriladi.

⁵⁶ O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti. (2025). Moliyaviy hisobotlar.

III. Nomoliyaviy sektor

3.1. Uy xo'jaligi sektori

Qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial vositalarning qo'llanilishi hamda moliyaviy sharoitlar ta'sirida aholi qarz yuki holati yaxshilandi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) cheklovining qat'iylashtirilishi⁵⁷ bankdan kredit olgan aholining umumiy qarz yuki darajasining pasayishida o'z ifodasini topdi.


Chakana kredit oluvchilar soni bo'yicha nobank sektori qamrovi kengaymoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, jami qarzdor aholi sonining 81 foizi banklardan, 27 foizi nobank kredit tashkilotlaridan kredit olgan. Shundan, bankdan kredit olgan aholining 19 foizi bankdan tashqari qarz majburiyatlari ham mavjud.

Aholining barcha qarz majburiyatlari summasi tarkibida bankdan tashqari majburiyatlarning ulushi past darajada shakllanmoqda. Jismoniy shaxslar barcha majburiyatlarining 93 foizi bank kreditlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, nobank kredit va nomoliyaviy tashkilotlarning ulushlari mos ravishda 4 va 3 foizlarda shakllangan. Nobank sektorida chakana kredit oluvchilarning qamrovi oshgan bo'lsa-da, ularga to'g'ri keladigan qarz summasining kichikligi ushbu sektorda tizimli xatarlarning sodir bo'lish ehtimoli past darajada saqlanib qolayotganligini ifodalaydi.


Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslar orasida bir nechta qarz majburiyatlari mavjud bo'lgan holatlar ko'paymoqda. 2025-yilning I yarim yilligida bankdan kredit olgan aholining 47 foizida bank va bankdan tashqari sektorlardan birdan ortiq majburiyatlari mavjud bo'lib, ularning ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 6 foiz bandga oshgan.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-yanvardagi "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 42/16-sonli qarori.


61-chizma. Qarz oluvchilar soni bo'yicha taqsimot*, 2025-yil 1-iyul holatiga



62-chizma. Qarz summasi bo'yicha taqsimot, 2025-yil 1-iyul holatiga**



63-chizma. Kreditlar bo'yicha jismoniy shaxslarning banklardan qarzdorlik holati, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Diagrammadagi shakllarning chegaralangan yuzalari hajmi kredit yoki qarz majburiyati mavjud jismoniy shaxslar soniga proporsional ravishda belgilangan. Kredit yoki qarz majburiyati mavjud aholi sonini aniqlashda jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsion raqamidan foydalanilgan. Hisob-kitoblar qarz oluvchilar soni bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, bunda bitta qarz oluvchida bank yoki bankdan tashqari tashkilotlardan mavjud bir necha kredit yoki qarz shartnomalari inobatga olinmagan.

**Bank, nobank va nomoliyaviy tashkilotlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit va qarz qoldig'ining taqsimlanishida ushbu tashkilotlar tomonidan aholiga ajratilgan mablag'larning ulushi mos ravishda keltirilgan. Doiralar kesishmalarining rangi tashkilotlardan ajratilgan summasiga ustunlikni ifodalaydi. Kesishmalarining yuzasi bir necha kredit va qarzi mavjud aholiga kesishmadagi rang orqali belgilangan tashkilot tomonidan ajratilgan majburiyatlar hajmiga proporsional ravishda belgilangan.


Tijorat banklaridan kredit olgan aholining umumiy qarz yuki ko'rsatkichi pasaygan. Jismoniy shaxslarning qarz yuki darajasi pasayishiga 2025-yildan e'tiboran barcha kredit turlari uchun qarz yuki cheklovining 50 foizgacha qat'iylashtirilishi ta'sir ko'rsatdi⁵⁸. Xususan, 2025-yil I yarim yilligida bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning bank va bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI ko'rsatkichi 50 foiz va undan past bo'lgan qarz oluvchilar bo'yicha kredit summasining jami kredit hajmidagi ulushi 78 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 18 foiz bandga ortgan. Bundan tashqari, 2025-yil I yarim yilligi bo'yicha jismoniy shaxslarning umumiy DSTI ko'rsatkichi⁵⁹ 2024-yilning II yarim yilligida kuzatilgan 36 foizdan 33 foizgacha pasaygan.

Aholining DSTI ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ipoteka va avtokreditlarda ijobiy o'zgarish kuzatildi. 2025-yil I yarim yilligi davomida banklardan ipoteka krediti olgan jismoniy shaxslarning barcha majburiyatlarini inobatga olgan holdagi o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 50 foizni tashkil etib, 2024-yilning I yarim yilligiga nisbatan 19 foiz bandga pasaygan. Shundan, jami kredit summasining 31 foizida DSTI ko'rsatkichi 50 foizdan yuqori bo'lib, 28 foiz bandga kamaygan. 2025-yilning dastlabki 6 oyida banklardan avtokredit olgan jismoniy shaxslarning o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 2024-yilning I yarim yilligidagi 68 foizli ko'rsatkichdan 38 foizgacha tushgan.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-yanvardagi "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 42/16-sonli qarori.

⁵⁹ DSTI ko'rsatkichini hisoblash metodologiyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Aholining qarz majburiyatlarini bajarish holati tahlilida keltirilgan.


64-chizma. Bankdan qarzidor jismoniy shaxslarning bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI taqsimoti



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: DSTI ko'rsatkichi daromadga ega va oylik daromadi o'rtacha uy xo'jaligining bir oylik minimal yashash xarajatidan kam bo'lmagan qarz oluvchilar bo'yicha hisoblangan. Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning DSTI ko'rsatkichini hisoblashda tahlil etilayotgan davrda ajratilgan kredit majburiyatlariga qo'shimcha tarzda bank, nobank va nomoliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan hamda amalda bo'lgan kredit va qarz shartnomalari bo'yicha barcha majburiyatlar inobatga olingan.

65-chizma. Bankdan qarzдор jismoniy shaxslarning bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI o'rtachasi⁶⁰



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: O'rtacha DSTI darajasi jismoniy shaxslarning mavjud majburiyatlari bo'yicha jami oylik to'lov miqdorini ularning oylik daromadiga nisbati ko'rsatkichining o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali aniqlangan.

⁶⁰ Jismoniy shaxslar bo'yicha DSTI ko'rsatkichini hisoblashda rasmiy oylik daromadi o'rtacha uy xo'jaliklarining bir oylik minimal yashash xarajatlaridan kam bo'lmagan qarz oluvchilar qamrab olingan. 2025-yil I yarim yilligida aholi qarz yuki darajasini aniqlashda bankdan jami kredit oluvchilarning 45 foizi qamrab olingan. Ushbu ko'rsatkich ipoteka kreditida 84 foiz, avtokreditda 43 foiz, mikroqarzda 48 foizni tashkil etgan.

Ipoteka kreditlari bo'yicha LTV ko'rsatkichi yuqoriligicha qolmoqda. 2025-yilning I yarim yilligida banklar tomonidan aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha LTV ko'rsatkichi 78 foizni tashkil etib, 2024-yilning I yarim yilligiga nisbatan deyarli o'zgarishsiz shakllandi. Shuningdek, 2025-yil I yarim yilligida ajratilgan LTV ko'rsatkichi 80 foizdan yuqori bo'lgan ipoteka kreditlarining jami ipoteka kreditlaridagi ulushi 38 foizni tashkil etdi.

Avtokreditlar bo'yicha o'rnatilgan bilvosita cheklovlarning⁶¹ samarasi ma'lum bir kechikish bilan namoyon bo'lmoqda. 2025-yilning I yarim yilligida banklar tomonidan ajratilgan avtokreditlarning o'rtacha LTV ko'rsatkichi 77 foizni tashkil etdi. Ajratilgan avtokreditlarning 74 foizida LTV ko'rsatkichi 75 foizdan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Avtokreditlar bo'yicha bilvosita LTV cheklovi o'rnatilgandan boshlab 2025-yil iyun oyigacha ajratilgan avtokreditlar tarkibida LTV ko'rsatkichi 75 foizdan katta avtokreditlarning ulushi 77 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yil noyabr va 2023-yil avgust oylari oralig'ida ajratilgan avtokreditlarga nisbatan 5 foiz bandga kamaygan. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, avtokreditlar qoldig'i bo'yicha LTV ko'rsatkichi 75 foizdan yuqori kreditlarning ulushi 2023-yil 1-sentabrdagi 54 foizdan 12 foizgacha pasaygan. Kredit bozoridagi raqobat natijasida banklar tomonidan LTV ko'rsatkichi yuqoriroq bo'lgan avtokreditlarning ajratilishini ma'lum muddatdan keyin kreditlarning so'ndirilmagan qismini kamayishi hisobiga LTV darajasi pasayishi hamda tavakkalchilik darajasining qisqarishi bo'yicha kutilmalar bilan izohlash mumkin. 2025-yil 24-iyuldan avtokreditlar ajratishda LTV ko'rsatkichiga o'rnatilgan 75 foizlik bevosita cheklovlar⁶² avtokreditlarning garov bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.


⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 6-iyundagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi 14/7–sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 31-yanvardagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 42/14–sonli qarori.


⁶² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 8-apreldagi "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 7/3–sonli qarori.

66-chizma. Ipoteka va avtokreditlar bo'yicha LTV ko'rsatkichlari


Ipoteka kreditlari bo'yicha LTV ko'rsatkichining taqsimlanishi




Ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan LTV ko'rsatkichi, %



Avtokreditlar bo'yicha LTV ko'rsatkichining taqsimlanishi




Avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan LTV ko'rsatkichi, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: O'rtacha tortilgan LTV ko'rsatkichi har bir kredit bo'yicha LTV darajasi va kredit hajmidan kelib chiqqan holda o'rtacha tortilgan qiymati orqali aniqlangan.

67-chizma. Avtokreditlar bo'yicha o'rnatilgan bilvosita LTV cheklovlarining samaradorligi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: 2023-yil 20-avgustdan avtokreditlar bo'yicha tavakkalchilik darajalari LTV ko'rsatkichi asosida belgilanib, avtokreditlar uchun dastlabki bilvosita LTV cheklovi o'rnatildi. 2024-yil 1-iyuldan e'tiboran avtokreditlar bo'yicha tavakkalchilik darajalari LTV va DSTI ko'rsatkichlari orqali aniqlash tartibi belgilandi.


Yangi ajratilgan avtokreditlar bo'yicha bilvosita LTV cheklovning o'rnatilishidan oldingi davr sifatida 2021-yil noyabr va 2023-yil avgust oralig'ida ajratilgan avtokreditlar inobatga olingan. Cheklovning o'rnatilishidan keyingi davr sifatida 2023-yil sentabr va 2025-yil iyun oralig'ida ajratilgan avtokreditlar hisobga olingan.

Avtokreditlar qoldig'i bo'yicha bilvosita cheklovlarning o'rnatilishidan oldingi davr sifatida 2023-yil 1-sentabr holatiga avtokreditlar qoldig'i inobatga olingan. Avtokreditlar bo'yicha bilvosita cheklovlarning o'rnatilishidan keyingi davr sifatida 2025-yil 1-iyul holatiga avtokreditlar qoldig'i tahlil etilgan.


Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar qoldig'idagi yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarning kredit portfeli 196,9 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 22 foizga oshgan. Shuningdek, avtokreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati manfiy 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, ipoteka va mikroqarzlar qoldig'ining yillik o'sish sur'atlari mos ravishda 18 va 73 foizlarda shakllangan⁶³.

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.

68-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati (YoY), %



69-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldiqlari, trln so'm




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YalMga nisbati ko'rsatkichining amaldagi qiymati bilan uzoq muddatli trendi orasida manfiy tafovut shakllangan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'ining YalMga nisbati 12 foizga teng bo'lib, o'zining uzoq muddatli trendiga nisbatan 0,5 foiz bandga pastroq ko'rsatkich qayd etdi. Chakana kreditlar portfelida eng yuqori ulushga ega bo'lgan ipoteka kreditlari qoldig'i 72,8 trln so'mni tashkil etib⁶⁴, uning YalMga nisbati 5 foizda deyarli o'zgarishsiz shakllandi.

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.

70-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti⁶⁵, foiz band



71-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit turlarining YalMga nisbati, %




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Aholi jon boshiga nominal YalMning AQSh dollaridagi miqdori oshgan. 2025-yilning I yarim yilligida aholi jon boshiga hisoblangan nominal YalM miqdori 1 662 AQSh dollariga teng bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 220 AQSh dollariga ortgan. Bunda, aholi soni va valyuta kursi o'zgarishlarining salbiy ta'siri mos ravishda manfiy 28 va 36 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, nominal YalM o'zgarishi 284 AQSh dollarlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

⁶⁵ Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbatining uzoq muddatli trendi Bazel yondashuviga ko'ra, choraklik ma'lumotlar uchun 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlangan.

72-chizma. Aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIM dekompozitsiyasi, AQSh dollari



73-chizma. Aholi jon boshiga hisoblangan AQSh dollaridagi nominal YaIMning yillik o'zgarish dekompozitsiyasi, %




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Aholi jon boshiga YaIM muayyan davrda joriy narxlardagi YaIM hajmini mamlakatning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Shuningdek, aholi jon boshiga nominal YaIMni AQSh dollaridagi ekvivalenti milliy valyutadagi aholi jon boshiga nominal YaIM miqdorini ushbu davrdagi AQSh dollarining so'mga nisbatan o'rtacha almashinuv kursiga bo'lish orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan AQSh dollaridagi nominal YaIM qiymatining o'sish sur'ati tezlashdi. 2025-yilning I yarim yilligi yakuniga ko'ra, aholi jon boshiga hisoblangan AQSh dollaridagi nominal YaIMning yillik o'zgarishi 15 foizga to'g'ri keldi. Bunda, nominal YaIM hajmining o'zgarishi 20 foizlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, valyuta almashinuv kursi hamda aholi soni o'zgarishining salbiy ta'sirlari mos ravishda 3 va 2 foizlarni tashkil etdi.

74-chizma. Uy xo'jaligi sektorida kredit oluvchilar soni va har 1 000 kishiga* to'g'ri keladigan kredit oluvchilar soni



75-chizma. Nominal ish haqining yillik o'sishi sur'ati (YoY), %



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: *Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni inobatga olingan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni – muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan iborat.


Banklar oldida kredit majburiyati mavjud jismoniy shaxslar qamrovi ortib bormoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, 5 mlndan ko'proq kishida bank kreditlari mavjud bo'lib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 15 foizga oshgan. Shuningdek, har 1 000 ta mehnatga layoqatli doimiy aholiga to'g'ri keladigan kredit oluvchilar soni 29 kishiga ortib, 2025-yilning 1-iyul holatiga 238 kishini tashkil etdi. Kredit oluvchilar sonining tez sur'atlarda o'sib borishini bank xizmatlari qamrovining kengayib borishi, shuningdek aholining rasmiy daromadi o'sishi sharoitida kreditga bo'lgan talabning mavjudligi bilan izohlash mumkin. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, o'rtacha hisoblangan nominal ish haqi 6,0 mln so'mni tashkil etib, yillik hisobda 17 foizga o'sgan⁶⁶.

⁶⁶ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik).

76-chizma. Avtomobil xarid qilish qobiliyati indeksi



77-chizma. Avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan muddatlar va foiz stavkalari




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Avtomobil xarid qilish qobiliyati indeksining tushishi aholi tomonidan avtomobil xarid qilish imkoniyatining pasayganini, aksincha ortishi esa avtomobil xarid qilish imkoniyatining oshganligini anglatadi.

2025-yilning I yarim yilligida aholining avtomobil xarid qilish qobiliyati oshgan. Ajratilgan avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan so'ndirish muddatining biroz qisqarishiga qaramay, aholi daromadining ortishi hamda avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkaning pasayishi hisobiga aholining avtokredit asosida avtomobil xarid qilish imkoniyatlari yaxshilangan. Jumladan, 2025-yil I yarim yilligida ajratilgan avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan so'ndirish muddati 3,7 yilni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,4 yilga qisqargan. 2025-yil I yarim yilligida avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavka 23 foizda shakllanib, 2024-yilning dastlabki yarim yilligiga nisbatan 4 foiz bandga kamaygan.

78-chizma. Avtomobil oldi-sotdi shartnomalari soni, ming dona



79-chizma. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan hamda import qilingan yengil avtomobillar soni, ming dona



Manbalar: Adliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi.


Izoh: O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar tarkibida maxsus yengil avtomobillar inobatga olinmagan.

Avtomobil bozorida faollik susaygan. 2025-yilning I yarim yilligida O'zbekistonda maxsus yengil avtomobillardan tashqari ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar soni 185,6 mingtani tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5 foizga oshgan⁶⁷. O'z navbatida, xorijiy mamlakatlardan 24,1 mingta yengil avtomobillar import qilingan va 34 foizga kamaygan⁶⁸. Shuningdek, avtomobil bozoridagi faollik sezilarli pasayib, 2025-yilning dastlabki olti oyida 2024-yilning mos davriga nisbatan avtomobil oldi-sotdi shartnomalari soni 28 foizga kamaygan.


⁶⁷ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi.

⁶⁸ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi. (2025). Iste'mol tovarlar importi to'g'risida ma'lumot (Transport vositalari).

80-chizma. Avtokreditlar qoldig'i bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi



81-chizma. Banklar qirqimida avtokreditlar holati*, 2025-yil 1-iyul



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: HH indeksi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi.

*Avtokredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 400 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar bank tizimi bo'yicha 2025-yil 1-iyul holatiga ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.


Avtokreditlar bozorida tartibga solish arbitraji bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Avtokreditlar bo'yicha konsentratsiya xavfi pasaymoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, banklardagi avtokredit qoldig'i bo'yicha HH indeksi 2024-yilning mos davriga nisbatan 397 birlikka kamayib, 1 087 ga yetdi. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, bank tizimi bo'yicha avtokreditlar qoldig'i 37,1 trln so'mni tashkil etib, jami kredit portfelining 6 foizini tashkil etgan⁶⁹. Biroq, ayrim banklar amaldagi konsentratsiya cheklovlarini chetlab o'tish amaliyotlari orqali tartibga solish arbitraji bilan bog'liq xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.

82-chizma. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning jami mikroqarzlardagi ulushi va qoplash koeffitsiyenti, %



83-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga banklar qirqimida mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi va qoplash koeffitsiyenti, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Yashil rang mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning jami mikroqarzar tarkibidagi ulushi yoki mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti ko'rsatkichlaridan kamida bittasi bo'yicha bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan pastroq tavakkalchilikka ega bo'lgan banklarni ifodalaydi. Jigarrang esa aksincha, ushbu ikkala ko'rsatkichlar bo'yicha bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yuqori tavakkalchilikka ega bo'lgan banklarni ifodalaydi. Kredit portfelida mikroqarzarlar mavjud bo'lmagan yoki mikroqarzarlar bo'yicha muammoli krediti bo'lmagan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar 2025-yil 1-iyul holatiga bank tizimi bo'yicha ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.

Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi ortib bormoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning jami mikroqarzlardagi ulushi 4,4 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 foiz bandga ortgan. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlar uchun yaratilgan zaxiralar miqdorining muammoli kreditlardagi ulushi 47 foizda shakllanib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 17 foiz bandga oshgan. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi yuqori bo'lgan banklarda qoplash koeffitsiyentining baland ekanligi ushbu segmentdagi xatarlarni kamaytiradi.

84-chizma. Mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlar tarkibi, %



85-chizma. Mikroqarz oluvchilar soni va har bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan mikroqarz shartnomalari soni, mln kishi




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Mikroqarzlilar bo'yicha kredit portfeli sifati yomonlashgan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning 57 foizi shubhali va umidsiz deb tasniflangan kreditlar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 17 foiz bandga oshgan. Mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning hajmi 2,6 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 179 foizga ko'paygan. Mikroqarzlilar miqdorining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan birga mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlar hajmining ortishi banklarda ushbu kredit turi bo'yicha kredit yo'qotishlari yuzaga kelishi mumkinligidan dalolat beradi.

Bir nechta mikroqarz shartnomasi mavjud qarzidorlar ko'lamini ortmoqda. 2025-yilning I yarim yillik yakuni bo'yicha banklardan mikroqarz olgan qarzidorlar soni 2,6 mln kishini tashkil etib, yillik hisobda 29 foizga ko'paygan. Shuningdek, 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, har bir qarz oluvchiga 1,7 dona mikroqarz shartnomalari to'g'ri kelib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos holatiga nisbatan 11 foizga oshgan.

86-chizma. Banklar qirqimida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar holati*, 2025-yil 1-iyul



87-chizma. Banklar tomonidan ajratilgan mikroqarzlar qoldig'i bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi



Manba Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Mikroqarzlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 200 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar bank tizimi bo'yicha 2025-yil 1-iyul holatiga ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.

HH indeksi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi.

Mikroqarzlar bo'yicha konsentratsiya xavfi o'sishdan to'xtadi. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, banklar tomonidan ajratilgan mikroqarzlar qoldig'ining konsentratsiya darajasi bo'yicha HH indeksi 994 ni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 34 birlikka oshgan. Ayrim banklarda mikroqarzlar bo'yicha konsentratsiya xavfi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Bunda, banklar kredit portfelida mikroqarzlarning ulushi 25 foizdan oshmaslik talabi o'rnatilgan bo'lib, ushbu talabga muvofiq bo'lmagan banklar uchun me'yoriy talablarni 2029-yilning 1-yanvariga qadar bosqichma-bosqich muvofiqlashtirish lozimligi belgilangan⁷⁰.


⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 8-apreldagi "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 7/3-sonli qarori.

4-havola. Aholi qarz yuki bo'yicha so'rovnoma


Markaziy bank tomonidan 2025-yil iyul oyida aholining jami qarz yuki darajasini aniqlash maqsadida navbatdagi so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnoma O'zbekistonning barcha hududlari bo'yicha jami 4,5 mingdan ortiq respondent qamrab olindi. So'rovnoma aholining bank va bankdan tashqari barcha qarzlari inobatga olingan.

Ushbu so'rovnoma qatnashgan respondentlarning 51 foizida oila a'zolari soni 4 yoki 5 kishidan iboratligi qayd etilgan. Respondentlarning qariyb 80 foizi asosiy mehnat faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik daromadi 12 mln so'mdan oshmasligini ta'kidlashgan. Jami respondentlarning 24 foizida qo'shimcha daromadlar mavjud. Bundan, 75 foiz respondentlarning qo'shimcha daromadi 6 mln so'mdan kamni tashkil etgan.


88-chizma. Oila a'zolari soni, %




89-chizma. Oilaning asosiy ish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik daromadi, %



90-chizma. Oilada qo'shimcha daromadning mavjudligi



91-chizma. Oilaning qo'shimcha oylik daromadi, %




Manba: Markaziy bank so'rovnoma.


Shu bilan birga, so'rovnomada qatnashgan jami respondentlarning 73 foizi bank yoki bankdan tashqari qarzi mavjudligini qayd etishgan. Qarz majburiyatlarining 63 foizi banklar hisobiga to'g'ri kelgan. Bankdan qarz majburiyatiga ega respondentlarning 20 foizi boshqa qarz majburiyatlari ham mavjudligini qayd etishgan.

Respondentlar tomonidan qarz mablag'larining 41 foizi uy-joylarni xarid qilish yoki ta'mirlash hamda avtomobil sotib olishga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, respondentlarning 6 foizi boshqa qarzlarni so'ndirish maqsadida yangi qarz jalb qilgan.


92-chizma. Bank va bankdan tashqari qarz majburiyatining mavjudligi




93-chizma. Bankdan qarz majburiyatining mavjudligi



94-chizma. Bankdan qarzidor respondentlarning bankdan tashqari majburiyatlarining mavjudligi



95-chizma. Bank va bankdan tashqari olingan qarzlarning maqsadlari, %




Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.


Shuningdek, respondentlarning 71 foizi jami qarz majburiyatlari bo'yicha oylik to'lov miqdori 6 mln so'mdan oshmasligini ta'kidlashgan. Jami qarz majburiyatlari bo'yicha qolgan to'lov muddati 5 yil va undan ortiq deya belgilagan respondentlarning ulushi 27 foizni tashkil etdi. Respondentlarning 49 foizida qarzning muddati 3 yildan kam qolganligini ma'lum qilishgan.

Respondentlarning 61 foizi qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shunga qaramay, respondentlarning asosiy qismida kelajakda to'lov qobiliyatida o'zgarishlar bo'yicha kutilmalari ijobiy shakllanmoqda. Xususan, keyingi 6 oy davomida respondentlarning 51 foizi to'lov qobiliyati yaxshilanishini bildirishgan.


96-chizma. Jami qarz majburiyatlari bo'yicha oylik to'lov miqdori, %




97-chizma. Jami qarz majburiyatlari bo'yicha qolgan to'lov muddati, %



98-chizma. Qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishdagi qiyinchiliklarning mavjudligi



99-chizma. Keyingi 6 oy davomida to'lov qobiliyatidagi o'zgarishlar bo'yicha kutilmalar




Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.


Bundan tashqari, respondentlarning 17 foizi keyingi 6 oy davomida qarz olishga ehtiyoj sezmoqda. Ushbu qarz majburiyatlarning 40 foizi uy-joy sotib olish yoki ta'mirlash hamda avtomobil xarid qilishga yo'naltirish rejalashtirilgan.

Respondentlarning bank va bankdan tashqari jami qarz majburiyatlari bo'yicha o'rtacha qarz yuki darajasi⁷¹ 50 foizni, mediana ko'rsatkichi esa 47 foizni tashkil etdi⁷². Shuningdek, respondentlarning 11 foizida qarz yuki darajasi 100 foizdan yuqori shakllangani ma'lum bo'ldi.


100-chizma. Keyingi 6 oy davomida qo'shimcha qarz olish rejalari



101-chizma. Keyingi 6 oy davomida olinishi rejalashtirilgan qarz maqsadlari, %



102-chizma. Bankdan qarzдор respondentlarning qarz yuki taqsimoti



Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.


⁷¹ Bank kreditlari mavjud respondentlarning jami o'rtacha qarz yuki darajasi, ushbu respondentlarning bank va bankdan tashqari qarz majburiyatlari bo'yicha jami oylik to'lov miqdorini jami asosiy va qo'shimcha oylik daromadlariga nisbatini hisoblash orqali aniqlangan.

⁷² Respondentlarning oilaviy asosiy va qo'shimcha oylik daromadlari, xarajatlari, shuningdek qarzlar bo'yicha oylik to'lovlar miqdorini aniqlashda javoblarda keltirilgan oraliqlarning yuqori va quyi chegaralarining o'rtacha qiymati inobatga olingan. Shuningdek, yuqoridan chegaralanmagan oraliqning shartli yuqori chegarasi, ushbu oraliqning quyi chegarasiga oldingi oraliq kattaligini (yuqori va quyi chegaralari orasidagi farq) qo'shish orqali aniqlangan.


3.2. Korporativ sektor

Korporativ sektorda xavotirlar pasaygan. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i yillik hisobda 14 foizga o'sishiga qaramay, korporativ kreditlarning YalMga nisbati o'zining uzoq muddatli trendiga nisbatan past joylashgan. Shuningdek, 2025-yil dastlabki yarim yilligida tahlil qilingan yirik korxonalarning likvidlilik va rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilandi. Korxonalarda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti xatar chegarasidan yuqori shakllandi.

103-chizma. Korporativ kredit qoldiqlarining valyuta turlari bo'yicha taqsimlanishi va ularning yillik o'sish sur'ati



104-chizma. Xorijiy valyutadagi korporativ kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavka, %




Manba: Markaziy bank.

Xorijiy valyutadagi korporativ kreditlarning ulushi biroz kamaydi. 2025-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i tarkibida xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning ulushi 63 foizda shakllanib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga kamaydi. Bu valyuta bozoridagi o'zgaruvchanlik korporativ sektoriga ta'siri kamayganligini ifodalaydi. Shuningdek, milliy valyutadagi korporativ kreditlar miqdori yillik hisobda 20 foizga oshib, 2025-yilning 1-iyul holatiga 140 trln so'mga yetdi.


Yuridik shaxslarga xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar foiz stavkasi deyarli o'zgarishsiz shakllandi. 2025-yilning I yarim yilligida

ajratilgan xorijiy valyutadagi korporativ kreditlarning oʻrtacha tortilgan foiz stavkasi 10 foiz atrofida shakllandi.

105-chizma. Tarmoqlar boʻyicha korporativ kredit qoldiqlarining yillik YalMga nisbati, %



106-chizma. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti, foiz band




Manbalar: Milliy statistika qoʻmitasi va Markaziy bank hisob-kitoblari.


Korporativ kreditlar qoldigʻining YalMga nisbati pasayib, oʻzining uzoq muddatli trendiga nisbatan manfiy tafovuti kengaymoqda. 2025-yilning I yarim yilligi yakunida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldigʻining YalMga nisbati tafovuti⁷³ manfiy 7,3 foizda shakllanib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,9 foiz bandga kamaygan. 2025-yil 1-iyul holatiga koʻra, korporativ kreditlar qoldigʻining YalMga nisbati 24 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1 foiz bandga pasaygan. Yuridik shaxslar kredit portfelida asosiy ulushni tashkil etayotgan sanoat tarmogʻi boʻyicha kreditlar qoldigʻining YalMga nisbati 2025-yilning I yarim yilligi yakuni boʻyicha 9,9 foizda shakllandi. Shuningdek, qurilish sohasiga ajratilgan kreditlar qoldigʻi yillik hisobda 23 foizga oʻsib, 15 trln soʻmni tashkil etdi.

⁷³ Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti amaldagi yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbatidan uning uzoq muddatli trendini ayirish orqali topilgan. Bazel yondashuviga koʻra, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning uzoq muddatli trendi choraklik maʼlumotlar uchun 400,000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlangan.

107-chizma. Majburiyatlarning kapitalga nisbati* hamda zarar ko'rayotgan korxonalar ulushi, %



108-chizma. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti, %**



Manbalar: Korporativ axborot yagona portali, korxonalarning moliyaviy hisobotlari va Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: *Majburiyatlarning kapitalga nisbati 200 ta yirik aksiyadorlik jamiyatlarining ma'lumotlari asosida aniqlangan.

**Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti eksponensial harakatlanuvchi o'rtachasi⁷⁴ orqali ifodalangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 200 ta yirik AJlarning ma'lumotlari asosida aniqlangan. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti korxonaning soliq to'langunga qadar sof foydasi uning qarzlarini bo'yicha foizli xarajatlarini necha barobariga qoplashi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning 100 foizdan past bo'lishi korxona joriy daromadlaridan foydalangan holda foiz to'lovlarini bo'yicha qarz majburiyatlarini bajara olmasligi va natijada defolt xavfi yuqori ekanligidan ogohlantiradi.

Korporativ sektordagi holatni baholashda tahlil qilingan yirik korxonalar⁷⁵ bo'yicha leveraj koeffitsiyentida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Korxonalar majburiyatining kapitalga nisbati 2025-yil 1-iyul holati bo'yicha 184 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 18 foiz bandga kamaydi. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar o'z majburiyatlarini bajarishi bo'yicha to'lov qobiliyatining yaxshilanganligidan dalolat beradi.


Foizli xarajatlarni qoplash uchun yetarli daromadga ega bo'lmagan korxonalar ko'lamida o'zgarish kuzatilmadi. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha yirik korxonalarning 19 foizida foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti 100 foizdan kichik shakllandi. Shuningdek, 2025-yilning 1-iyul

⁷⁴ Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha tasodifiy va qisqa muddatli tebranishlarni kamaytirish orqali ko'rsatkich qiymatini tekislash usuli hisoblanadi.


⁷⁵ Korporativ sektorni tahlil qilishda yirik soliq to'lovchilar orasidan aktivlar hajmi yuqori bo'lgan hamda ma'lumotlarning mavjudligi asosida 200 ta yirik aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olingan.

holatida foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti 326 foizgacha pasaydi hamda ushbu korxonalarning uchdan bir qismi dastlabki yarim yillikni zarar bilan yakunladi. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyentining pasayishi korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshirish qobiliyatining yomonlashganini ifodalaydi. Biroq, ushbu ko'rsatkichning 100 foizdan sezilarli darajada yuqori ekanligi korxonalarning foiz to'lovlari bo'yicha mavjud majburiyatlarini bajara olmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tanazzulga uchrash xavfini kamaytiradi.

109-chizma. Mutlaq⁷⁶ hamda joriy likvidlilik⁷⁷ koeffitsiyentlari, %



110-chizma. Aktivlar rentabelligi, %



Manbalar: Korporativ axborot yagona portali, korxonalarning moliyaviy hisobotlari va Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: Mutlaq hamda joriy likvidlilik koeffitsiyentlari eksponensial harakatlanuvchi o'rtachasi orqali ifodalangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar 200 ta yirik AJLarning ma'lumotlari asosida aniqlangan.

Korxonalarning likvidlilik holati mustahkamlandi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, korxonalarning mutlaq va joriy likvidlilik koeffitsiyentlari mos ravishda 14 va 137 foizlarni tashkil etdi. Joriy likvidlilik koeffitsiyentining 2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan yillik hisobda 17 foiz bandga ortishi

⁷⁶ Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti korxonaning pul mablag'lari uning joriy majburiyatlarini qanday darajada qoplashini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning eng likvid bo'lgan pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbati orqali hisoblangan.

⁷⁷ Joriy likvidlilik koeffitsiyenti joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning 100 dan yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy holati barqaror ekanligini bildiradi. Moliyaviy barqarorlik sharhlarida korporativ sektorida tahlil qilinadigan korxonalar ro'yxati yirik qarz oluvchilar tarkibining yangilab borilishi hamda ma'lumotlarning mavjudligi tufayli o'zgarishi mumkin.

korxonalarda joriy majburiyatlarini bajarishi uchun joriy aktivlarining yetarlilik holati yaxshilanganini ifodalamoqda.


Korxonalarning rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilandi. 2025-yilning 1-iyul holatiga korxonalarning aktivlar rentabelligi 6,7 foizda shakllandi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yil I yarim yilligi yakuniga qaraganda yillik hisobda 0,8 foiz bandga oshdi.

IV. Aktivlar bozori


4.1. Ko'chmas mulk bozori

Ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning bozor va fundamental narxlari orasidagi tafovut qisqardi. 2025-yil I yarim yilligida fundamental qiymat va bozor narxi orasidagi tafovut 17 foizdan 4 foizgacha pasaydi. Ko'chmas mulk bozorida taklifning sezilarli ortganligi, shuningdek spekulativ talabning kamayganligi uy-joylarning bozor narxi pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, uy-joylar fundamental narxining oshishi narxlar orasidagi tafovutning qisqarishida o'z ifodasini topgan.

111-chizma. Uy-joylarning bozor va fundamental narxlari, 1 m² uchun mln so'mda



112-chizma. Uy-joylarning bozor va o'rtacha fundamental narxlari orasidagi tafovut, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Uy-joylarning o'rtacha fundamental narxi narx va daromad⁷⁸, State space model⁷⁹, Bayesian state space model⁸⁰ hamda kvantil regressiya⁸¹ modellari orqali aniqlangan fundamental narxlarning oddiy o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali topilgan.

Chizmadagi to'rtburchak shakl uy-joylarning bozor va o'rtacha fundamental narxlari orasidagi farqni ko'rsatadi. Agar bozor narxi o'rtacha fundamental narxidan katta bo'lsa, to'rtburchakning ichki qismi to'liq bo'yalgan va aksincha kichik bo'lsa, oq rangda bo'ladi.

Uy-joylarning o'rtacha bozor narxi ochiq internet veb-sahifalaridagi e'lonlar asosida hisoblangan bo'lib, oldi-sotdi shartnomalar ushbu narxlarda tuzilganligini bildirmaydi. O'zbekiston bo'yicha uy-joylarning o'rtacha bozor narxi hududlar kesimida o'rtacha uy-joy narxlari va oldi-sotdi shartnomalar sonidan kelib chiqqan holda narxlarning o'rtacha tortilgan qiymati orqali aniqlanadi.

⁷⁸ Narx va daromad modeli metodologiyasi 2022-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


⁷⁹ State space model (SSM) metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

⁸⁰ Bayesian state space model (BSSM) metodologiyasi 2024-yil I yarim yillik uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


⁸¹ Kvantil regressiya modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

Uy-joy narxlarida tuzatishlar kuzatilmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, uy-joylarning bozor narxi 2024-yilning mos davriga nisbatan milliy valyutada 4,9 foizga⁸², xorijiy valyutada 6,2 foizga kamaygan.

113-chizma. Uy-joylarning bozor narxi indekslari (2020 Q1=100)



114-chizma. Qurilish-montaj ishlari, %



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


2025-yilning dastlabki yarim yilligida ko'chmas mulk bozorida taklif hajmi ortgan. 2025-yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan qurilish hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 72 foizga ko'payib, 137,6 trln so'mni tashkil etgan⁸³. Qurilish hajmining YalMdagi ulushi 17 foizgacha ko'tarilgan. Shuningdek, 2025-yil 1-iyul holatiga qurilish-montaj ishlari narxlarining yillik o'sish sur'ati 6,3 foizgacha tezlashgan⁸⁴.

⁸² Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Uy-joylarning narxlar indeksi dinamikasi (o'tgan yilning mos choragiga nisbatan).


⁸³ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Qurilish ishlari hajmi (oylik).

⁸⁴ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan).

115-chizma. Uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi, %



116-chizma. Uy-joylar soni, mln dona



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksining⁸⁵ pasayishi aholi tomonidan uy-joy xarid qilish imkoniyatining pasayganini, aksincha ortishi esa uy-joy xarid qilish imkoniyatining ortganini anglatadi.


Aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati pasayishdan to'xtadi. Ipoteka kreditlarini ajratishda kredit muddatining uzayishi va foiz stavkaning pasayishi bilan bir qatorda aholi daromadining ortishi aholining ipoteka krediti asosida uy-joy xarid qilish qobiliyatini tiklanishiga sabab bo'ldi. 2025-yilning dastlabki yarim yilligida aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi 121 foizgacha ko'tarildi. Shuningdek, 2024-yilda ko'chmas mulk bozorida uy-joylar soni 1 foizga oshib, 7,6 mln⁸⁶ donaga yetgan.

Uy-joy narxlari aholi jon boshiga hisoblangan YalMga nisbatan pasaymoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga uy-joy narxlarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nominal YalMga nisbati 22 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga kamaygan. Ushbu tendensiya uy-joylarning bozor narxining pasayishi bilan bir qatorda aholi jon boshiga nominal YalM miqdori 16 foizga oshganligi bilan izohlanadi.


⁸⁵ Uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi hisoblash metodologiyasi 2024-yilning I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

⁸⁶ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Kvartira (uy)lar soni.

117-chizma. Uy-joy narxlarining* aholi jon boshiga hisoblangan nominal YalMga nisbati, %



118-chizma. Uy-joy narxlari yillik o'sish sur'atining ijara haqlarining yillik o'sish sur'atiga nisbati, indeks



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Uy-joylarning o'rtacha narxi ochiq internet veb-sahifalaridagi e'lonlar asosida hisoblangan bo'lib, uy-joylarning 1 kv. metr uchun to'g'ri keladigan o'rtacha narxni ifodalaydi.


Ko'chmas mulk bozorida spekulativ talab pasaygan. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning ijara haqlari 2024-yilning mos davriga nisbatan 12 foizga o'sgan⁸⁷. Bu esa, ko'chmas mulk bozorida investitsion jozibadorlik kamayganligidan dalolat beradi.

Uy-joy narxlari o'sish sur'atlari daromadga nisbatan sekinlashmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillik o'sish sur'ati uy-joy narxlarining yillik o'sish sur'atiga nisbatan 22 foiz bandga yuqoriroq bo'lib, 17 foizda shakllandi⁸⁸. Xususan, Markaziy Osiyo, Kavkaz va boshqa davlatlar orasida O'zbekistonda o'rtacha oylik ish haqi oshgan sharoitda uy-joy narxlari yillik hisobda kamaygan mamlakatlardan biri bo'lmoqda. O'zbekistonda uy-joy narxlarining shakllanishida aholi daromadlari o'zgarishining ahamiyati oshganligi va fundamental bo'lmagan omillarning ta'siri kamayganligidan dalolat beradi.


⁸⁷ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan.

⁸⁸ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik).

119-chizma. Uy-joy narxlari yillik o'sish sur'atining o'rtacha oylik ish haqining yillik o'sish sur'atiga nisbati, indeks



120-chizma. 2025-yilning I yarim yilligi bo'yicha ayrim mamlakatlarda uy-joy narxlari yillik o'sish sur'atining o'rtacha ish haqining yillik o'sish sur'atiga nisbati, indeks




Manbalar: vakolatli davlat organlari, Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

O'zbekistonning demografik o'sish sur'atlarida kuzatilayotgan pasayish dinamikasi kelgusida ko'chmas mulk bozorida talabni pasaytirishi mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston doimiy aholisining o'sish sur'atlari sekinlashmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga doimiy aholi sonining yillik o'sish sur'ati 2 foizni tashkil etib, 37,9 mln kishiga yetdi⁸⁹. Bunda, mamlakat hududining 1 km² ga 84 kishi to'g'ri kelgan⁹⁰. O'zbekistonda aholi zichligi Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari mediana ko'rsatkichiga nisbatan 5 kishiga yuqori shakllangan.


⁸⁹ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Doimiy aholi soni (jami).

⁹⁰ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Aholi zichligi (jami, choraklik)

121-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari* bo'yicha aholi zichligi (1 km² ga to'g'ri keladigan aholi soni), kishi



122-chizma. Uy-joy oldi-sotdi shartnomalari soni, mingta



Manbalar: Birlashgan millatlar tashkiloti, vakolatli davlat organlari, Milliy statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Armaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlari inobatga olingan.


Ko'chmas mulk bozorida faollik saqlanib qolmoqda. 2024-yil yakuni bo'yicha shaxsiy uy-joyga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi 98 foizni tashkil etgan⁹¹. 2025-yil boshida shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan 157,3 mingta uy-xo'jaliklarining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji ko'chmas mulk bozorida talabning saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yil I yarim yilligida imzolangan uy-joy oldi-sotdi shartnomalar soni 177,5 mingtani tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 11 foizga oshgan.

Aksariyat banklarda ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga ta'sirchanligi yuqori shakllanmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, bank tizimi bo'yicha ipoteka kreditlari hajmining jami kredit portfelidagi ulushi 13 foizga to'g'ri kelgan⁹². Shuningdek, bank tizimi bo'yicha I darajali kapitalning jami kreditlarga nisbati 20 foizni tashkil etgan.


⁹¹ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Shaxsiy uy-joyga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi.

⁹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i.

123-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga banklar qirqimida I darajali kapital va ipoteka kreditlarni jami kreditlarga nisbati, %



124-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari sonining uy-joy oldi-sotdi shartnomalari sonidagi ulushi, %




Manbalar: Adliya vazirligi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Yashil rang I darajali kapitalning jami kreditlarga nisbati yoki ipoteka kreditlarining jami kreditlardagi ulushi ko'rsatkichlaridan kamida bittasi bo'yicha bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan pastroq tavakkalchilikka ega bo'lgan banklarni ifodalaydi. Qizil rang esa aksincha, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yuqori tavakkalchilikka ega bo'lgan banklarni ifodalaydi. Chizmada I darajali kapitalni jami kreditlarga nisbati 50 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar bank tizimi bo'yicha 2025-yil 1-iyul holatiga ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.

Ko'chmas mulk bozorida narxlarning shakllanishida kreditdan tashqari boshqa omillarning ta'siri yuqoriligicha qolmoqda. 2025-yil I yarim yilligida imzolangan oldi-sotdi shartnomalarning 18 foizi ipoteka krediti asosida xarid qilingan. Ushbu davrda aholiga 31,6 mingta ipoteka kreditlari ajratilgan. Uy-joylarni ipoteka kreditlari hisobidan xarid qilish ko'lamining pastligi, uy-joy narxlari shakllanishida boshqa omillarning ta'siri ham yuqori ekanligidan dalolat beradi.

125-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari soni va har 1 000 kishiga* to'g'ri keladigan ipoteka kredit oluvchilar soni



126-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarning o'rtacha miqdori, mln so'm




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: * Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni inobatga olingan.


Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni – muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan iborat.

Mehnatga layoqatli aholi orasida ipoteka krediti mavjud qarzdorlar ko'lamini kengayishda davom etmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, har 1 000 ta mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholining 19 tasida ipoteka krediti mavjud bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7 foizga oshgan. Shuningdek, 2025-yilning I yarim yilligida ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha hajmi qariyb 300 mln so'mni tashkil etgan.

127-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi, %



128-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan muddati, yil




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Ipoteka kredit standartlari biroz yumshagan. 2025-yil I yarim yilligida aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 19,2 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,4 foiz bandga pasaygan. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan so'ndirish muddati 0,5 yilga uzayib, 17,2 yilni tashkil etdi.


4.2. Kapital bozori

Xalqaro kapital bozorlarida kuzatilgan tebranishlarning O'zbekiston kapital bozoriga ta'siri past bo'ldi. 2025-yil dastlabki yarim yilligida global miqyosda sodir bo'lgan geosiyosiy beqarorliklar hamda savdo tariflarining o'zgarishi bilan bog'liq noaniqliklarning saqlanib qolishi xalqaro moliya bozoridagi o'zgaruvchanlikni oshirdi. 2025-yil I yarim yilligi yakuniga kelib esa, savdo tariflari qo'llanilishining kechiktirilishi natijasida kapital bozorlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

129-chizma. Respublika fond birjasi UCI indeksi*



130-chizma. O'zbekistonda korporativ obligatsiyalar bozoridagi savdolar hajmi va bitimlar soni




Manba: Respublika fond birjasi.

Izoh: *Uzbekistan Composite Index (UCI) – Respublika fond birjasining indeksi bo'lib, birja kotirovkalar varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy holatini aks ettiradi. Indeks qiymatining pasayishi kotirovkalar varag'iga kiritilgan emitentlar aksiyalari narxining arzonlashgani va umumiy bozor kapitallashuvining kamayganini ifodalaydi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birja kotirovkalar varag'ida 93 ta aksiya emitentlari mavjud bo'lib, shulardan 14 tasi tijorat banklari tashkil etadi.


Uzbekistan Composite Index (UCI) barqaror shakllanmoqda. 2025-yil I yarim yilligi yakunida UCI indeksi 640 ni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 38 birlikka kamaydi. Birja kotirovkalar varag'iga

kiritilgan emitentlar sonining 99 tadan 93 tagacha kamayganligi⁹³ UCI indeksining⁹⁴ biroz pasayishida o'z ifodasini topdi.

131-chizma. O'zbekistonda aksiyalar bozori kapitallashuvi va YalMga nisbati, trln so'm



132-chizma. 2025-yil 1-iyul holatiga turli mamlakatlarda aksiyalar bozori kapitallashuvining YalMga nisbati, %



Manbalar: vakolatli davlat organlari va Respublika fond birjasi.

Izoh: Aksiyalar bozori kapitallashuvi birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining qimmatli qog'ozlar soni va ularning savdo kunidagi yopilish narxlarining o'zaro ko'paytmasi orqali aniqlanadi.

⁹³ Respublika fond birjasi. (2025). Savdo natijalari.

⁹⁴ UCI quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$UCI = \frac{\text{Market Cap}_{\text{current date}}}{\text{Market Cap}_{\text{base date}}} * \text{Base Index}$$

Bu yerda,

Market Cap_{current date} – birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining joriy savdo sanasidagi so'nggi bitim bo'yicha tizim tomonidan hisoblangan jami kapitallashuv darajasi;


Market Cap_{base date} – indeks yaratilgan sanadagi (29.08.2016) birja kotirovkalari varaqasiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining so'nggi bitim bo'yicha tizim tomonidan hisoblangan jami kapitallashuv darajasi;

Base Index – indeks ko'rsatkichi uchun belgilangan qiymat 1 000 ga teng.


Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar faollashdi. 2025-yilning dastlabki yarim yilligida korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 493 mlrd soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi savdolariga nisbatan 8,3 barobarga koʻproqni tashkil etdi⁹⁵. Korporativ obligatsiyalar bozorida tuzilgan bitimlar soni 1,3 mingtadan 4,2 mingtagacha oshdi.

Oʻzbekiston aksiya bozori kapitallashuvining nominal YalMga nisbati pasaygan. Oʻzbekiston aksiyalar bozori kapitallashuvining YalMga nisbati boʻyicha iqtisodiy rivojlanish darajasi oʻxshash boʻlgan mamlakatlar orasida nisbatan pastroq koʻrsatgichga ega boʻlmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga koʻra, Oʻzbekistonda aksiyalar bozori kapitallashuvi 242,8 trln soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga oshgan⁹⁶. Bozor kapitallashuvining Oʻzbekiston YalMga nisbati 2,4 foiz bandga pasayib, 2025-yilning 1-iyul holatiga 15,2 foizga yetdi.

133-chizma. Respublika fond birjasi savdolarida tuzilgan bitimlar hajmi, trln soʻm



134-chizma. Bank aktivlarida jami qimmatli qogʻozlarning ulushi va davlat qimmatli qogʻozlari daromadliligi, %



Manbalar: Respublika fond birjasi, Respublika valyuta birjasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Fond birjasida kuzatilgan yuqori faollik banklar hisobiga toʻgʻri kelmoqda. 2025-yilning I yarim yilligida Respublika fond birjasi kotirovkalar varagʻiga kiritilgan qimmatli qogʻozlar bilan 5,8 trln soʻm miqdorida bitimlar

⁹⁵ Respublika fond birjasi. (2025). Press-reviz: 2025-yil I yarim yillik.

⁹⁶ Respublika fond birjasi. (2025). Press-reviz: 2025-yil I yarim yillik.


tuzilgan bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 13 barobarga oshgan⁹⁷. Bunda, birja kotirovkalar varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarning 78 foizi banklar hissasiga to'g'ri kelgan.

135-chizma. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalarning daromadliligi, %



— UZBEK 3,9% (19.10.2031) — UZBEK 3,7% (25.10.2030) — UZBEK 7,85% (12.10.2028) — UZBEK 5,375% (20.02.2029) — UZBEK 6,9% (28.02.2032)

136-chizma. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalar G-spredi*, bazis band



Manbalar: Bloomberg va Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Izoh: *G-spred – obligatsiya va benchmark, ya'ni AQSh g'aznachiligi obligatsiyalari daromadliligi o'rtasidagi farq. Mazkur farqning ortishi ushbu obligatsiyaning benchmark obligatsiyaga nisbatan xatarlilik darajasi oshganini ifodalaydi.

Davlat qimmatli qog'ozlar daromadliligida pasayish kuzatilmoqda. 2025-yilning I yarim yilligida davlat qimmatli qog'ozlarining o'rtacha daromadliligi qariyb 16 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,4 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarning ulushi 0,7 foiz bandga ortib, 2025-yilning 1-iyul holatiga 5,3 foizga yetdi. Bank aktivlari tarkibida kreditlar ulushining yuqoriligi⁹⁸ hamda qimmatli qog'ozlar ulushining past ekanligi banklar yuqoriroq daromad olishga qaratilgan an'anaviy bank faoliyatini davom ettirayotganligidan dalolat beradi.

⁹⁷ Respublika fond birjasi. (2025). Savdo natijalari.

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalarning xatar darajasi benchmark obligatsiyalarga nisbatan pasaymoqda. O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalarning daromadlilik ko'rsatkichi 2025-yil I yarim yilligi oxirida 5,5–6,5 foiz atrofida shakllanib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 1–1,5 foiz bandga pasaygan. O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari va AQSh g'aznachiligi obligatsiyalari daromadliliklari orasidagi spread 200–250 bazis band atrofida shakllanib, 2024-yilning I yarim yilligiga nisbatan kamida 50 bazis bandga kamaydi.

V. Bank tizimi bo'yicha makro stress-test

5.1. Makroiqtisodiy ssenariylar

2028-yil I yarim yilligi yakuniga O'zbekiston bank tizimi barqarorligi asosiy va xatarli makroiqtisodiy ssenariylar asosida tahlil qilindi. Asosiy makroiqtisodiy ssenariy mamlakat iqtisodiyotining mavjud tendensiyasi kelgusida ham saqlanib qolishini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Xatarli ssenariyni shakllantirishda yuzaga kelish ehtimoli past bo'lishiga qaramay salbiy ta'siri yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) inobatga olingan. Mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan zaifliklarning ortishi, tashqi va ichki makromoliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi, geosiyosiy vaziyatning yanada keskinlashuvi hamda davriy tizimli xatarlar yuzaga kelishining ehtimoliy oqibatlari xatarli ssenariy bo'yicha baholangan (2-ilova).


Xatarli ssenariy bo'yicha real YalMning yillik o'sish sur'ati 2026-yilning I yarim yilligi yakunida manfiy 0,3 foizgacha pasayishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha kelgusi davrlardagi real YalMning o'sishi GaR modeli orqali baholandi⁹⁹. Iqtisodiy o'sish sur'atini xatarli ssenariy bo'yicha aniqlashda moliyaviy sikl indeksi¹⁰⁰ hamda real YalMning oldingi davrlardagi qiymatlari ta'sir etuvchi omillar sifatida foydalanildi. GaR modelining besh foizlik qiymatida xatarli ssenariy bo'yicha davriy tizimli xatarlarni qamrab olish maqsadida moliyaviy sikl indeksiga uch standart chetlanish miqdorida qo'shimcha shok berildi.

Xatarli ssenariy bo'yicha yalpi talabning qisqarishi hisobiga past foiz stavkali muhit yuzaga kelishi mumkin. Ichki va tashqi xatarlar oqibatida iqtisodiy faollikning pasayishi mamlakatda ichki talabni kamaytiradi. Buning natijasida, mamlakatda inflyatsiyaning sekinlashishi asosiy foiz stavkaning pasayishiga, shuningdek kredit va depozit foiz stavkalarining tushishiga olib keladi. Past foiz stavka muhiti ta'sirida keyingi davrlarda kreditlar ajratishning ortib borishi iqtisodiyotda talabning qayta tiklanishiga turtki bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, real iqtisodiy o'sishning pasayishi hisobiga YalM bazasining qisqarganligi sababli keyingi davrlarda iqtisodiyotda yuqoriroq darajadagi o'sish kutiladi.

⁹⁹ Xatarlarni hisobga olgan holdagi o'sish (Growth at Risk) modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹⁰⁰ Moliyaviy sikl indeksi metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

137-chizma. Real YaIM o'sish sur'ati bo'yicha GaR modeli natijalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ehtimollik zichlik funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum oraliqdagi ehtimollik zichligini¹⁰¹ ifodalaydi. Kumulyativ taqsimot funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum bir qiymatni qabul qilish ehtimollik darajasini¹⁰² ifodalaydi va ehtimollik zichlik funksiyasidan integral olish orqali aniqlanadi.

Xatarli ssenariy bo'yicha mamlakat iqtisodiyotining pasayishi keyingi davrdagi kredit xatarini oshiradi. Keyingi davrlardagi kredit yo'qotishlarini aniqlash uchun kredit portfelining defolt ehtimoli milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha baholandi. Xatarli ssenariyda milliy valyuta bo'yicha real foiz stavkasining ortishi hamda real YaIM o'sishining pasayishini vaqt o'tishi bilan ta'siri natijasida milliy valyutadagi kredit portfelining defolt ehtimoli kelgusi uch yillikda 24 foizgacha ortishi mumkin. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining keyingi davrlarda qayta tiklanishi 2028-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha milliy valyutadagi kredit portfeli defolt ehtimolini 3 foizgacha pasayishida o'z ifodasini topgan. Xorijiy valyutadagi kredit portfelining defolt ehtimoli valyuta almashinuv kursi va real YaIM o'sishi ta'sirini inobatga olgan holda 2025-yilning I yarim yilligi–2028-yil I yarim yilligi oralig'ida 14 foizgacha ko'tarilishi mumkin (3-ilova).

Makroiqtisodiy ssenariylar bo'yicha bank tizimi daromadliligi yordamchi regression modellar orqali aniqlandi. Milliy va xorijiy

¹⁰¹ Ehtimollik zichligi belgilangan oraliq birligiga to'g'ri keladigan tasodifiy miqdorning sodir bo'lish ehtimoligini ifodalab, 0 dan kichik bo'lmagan qiymatlarga ega bo'ladi.

¹⁰² Ehtimollik darajasi sodir bo'lish imkonining miqdoriy ko'rsatkichi hisoblanib, 0 va 1 oralig'ida shakllanadi.

valyutalar bo'yicha sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati¹⁰³, shuningdek jami sof foizsiz daromatlarni jami aktivlarga nisbati¹⁰⁴ ko'rsatkichlarining keyingi davrdagi qiymatlarini baholash modellashtirildi.

Xatarli ssenariydagi iqtisodiy pasayishning milliy valyutadagi banklarning daromadliligiga salbiy ta'siri ma'lum kechikish bilan namoyon bo'lmoqda. Xatarli ssenariy bo'yicha 2026-yilning dastlabki yarim yilligida iqtisodiy o'sishning pasayishi hamda past foiz stavka muhitining yuzaga kelishi ta'sirida 2027-yilning I yarim yilligi yakunida milliy valyutadagi sof foizli daromadning foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati 4,7 foizgacha pasayishi mumkin. 2028-yil I yarim yilligi yakunida mamlakat iqtisodiyotining tiklanib borishi natijasida banklarda sof foizli daromad ortadi va milliy valyutadagi foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi aktivlar rentabelligi 9 foizda shakllanishi kutiladi.


¹⁰³ Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromadlarning foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi jami bank aktivlariga nisbati ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, kredit o'sish sur'ati, milliy valyutadagi foiz stavka marjasi (kredit va depozit foiz stavkalari orasidagi farq) hamda real YaIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlari asosida kelgusi davrlar uchun baholandi.

Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromadni foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatining ssenariylar asosida keyingi davrlardagi qiymatini baholash uchun ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, xorijiy valyutadagi kredit va depozit foiz stavkalari hamda valyuta almashinuv kursi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.


¹⁰⁴ Sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbati kelgusi davrlar uchun YaIM o'sishi va valyuta almashuv kursining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib baholandi.

138-chizma. Makroiqtisodiy ssenariylar


Real YalMning yillik o'sishi, %




Kredit qoldig'ining yillik o'sishi, %




Milliy valyutadagi kreditlarning defolt ehtimoli, %




Xorijiy valyutadagi kreditlarning defolt ehtimoli, %



Milliy valyutadagi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati, %



Xorijiy valyutadagi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati, %




— Amaldagi — Asosiy — Xatarli


Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

139-chizma. Makroiqtisodiy ssenariylar¹⁰⁵


Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromad, trln so'm




Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromad, trln so'm




Sof foizsiz daromad, trln so'm




Sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbati, %



Foizli daromad keltiruvchi aktivlarning yillik o'sishi, %



Operatsion xarajatlar, trln so'm



— Amaldagi — Asosiy — Xatarli

Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

¹⁰⁵ Makroiqtisodiy ssenariylar ko'rsatkichlarning prognozlarini ifoda etmaydi. Balki, yuzaga kelish ehtimoli juda past bo'lgan yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) xatarli ssenariylarni shakllantirish hamda O'zbekiston tijorat banklarining jiddiy xatarlarga bardoshlilikini baholash uchun ishlab chiqilgan.

Banklarning xorijiy valyutadagi sof foizli daromadlari kelgusi davrlarda ortishi mumkin. Kredit foiz stavkalarining kamayishi ta'sirida xorijiy valyutadagi foizli daromadlar qisqarishi bilan birgalikda past foizli stavka muhiti kreditlarni moliyalashtirish xarajatlarini pasaytiradi. Ushbu holatni inobatga olgan holda xatarli ssenariy uchun amalga oshirilgan yordamchi regression model natijasi xorijiy valyutadagi sof foizli daromadlar 2028-yil I yarim yilligi yakuniga qadar ortib borishini ko'rsatdi.


Banklarning sof foizsiz daromadi iqtisodiy faollikning o'zgarishiga qarab shakllanadi. Bunda, xatarli ssenariy bo'yicha xavflarning ortishi bank xizmatlarini qisqarishiga, iqtisodiyotning qayta tiklanishi esa bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi hisobiga banklarda foizsiz daromadlarning o'sishiga sabab bo'lishi mumkin. Xatarli ssenariy bank tizimida sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbati 2026-yil I yarim yilligi yakunida 3,9 foizgacha pasayib, 2027-yilning mos davrida 4,7 foizgacha qayta ko'tarilishi mumkin. Shuningdek, 2028-yil I yarim yilligida bank tizimi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nominal hisobdagi sof foizsiz daromad miqdori 30 trln so'mgacha oshadi.

Foizli daromad keltiruvchi aktivlar kredit yo'qotishlarining kamayishi hisobiga ortadi. Xatarli ssenariy bo'yicha iqtisodiy faollikning pasayishi hamda kreditga bo'lgan talabning qisqarishi hisobiga kreditlarning o'sishi sekinlashadi. Xatarli ssenariyda iqtisodiy o'sishning qayta tiklanishi hisobiga kreditlar o'sishining oldingi davrlardagi darajasiga qaytishi, shuningdek kredit xatarining pasayishi natijasida bank tizimi bo'yicha foizli daromad keltiruvchi aktivlar 2028-yil I yarim yilligi yakunida yillik hisobda 30 foizgacha o'sishi mumkin. Asosiy ssenariyda mamlakat iqtisodiyotidagi mavjud tendensiyaning saqlanib qolishi tufayli kreditlar hamda foizli daromad keltiruvchi aktivlarning yillik o'sishi sur'ati keyingi davrlarda ham o'zining tarixiy ko'rsatkichlari doirasida davom etishi kutiladi.

5.2. To'lov qobiliyati makro stress-testi

Xatarli ssenariy bo'yicha makro stress-test natijasi banklarning to'lov qobiliyati pasayishi mumkinligini ko'rsatdi. Banklarning kelgusidagi kapital monandiligi asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha "yuqoridan pastga" to'lov qobiliyati makro stress-testi¹⁰⁶ orqali baholandi. 2028-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, asosiy ssenariy bo'yicha kapital monandilik koeffitsiyentlari o'sishi va xatarli ssenariyda minimal chegaradan pastda shakllanishi mumkin.

140-chizma. I darajali asosiy kapital bo'yicha makro stress-test natijalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Makro stress-test natijalarida boshqa ta'sirlar sifatida qimmatli qog'ozlar bo'yicha yo'qotishlar, milliy valyuta kursining qadrsizlanishi, uy-joy bo'yicha yo'qotishlar, soliqlar va dividendlar inobatga olingan.


¹⁰⁶ "Yuqoridan pastga" makro stress-test vositasi makroiqtisodiy ssenariylar asosida bank tizimi barqarorligini baholash instrumenti hisoblanadi. Bunda, barcha banklar uchun bir xil ssenariylar, farazlar va modellar ishlatiladi.

Asosiy ssenariyda kredit yo'qotishlari past shakllangan sharoitda kuzatilgan yuqori daromadlilik I darajali asosiy kapital monandliligini 0,6 foiz bandga oshiradi. 2028-yil 1-iyul holatiga ko'ra, I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentiga sof foizli va foizsiz daromadlarning ijobiy ta'siri mos ravishda 9,7 va 9,5 foiz bandlarni tashkil etadi. Shuningdek, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar miqdorining ortishi I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentini 7,6 foiz bandga, operatsion xarajatlar va kreditlar bo'yicha yo'qotishlar esa 8 foiz bandga kamaytiruvchi omillardan bo'ladi.

Xatarli ssenariyda yuqori kredit yo'qotishlari I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentini kamaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. 2028-yil I yarim yilligi yakunida I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentining 6,1 foizgacha pasayishida kredit yo'qotishlarining 13,6 foiz bandlik salbiy ta'sirini kutish mumkin. Bundan tashqari, operatsion xarajatlarning I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentiga 5,1 foiz bandlik salbiy, sof foizli va foizsiz daromadlar esa birgalikda 14,9 foiz bandlik ijobiy ta'sirlari kuzatilishi mumkin.

Asosiy ssenariyda yuqori daromadlilik hisobiga jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti ortadi. 2028-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentining shakllanishida sof foizli daromadning ijobiy ta'siri 11,5 foiz bandni, sof foizsiz daromadning ijobiy ta'siri 11,1 foiz bandni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, bank tizimi aktivlarining ortib borishi kutilishi tufayli tavakkalchilikka tortilgan aktivlar jami regulyativ kapitalni 8,7 foiz bandga kamaytirishi mumkin.


141-chizma. Jami regulyativ kapital bo'yicha makro stress-test natijalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Xatarli ssenariyda jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti 2028-yil I yarim yilligi yakunida minimal talabdan 4,6 foiz bandga pasayishi mumkin. Jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentining shakllanishida kreditlar bo'yicha yo'qotishlar 16,3 foiz band, operatsion xarajatlar 5,7 foiz band, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar va boshqa omillar 5 foiz band darajasida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sof foizli va foizsiz daromadlarning 18 foiz bandlik ijobiy ta'siri jami regulyativ kapital monandliligi bo'yicha yo'qotishlarni qisman qoplashi kutiladi.


142-chizma. Kapital yetarliligi bo'yicha makro stress-test natijalari, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Xatarli ssenariyga asosan ichki va tashqi zaifliklar bank tizimi to'lov qobiliyatiga ma'lum kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi. 2028-yil I yarim yilligi yakuniga qadar kapital monandlilik koeffitsiyentlarida asosiy ssenariyda o'suvchi, xatarli ssenariyda esa kamayuvchi tendensiya kuzatiladi. Jumladan, 2028-yil 1-iyul holatida I darajali asosiy va jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentlari 2025-yilning I yarim yilligi yakuniga nisbatan mos ravishda 8,5 va 9 foiz bandga qisqarishi mumkin.

143-chizma. Bank sektorining kapital monandlilik koeffitsiyenti oraliqlari va jami aktivlardagi ulushlari taqsimoti, % (2028-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Kapital monandlilik koeffitsiyentlari oraliqlarida joylashgan banklarning jami aktivlardagi ulushlari yig'ilib borish tartibida o'rnatilgan.

Asosiy ssenariy bo'yicha ayrim kichik banklardagina to'lov qobiliyati bo'yicha zaifliklar yuzaga kelishi mumkin. 2028-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, asosiy ssenariyda jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti o'rnatilgan minimal talabdan past bo'ladigan banklar aktivlarining jami bank tizimidagi ulushi 4 foizni tashkil etmoqda.

Xatarli ssenariyda minimal kapital talablarini bajarishda qiyinchilikka duch keladigan banklar ko'lamining yuqoriligi tarkibiy tizimli xatarlar ehtimolini oshirishi mumkin. 2028-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xatarli ssenariy bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti 8 foizdan past bo'ladigan banklarning jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi 77 foizni tashkil etishi mumkin. Jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti uchun o'rnatilgan minimal 13 foizlik talabni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan banklarning aktivlari jami bank tizimi aktivlarining 82 foizida shakllanadi.

**144-chizma. Banklar qirqimida makro stress-test natijalari, %
(2028-yil 1-iyul holatiga)**




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Bu yerda, jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandlilik ko'effitsiyentlari 0–60 foiz oralig'ida joylashgan banklar inobatga olingan. Shuningdek, yashil rang jami regulyativ kapital yetarliligiga (13 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (8 foiz) qo'yilgan minimal talablarni asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha bajara oladigan, jigarrang ushbu talablarni xatarli ssenariyda, qizil rang esa asosiy ssenariyda ham bajara olmaydigan banklarni ifodalaydi.

Asosiy ssenariyda tizimli ahamiyatga molik banklarning to'lov qobiliyatida muammolar kuzatilmadi. 2028-yilning I yarim yilligi yakunida asosiy ssenariy bo'yicha 1 ta, xatarli ssenariy bo'yicha esa 14 ta bankning I darajali asosiy kapital monandlilik ko'effitsiyenti 8 foizdan pastda shakllanishi mumkin. Shuningdek, jami regulyativ kapital monandlilik ko'effitsiyenti minimal talabdan past bo'lishi mumkin bo'lgan banklar soni asosiy ssenariy bo'yicha 3 ta, xatarli ssenariy bo'yicha esa 18 tani tashkil etadi.

145-chizma. Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha bank sektorining leveraj koeffitsiyenti, %



146-chizma. Banklar qirqimida leveraj koeffitsiyenti, % (2028-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Leveraj koeffitsiyentlari 0–50 foiz oralig'ida joylashgan banklar inobatga olingan. Shuningdek, yashil rangli pufakchalar leveraj koeffitsiyentiga (6 foiz) qo'yilgan minimal talabni asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha bajara oladigan, jigarrang ushbu talablarni xatarli ssenariyda, qizil rang esa asosiy ssenariyda ham bajara olmaydigan banklarni ifodalaydi.


Xatarli ssenariyda jami aktivlarning sifatli kapital bilan ta'minlanganlik darajasida pasayish kuzatilishi mumkin. 2028-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha bank tizimi leveraj koeffitsiyenti xatarli ssenariyda 5,3 foizgacha tushishi mumkin. Asosiy ssenariyda 2025-yil I yarim yilligidan e'tiboran keyingi uch yil davomida bank tizimi bo'yicha leveraj koeffitsiyenti 6 foizlik minimal talabdan yuqori saqlanib qolishi kutiladi. Shuningdek, 2028-yil 1-iyul holatiga ko'ra, asosiy ssenariy bo'yicha 1 ta, xatarli ssenariy bo'yicha esa 11 ta bank leveraj koeffitsiyenti uchun o'rnatilgan minimal talabni bajara olmasligi mumkin.

Kapital yetarliligini ta'minlashda xatarli ssenariyda yuqori miqdordagi qo'shimcha kapitalga talab paydo bo'ladi. 2028-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xatarli ssenariyda banklar tomonidan jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti bo'yicha minimal talabni bajarish uchun YalMning 3,8 foizi miqdorida qo'shimcha kapital jalb etish zarurati yuzaga keladi. Asosiy ssenariyda jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentini bajarishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin bo'lgan banklarda qo'shimcha kiritiladigan kapital miqdori kichik bo'ladi.

147-chizma. Xatarli ssenariyda yaratilishi lozim bo'lgan kapital miqdorining YalMga nisbati, %



148-chizma. Xatarli ssenariyda bank sektorining ROA dekompozitsiyasi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Kredit xatarining ortishi banklar rentabelligini pasaytiradi. 2027-yil dastlabki yarim yilligida, xatarli ssenariyda sof foizli va foizsiz daromadlar miqdorining aktivlarga nisbatan balandroq o'sishiga qaramay, kutilayotgan kredit yo'qotishlarining yuqori ekanligi natijasida bank tizimining aktivlar rentabelligi manfiy shakllanishi mumkin. 2028-yil I yarim yilligi yakuniga kelib, kredit portfeli defolt ehtimolining pasayishi natijasida kamaygan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar, shuningdek bank aktivlariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolinadigan operatsion xarajatlar sof foizli va foizsiz daromadlar hisobiga qoplanadi. Natijada, 2028-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xatarli ssenariyda aktivlar rentabelligi 1,8 foizgacha tiklanishi kutiladi.

Xatarli ssenariy bo'yicha bank defoltining bank tizimiga tarqalish xatari past darajada shakllanmoqda. Xatarli ssenariyda minimal kapital talablarini bajara olmaganligi natijasida defoltga uchrash ehtimoli yuqori baholangan bankning kapital monandilik koeffitsiyenti qanchalik past darajada bo'l-sa, tarqalish xatari shunchalik yuqori bo'lishi inobatga olingan. Xususan, bank defolti yo'qotishlarini kapitalga bog'langan holatidagi tarqalish xatari¹⁰⁷ natijasida 4 ta bankda o'rnatilgan minimal kapital talablarini bajara olmaslik holatlari kuzatilishi mumkin.

149-chizma. Bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan holatdagi tarqalish xatari (2028-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Bu yerda, jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandilik koeffitsiyentlari 50 foizdan kichik, boshqa banklar oldida majburiyatlarga ega hamda xatarli ssenariy bo'yicha jami regulyativ kapital yetarliligiga (13 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (8 foiz) qo'yilgan minimal talablarni bajargan banklar inobatga olingan. Yashil rang jami regulyativ kapital yetarliligiga (13 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (8 foiz) qo'yilgan minimal talablarni bajara oladigan banklarni ifodalaydi. Jigarrang esa ushbu minimal talablarni bajara olmaydigan banklarni ko'rsatadi.

¹⁰⁷ Bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar tarqalish xataridan qancha yo'qotishi defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandilik koeffitsiyenti qiymatiga bog'lanadi. Bunda, defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandilik koeffitsiyenti qanchalik past darajada bo'lsa, bu bank bilan moliyaviy aloqalari (kredit ajratgan yoki depozit joylashtirgan) bo'lgan bank proporsional ravishda ko'p zarar ko'radi.

Bank defolti yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatida tarqalish xatarining¹⁰⁸ ko'lami nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Xatarli ssenariyda I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti uchun o'rnatilgan minimal talablarni bajara olmagan banklarning boshqa banklar oldidagi mavjud majburiyatlarini butunlay bajarmasligi 6 ta bankning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xatarli ssenariyda jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti minimal talabdan pastda shakllangan banklarning tanazzulga uchrashi 5 ta bank kapital monandlilik talablarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi aniqlandi.

150-chizma. Bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari (2028-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Bu yerda, jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentlari 50 foizdan kichik, boshqa banklar oldida majburiyatlarga ega hamda xatarli ssenariy bo'yicha jami regulyativ kapital yetarliligiga (13 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (8 foiz) qo'yilgan minimal talablarni bajargan banklar inobatga olingan. Yashil rang jami regulyativ kapital yetarliligiga (13 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (8 foiz) qo'yilgan minimal talablarni bajara oladigan banklarni ifodalaydi. Jigarrang esa ushbu minimal talablarni bajara olmaydigan banklarni ko'rsatadi.

¹⁰⁸ Bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar defoltga uchrash ehtimoli yuqori ya'ni kapital monandlilik koeffitsiyenti ko'rsatkichi minimal talabdan past bo'lgan bankka ajratgan jami kreditlari yoki depozitlarini yo'qotadi.

Kredit portfelidagi yuqori konsentratsiya va uy-joy narxlaridagi tuzatishlar bilan bog'liq zaifliklar bo'yicha bank tizimi bardoshlilik xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish orqali baholandi. Har bir bank kredit portfelidagi eng yirik qarz oluvchining muvaffaqiyatsizligi tufayli yuzaga keladigan aktivlardagi yo'qotishlarni banklar to'lov qobiliyatiga ta'siri tahlil etilgan. Bunda, muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan eng yirik qarz oluvchilarga ajratilgan bank kreditlari miqdorining 50 foizi qaytmasligi inobatga olingan. Shuningdek, ko'chmas mulk bozorida uy-joy narxlarining 30 va 50 foizga pasayishi natijasida kreditlarning qaytarmasligi oqibatida ipoteka krediti portfeli bo'yicha defolt ehtimolining ortishi tahlil qilingan.

151-chizma. Konsentratsiya xavfi bo'yicha stress-test natijalari, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Konsentratsiya xavfi sifatida har bir bank bo'yicha eng yirik bitta qarz oluvchining defoltga uchrashi inobatga olingan.

Konsentratsiya xavfi bo'yicha stress-test natijalari kapital monandlilik koeffitsiyentlarining sezilarli pasayishini ko'rsatmoqda. Xususan, har bir bank bo'yicha eng yirik qarz oluvchilarning defoltga uchrashi ta'sirida 2028-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha I darajali asosiy

kapital va jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentlari mos ravishda 4,7 va 7 foizlargacha pasayishi mumkin. Bunda, yirik qarz oluvchilarning muvaffaqiyatsizligini kapital monandlilik koeffitsiyentlariga salbiy ta'siri 2,1 foiz bandni, kredit yo'qotishlari tufayli tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning kamayishini ijobiy ta'siri 0,5 foiz bandni tashkil etadi.

152-chizma. Ko'chmas mulk bozorida narxlarning pasayish ssenariylariga asosan ipoteka krediti bo'yicha LTV ko'rsatkichining taqsimlanishi, 2026-yil I yarim yilligi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: LTV ko'rsatkichi oraliqlarida joylashgan kreditlarning jami ipoteka kreditlardagi ulushlari yig'ilib borish tartibida o'rnatilgan.

Uy-joy narxlarining pasayishining banklar to'lov qobiliyatiga ta'siri baholandi. Garovga olingan uy-joylar narxining arzonlashishi natijasida LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori shakllangan ipoteka kreditlarining qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik farazi ilgari surilgan. Bunda, ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlar banklarning kredit yo'qotishlariga sabab bo'lib, bank tizimi bo'yicha to'lov qobiliyatini yomonlashtiradi.

Ko'chmas mulk bozoridagi narxlarning arzonlashishi ipoteka bo'yicha kredit xatarini oshiradi. Uy-joy narxlarining 30 foizga pasayishi 2025-yil I yarim yilligida ajratilgan ipoteka kreditlarining 85 foizini yetarli garov bilan ta'minlanmasligiga va LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori shakllanadigan ipoteka kreditlarining ulushini esa 35 foizgacha ortishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'chmas mulk bozorida narxlarning 50 foizga arzonlashishi 2025-yilning dastlabki yarim yilligida ajratilgan 92 foiz ipoteka kreditlarida kredit hajmi garov ta'minotidan yuqori shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, uy-joy narxlarning 50 foizga arzonlashishi holatida LTV ko'rsatkichi 120 foizdan ortishi natijasida kredit to'lashdan ko'ra garovdan voz kechish ehtimoli yuqori bo'lgan ipoteka kreditlarining jami ipoteka kreditlaridagi ulushi 89 foizni tashkil etadi.


153-chizma. Ko'chmas mulk bozorida narxlarning 30 foizga pasayishi bo'yicha makro stress-test natijalari, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Xatarli ssenariy bo'yicha uy-joy narxlarining 30 foizga pasayishining bank tizimi to'lov qobiliyatiga ta'sir darajasi past bo'ladi. 2028-yil dastlabki yarim yilligi yakunida uy-joylarning 30 foizga arzonlashishi natijasida jami kredit portfelining defolt ehtimoli 1,3 foiz bandga ortishi mumkin. Kredit xatarining ortishi hisobiga ipoteka kreditlari bo'yicha yuzaga keladigan yo'qotishlar I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentini 5,3 foizgacha, jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyentini esa 7,3 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin.

154-chizma. Ko'chmas mulk bozorida narxlarning 50 foizga pasayishi bo'yicha makro stress-test natijalari, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Ko'chmas mulk bozorida narxlarning 50 foizga arzonlashishi kapital monandiligini pasaytiradi. 2028-yil I yarim yilligi yakunida xatarli ssenariy bo'yicha uy-joylarning 50 foizga kamayishi ipoteka krediti portfelining defolt ehtimolini 27 foiz bandga oshiradi. Ushbu holatda kredit portfeli defolt ehtimolining yuqori darajada ortishi tufayli uy-joy bo'yicha yo'qotishlar I darajali asosiy kapitalga 4,1 foiz bandlik, jami regulyativ kapitalga esa 4,8 foiz bandlik salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ipoteka kreditlari bo'yicha yo'qotishlar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarni kamaytiradi hamda banklarning sof foizli daromadini pasaytiradi. Buning natijasida, 2028-yil 1-iyul holatida xatarli ssenariy bo'yicha I darajali asosiy va jami regulyativ kapital monandilik koeffitsiyentlari mos ravishda 3,2 va 4,6 foizlargacha tushishi mumkin.

5.3. Likvidlilik makro stress-testi

Tijorat banklarining likvidlilik holati asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha baholandi. Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida pul kirimi va chiqimini baholash koeffitsiyentlari orqali asosiy ssenariy bo'yicha pul oqimi keyingi bir yil uchun tahlil qilindi. Xatarli ssenariy bo'yicha pul oqimini baholashda ichki va tashqi iqtisodiy noaniqliklarning ortishi natijasida milliy valyuta almashinuv kursining qadrsizlanishi, asosiy ssenariyga nisbatan yuqoriroq pul chiqimi hamda kamroq pul kirimi yuzaga kelishi makro stress-testda inobatga olingan¹⁰⁹ (4-ilova).

155-chizma. Bank tizimi aktivlari va majburiyatlarining muddatlari bo'yicha tarkibi, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Bank balansining passiv qismi jami majburiyatlar va jami kapitaldan tarkib topgan.


Bank tizimining milliy valyutadagi qisqa muddatli aktivlari qisqa muddatli majburiyatlariga nisbatan yuqori ulushni tashkil etgan. 2025-yilning 1-iyul holati bo'yicha milliy valyutadagi bank tizimi aktivlari tarkibida 1 yilgacha bo'lgan qisqa muddatli aktivlar 46 foiz, kapital va majburiyatlar tarkibida qisqa muddatli majburiyatlarning ulushi 42 foiz bo'ldi.

¹⁰⁹ Likvidlilik makro stress-testi tafsiri 2024-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

Bank tizimi bo'yicha milliy valyutadagi qisqa muddatli aktivlar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda barqaror holat kuzatilmoqda.

Xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik darajasi past shakllanmoqda. Xorijiy valyuta bo'yicha qisqa muddatli majburiyatlarning jami majburiyatlar va kapitaldagi ulushi 47 foizda shakllangan. Xorijiy valyutadagi aktivlarning 57 foizi qisqa muddatli aktivlardan tashkil topgan. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy valyutadagi qisqa muddatli majburiyatlarni bajarishda likvidlilik xavfi yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi.

**156-chizma. Sof pul kirimining jami aktivlarga nisbati, %
(2026-yil 1-iyul holatiga)**




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Chizmadagi to'rtburchak shakl likvidlilik makro stress-testi natijalariga ko'ra, 2026-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha sof pul kirimini aktivlarga nisbatining bank tizimi bo'yicha qiymati va banklar orasida ushbu nisbatning minimal qiymatiga ega bo'lgan bank ko'rsatkichi o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Bank tizimi va minimal ko'rsatkichga ega bo'lgan bank ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, to'rtburchak shakli ham shunchalik uzun bo'ladi. Vertikal qora chiziqning eng yuqori nuqtasi 2026-yil I yarim yilligi yakuniga qadar bir yil davomida vaqt oraliqlari bo'yicha sof pul kirimini jami aktivlarga nisbatining maksimum qiymatiga ega bo'lgan, uning quyi nuqtasi esa ushbu nisbatning minimum qiymatiga ega bo'lgan banklarning ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Shuningdek, qora doira 2026-yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha bank tizimi bo'yicha sof pul kirimini bank tizimi aktivlariga nisbatini ko'rsatadi.

Asosiy ssenariyga ko'ra, jami valyutalar bo'yicha barcha banklarda sof pul kirimi¹¹⁰ ijobiy bo'ladi. 2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, makro stress-test natijalari bank tizimi bo'yicha jami aktivlarga nisbatan sof pul kirimining ulushi jami va milliy valyutalarda 20 foizda, xorijiy valyutada esa 21 foizda shakllanishi mumkinligini ko'rsatdi. Sof pul chiqimi bo'yicha banklarda kuzatilishi mumkin bo'lgan eng past ko'rsatkich aktivlar hajmiga nisbatan xorijiy valyutada manfiy 26 foiz, milliy valyutada manfiy 4 foizni tashkil etgan.

Xatarli ssenariy bo'yicha ayrim banklarda sof pul kirimi manfiy darajada shakllanishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha bank tizimidagi sof pul kirimini jami aktivlarga nisbati barcha valyutalarda 11 foizni, milliy valyuta bo'yicha 9 foizni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, xorijiy valyutada bank tizimi bo'yicha sof pul kirimini bank tizimi aktivlariga nisbati 14 foizda shakllanishi kutiladi.

157-chizma. Banklar qirqimida jami valyutalar bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari, % (2026-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 60 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 200 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang milliy valyutadagi musbat sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

¹¹⁰ Sof pul kirimi pul kirimi va pul chiqimi orasidagi farq.

Stress-test natijalari banklar asosiy ssenariyda jami valyuta bo'yicha likvidlilik muammosiga duch kelmasligini ko'rsatmoqda. Barcha banklarda jami valyuta bo'yicha sof pul kirimi ijobiy bo'lishi aniqlandi. Xatarli ssenariyda jami valyutalar bo'yicha ayrim banklarda qayd etilgan manfiy sof pul kirimining jami bank tizimi aktivlariga nisbati 1 foizni, yuqori likvidli aktivlariga nisbati 5 foizni tashkil etishi mumkin.

158-chizma. Banklar qirqimida milliy valyuta bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari, % (2026-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha milliy valyutadagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 70 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 200 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang milliy valyutadagi musbat sof pul kirimini, jigarrang esa manfiy sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

Asosiy va xatarli ssenariylarda aksariyat banklarda milliy valyutadagi likvidlilik holati barqaror shakllanadi. 2026-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, asosiy ssenariyda banklar likvidlilik muammosiga duch kelmaydi. Xatarli ssenariyda milliy valyutadagi salbiy pul kirimining bank tizimi yuqori likvidli aktivlariga nisbati 2 foizni tashkil etishini kutish mumkin. Banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy pul kirimini qoplash uchun yetarli yuqori likvidli aktivlarining mavjudligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xatarini yuzaga kelishini oldini oladi.

159-chizma. Banklar qirqimida xorijiy valyuta bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari, % (2026-yil 1-iyul holatiga)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha xorijiy valyutadagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 100 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 300 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang xorijiy valyutadagi musbat sof pul kirimini, jigarrang esa manfiy sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

Likvidlilik stress-testi natijalariga ko'ra, xorijiy valyuta bo'yicha ayrim banklarda likvidlilik yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Xorijiy valyuta bo'yicha asosiy ssenariyda ayrim banklarda kuzatilishi kutilayotgan manfiy sof pul kirimining bank tizimi yuqori likvidli aktivlariga nisbati 7 foiz, xatarli ssenariyda 19 foiz darajasida shakllanishi mumkin. Ushbu banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfiy pul kirimini qoplash uchun xorijiy valyutada yetarli yuqori likvidli aktivlarning mavjud ekanligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xavfini yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi.

Depozit konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlarni banklarning likvidlilik holatiga ta'siri xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish orqali baholandi. Bunda, har bir bank bo'yicha eng yirik depozitor tomonidan o'z mablag'larini qaytarib olishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlilik xavfi tahlil qilindi. Har bir bank depozit portfelidagi milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha eng yirik depozitor mablag'ining chiqib ketish farazi xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berildi.

**160-chizma. Banklar qirqimida eng yirik depozitor mablag'larining ulushi, %
(2025-yil 1-iyul holatiga)**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Depozitor sifatida yuridik va jismoniy shaxslar inobatga olingan.

Banklarning depozit portfelida konsentratsiya saqlanib qolmoqda. Ayrim tijorat banklarining milliy va xorijiy valyuta bo'yicha depozit portfelida eng yirik depozitor mablag'larining ulushi yuqori shakllangan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, milliy valyuta bo'yicha banklardagi eng yirik depozitor mablag'larining yig'indisi milliy valyutadagi bank tizimi bo'yicha jami depozitlardagi ulushi¹¹¹ 25 foiz, jami depozit portfelida esa 19 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bank tizimi bo'yicha xorijiy valyutada jalb etilgan depozitlar tarkibida xorijiy valyuta bo'yicha eng yirik depozitorlar mablag'larining ulushi 20 foizda, bank tizimi bo'yicha jami depozit portfelining 5 foizida shakllangan. Bank tizimi bo'yicha jami depozitlar portfeli 355,6 trln so'mni tashkil etib, ularning 76 foizi¹¹² milliy valyutadagi depozitlar hissasiga to'g'ri kelishi milliy valyutadagi depozit konsentratsiyasi bilan bog'liq xavotirlar borligidan dalolat beradi.

¹¹¹ Eng yirik depozitorlarning jami depozitlardagi ulushi banklar qirqimida hisoblangan eng yirik depozitorlar mablag'lari yig'indisining bank tizimi bo'yicha depozit portfeliga nisbati sifatida aniqlangan.

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

161-chizma. Banklar qirqimida xatarli ssenariy asosida eng yirik depozitorning o'z mablag'ini qaytarib olish farazi bo'yicha stress-test natijalari, % (2026-yil 1-iyul holatiga)



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Milliy va xorijiy valyutalardagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 90 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 300 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang musbat sof pul kirimini, jigarrang esa manfiy sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.


Eng yirik depozitorlarning o'z mablag'larini qaytarib olish faraziga ko'ra, banklarda likvidlilik muammolari yuzaga kelishi mumkin. 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, banklar qirqimida xatarli ssenariy asosida eng yirik depozitorning o'z mablag'ini qaytarib olish farazi bo'yicha stress-test natijalari konsentratsiya xatari ta'sirida milliy valyutadagi manfiy sof pul kirimi jami milliy valyutadagi aktivlarning 5 foizi, yuqori likvidli aktivlarning 31 foizini tashkil etishi mumkinligini ko'rsatdi. Banklardagi xorijiy valyutada depozit joylashtirgan eng yirik depozitor o'z mablag'larini qaytarib olish farazida bank tizimida ijobiy sof kirimining kuzatilishini kutish mumkin.

VI. Makroprudensial siyosat

6.1. Makroprudensial siyosat vositalari

Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar hisobiga makroprudensial siyosat qat'iylashgan. 2024-yil 1-iyuldan jismoniy shaxslarga ajratiladigan barcha kredit turlari uchun joriy etilgan qarz yuki talabi 2025-yildan e'tiboran yanada qat'iylashtirildi. Xususan, jismoniy shaxslarga kreditlar ajratishda qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) cheklovi 2025-yil 1-yanvardan boshlab 50 foizgacha pasaytirildi¹¹³. Natijada, 2025-yil I yarim yilligida makroprudensial siyosat indeksi¹¹⁴ oshdi.

162-chizma. Makroprudensial siyosat indeksi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Makroprudensial siyosat indeksining ortishi makroprudensial siyosatning qat'iylashganligini ifodalaydi.

Kredit yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida bevosita makroprudensial vositalar joriy etildi. 2025-yil 24-iyuldan e'tiboran jismoniy shaxslarga ipoteka va avtokreditlar ajratishda kredit summasining

¹¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-yanvardagi "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 42/16-sonli qarori.

¹¹⁴ O'zbekiston uchun makroprudensial siyosat indeksi metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

garov summasiga nisbati (LTV) uchun bevosita cheklovlar o'rnatildi¹¹⁵. Xususan, avtokreditlar bo'yicha 75 foizlik bevosita LTV cheklovlari qo'llanildi. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligining mablag'lari hisobidan qayta moliyalashtiriladigan ipoteka krediti bo'yicha LTV cheklovi 85 foiz, boshqa ipoteka kreditlari bo'yicha 80 foiz etib belgilandi (5-ilova).

Makroprudensial kapital vositalarni joriy qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Mamlakat bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan likvidlilik va qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari doimiy takomillashtirib, faol foydalanib kelinmoqda. Ayni vaqtda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davriy tizimli xatarlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va banklarni to'lov qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan makroprudensial kapital vositalariga zarurat paydo bo'lmoqda (6-ilova).

Markaziy bank tomonidan banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari ishlab chiqildi. Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari Bazel III standartlariga muvofiq O'zbekiston uchun kontrtsiklik kapital bufer (CCyB) darajasini belgilash va o'zgartirishning umumiy konsepsiyasini ifoda etadi. CCyB va ijobiy neytral kontrtsiklik kapital bufer (pnCCyB) darajalarini aniqlashning miqdoriy yondashuvlari belgilandi¹¹⁶.

CCyBni amaliyotga tatbiq etilishi makroprudensial siyosat vositalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Kontrtsiklik kapital bufer (CCyB) darajasi moliyaviy zaifliklar yuzaga kelgan davrda real iqtisodiyotga kreditlarning uzluksizligini ta'minlash hamda kreditlarning haddan tashqari o'sish davrida to'planadigan davriy tizimli xatarlarga umumiy bank tizimi bardoshlilikini oshirish maqsadida qo'llaniladi. CCyB I darajali asosiy kapital ko'rinishida shakllantirilib, tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 0–2,5 foizi oralig'ida bo'ladi (7-ilova).


Moliyaviy sikl indeksi va xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti ijobiy buferni o'rnatish davri kechikkanligini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda keskin o'zgarishlarsiz shakllanayotgan moliyaviy sikl indeksi mamlakatda standart xatar muhiti mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, xususiy sektorga ajratilgan kreditning YalMga nisbati tafovuti manfiy shakllanishda davom etmoqda. 2025-yilning 1-iyul

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 8-apreldagi "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlarni) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 7/3–sonli qarori.


¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari.

holatiga ko'ra, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati o'zining uzoq muddatli trendiga nisbatan 4 foiz bandga pastroq shakllangan.

163-chizma. O'zbekiston moliyaviy sikl indeksi¹¹⁷



164-chizma. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti, foiz band



■ Ijobiy buferni o'rnatish davri

Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Moliyaviy sikl indeksining oshishi iqtisodiyotda o'sish davrini, aksincha tushishi iqtisodiyotni qisqarish davrini ko'rsatadi.

Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti bo'yicha ijobiy kapital buferni o'rnatish davrlari uchun mazkur tafovutning 2 foiz banddan yuqori bo'lgan davrlar inobatga olingan¹¹⁸. O'zbekiston moliyaviy sikl indeksi bo'yicha ijobiy kapital buferni o'rnatish davrlari uchun uning eng yuqori qiymatga ega davrlari hisobga olingan.

CCyB darajasini aniqlashda samarali ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Faqatgina, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti mamlakat iqtisodiy holati haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi.

¹¹⁷ Moliyaviy sikl indeksini hisoblash metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹¹⁸ Buferring benchmark darajasi kreditning YalMga nisbati tafovutidan kelib chiqib quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$BBR = \begin{cases} 0 \text{ agar, } GAP < 2 \text{ foiz band} \\ 0,3125 * GAP - 0,625 \text{ agar, } 2 \text{ foiz band} \leq GAP \leq 10 \text{ foiz band} \\ 2,5\% \text{ agar, } GAP > 10 \text{ foiz band} \end{cases}$$

Bu yerda,

BBR – buferning benchmark darajasi;

GAP – kreditning YalMga nisbati tafovuti.

Shu sababli, CCyB darajasini baholashda qo'shimcha samarali ko'rsatkichlarni tahlil qilish muhim sanaladi.

Samarali ko'rsatkichlar AUROC modeli natijasiga asosan tanlangan. Xalqaro moliya institutlarining tavsiyalari hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida keng ko'lamli ko'rsatkichlar to'plami shakllantirilgan. Ushbu to'plamdagi yetarlicha vaqt qatoriga ega bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha qabul qiluvchining operatsion xarakteristikasi egri chizig'i ostidagi yuza (Area under receiver operating characteristic curve, AUROC)¹¹⁹ natijasiga ko'ra, makroiqtisodiy, moliyaviy hamda nomoliyaviy sektorni, shuningdek ko'chmas mulk bozorini ifodalovchi samarali ko'rsatkichlar belgilab olingan¹²⁰.

¹¹⁹ AUROC bo'yicha batafsil ma'lumot Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Banklar uchun kontrsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari.


1-jadval. CCyB darajasini aniqlash bo'yicha samarali ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar		2021				2022				2023				2024				2025	
		Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti																		
	Milliy valyutadagi kreditlar va g'aznachilik obligatsiyalarning foiz stavkalari orasidagi farq																		
	Moliyaviy sharoitlar indeksi																		
	Jami kreditlarning YalMga nisbati tafovuti																		
	Nominal YalM tafovuti																		
	Inflyatsiya																		
	Moliyaviy stress indeksi																		
	O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalar G-spredi																		
	Kreditning YalMga nisbati o'sish sur'ati																		
	Joriy operatsiyalar hisobi balansining YalMga nisbati																		
	Moliyaviy sikl indeksi																		
Moliyaviy sektor	Kreditning depozitga nisbati																		
	Bank tizimi bo'yicha kapital rentabelligi (ROE)																		
	Muammoli kreditlarning o'sishi																		
	Bank tizimi aktivlarining YalMga nisbati																		
	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)																		
	Kreditlarning o'sish sur'ati																		
	Xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi																		
	Bank tizimi bo'yicha aktivlar rentabelligi (ROA)																		
	Leveraj koeffitsiyenti																		
	I darajali asosiy kapital monandilik koeffitsiyenti																		
Nomoliyaviy sektor	Uy xo'jaliklari kreditlarining o'sish sur'ati																		
	Korporativ kreditlarning YalMga nisbati tafovuti																		
	Uy xo'jaliklari kreditlarining YalMga nisbati tafovuti																		
	Korporativ kreditlarning ulushi																		
	Korporativ kreditlarning o'sish sur'ati																		
Ko'chmas mulk bozori	Uy-joy narxining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati																		
	Ipoteka kreditlarining o'sish sur'ati																		
	Uy-joy narxlarining o'sish sur'ati																		
	Uy-joylarning bozor va fundamental narxlari orasidagi tafovut																		



Tahlil natijalari O‘zbekiston moliyaviy siklning standart xatar muhiti joylashganligiga ishora bermoqda. Moliyaviy siklning standart xatar muhiti fazasida samarali ko‘rsatkichlar o‘zining tarixiy o‘rtacha qiymati atrofida, tizimli xatarlar esa o‘zining o‘rta darajasida shakllanmoqda. Moliyaviy siklning standart xatar muhiti fazasi pnCCyB o‘rnatilishi lozimligini ifodalaydi. Bunda, kredit ajratish ko‘lamining yuqori ekanligi, bank aktivlari miqdorining ortib borayotganligi, muammoli kreditlar o‘shishining sekinlashganligi, shuningdek moliyaviy stress indeksi o‘zining tarixiy o‘rtacha qiymati atrofida shakllanganligi mamlakat moliyaviy siklning standart xatar muhiti fazasida ekanligidan dalolat bermoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, banklar kredit portfelida muammoli kreditlar hajmining yillik o‘shish sur‘ati 9,3 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 30 foiz bandga sekinlashgan¹²¹.

165-chizma. Moliyaviy sikl fazalari



Manba: Markaziy bank.

CCyB hamda pnCCyB darajalari miqdoriy yondashuvlar asosida belgilanadi. CCyB darajasini aniqlashda buferning benchmark darajasi, to‘lov qobiliyati bo‘yicha makro stress-testi, tarixiy yo‘qotishlar, ko‘p o‘zgaruvchili lojit modeli hamda umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar indeksi

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil iyun Statistik byulleten.

miqdoriy yondashuvlari qo'llaniladi. Shuningdek, pnCCyB darajasini belgilashda yo'qotishlar asosida bufer darajasi, to'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi, ko'p o'zgaruvchili lojit modeli hamda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi miqdoriy yondashuvlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, Markaziy bank bufer darajalarni aniqlashda qo'shimcha miqdoriy yondashuvlardan ham foydalanishi mumkin¹²².

Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning nominal YalMga nisbati tafovuti orqali CCyBning benchmark darajasi aniqlanadi. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning nominal YalMga nisbati tafovuti ushbu nisbat va 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda Hodrick-Prescott (HP) filtri yordamida baholangan o'zining uzoq muddatli trendi orasidagi farqni aniqlash orqali hisoblanadi¹²³. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti 2 foiz band yoki undan kichik bo'lganda, buferning benchmark darajasi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan 0 foizni, tafovut 10 foiz band va undan yuqori shakllanganda benchmark darajasi 2,5 foizni tashkil etadi. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati tafovuti 2 va 10 foiz band oralig'ida bufer darajasi 0 dan 2,5 foizgacha chiziqli ravishda shakllanadi.

To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi natijalaridan CCyB va pnCCyB darajalarini aniqlashda foydalaniladi. To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi yondashuviga ko'ra, CCyB darajasini aniqlashda xatarli ssenariy bo'yicha baholanadigan I darajali asosiy kapitalning monandlilik koeffitsiyenti hamda stress-testning boshlang'ich davri orasidagi farq orqali banklar barqaror faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan makroprudensial kapital buferlarning umumiy darajasi topiladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pnCCyB darajasi mo'tadil ssenariy asosida aniqlanadi. CCyB hamda pnCCyB darajasini aniqlashda xatarli va mo'tadil ssenariylar asosida baholangan makroprudensial kapital buferning umumiy darajasidan kapital konservatsiya buferi hamda mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferiga¹²⁴ o'rnatilgan talablar ayiriladi.

Tarixiy yo'qotishlar yondashuvi bo'yicha bank tizimida o'tgan davrlarda yuzaga kelgan yo'qotishlarni qoplash uchun zarur bo'ladigan

¹²² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari.

¹²³ Basel Committee on Banking Supervision. (2010, December). Guidance for national authorities operating the countercyclical capital buffer.

¹²⁴ Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi faqatgina ayrim banklar uchun o'rnatilishini inobatga olgan holda, ushbu bufer darajasining bank tizimidagi yuklamasini hisoblashda tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hajmining jami bank tizimi bo'yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hajmidagi ulushi tizimli ahamiyatga molik banklar uchun belgilangan kapital bufer darajasiga ko'paytiriladi.

kapital miqdori asosida CCyB darajasi baholanadi. O'tgan davrlar davomida kiritilgan qo'shimcha kapital miqdoridan so'ng turli omillar natijasida yuzaga kelgan bank tizimi kapital monandiligi ko'rsatkichidagi pasayish yo'qotishlar hajmini ifodalaydi. Ushbu yondashuvda I darajali asosiy kapital monandilik koeffitsiyentining tarixiy keskin o'zgarish davrlaridagi eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlar inobatga olinib, ularning o'rtacha arifmetik qiymati bank tizimi barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan makroprudensial kapital buferlarning umumiy darajasini ifodalaydi. CCyB darajasini aniqlashda makroprudensial kapital buferining umumiy darajasidan kapital konservatsiya buferi hamda mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferiga o'rnatilgan talablar bank tizimidagi yuklamasini hisobga olgan holda ayiriladi.

Ko'p o'zgaruvchili lojit modeli CCyB va pnCCyB darajasini belgilashda qo'llaniladi. Samarali ko'rsatkichlarni kichik guruhlariga ajratish orqali turli kombinatsiyali modellar ishlab chiqilib, inqiroz holatining sodir bo'lish ehtimoli ko'p o'zgaruvchili lojit modeli orqali baholanadi. Ko'p o'zgaruvchili lojit modeli orqali CCyB darajasini aniqlashda turli kombinatsiyalar bo'yicha inqiroz holatining sodir bo'lish ehtimolining yakuniy davrdagi qiymatidan, pnCCyB darajasini aniqlashda esa mediana qiymatidan foydalaniladi. Kombinatsiyalar bo'yicha modellarning natijasiga mos keluvchi bufer darajalari va kombinatsiyalar sonidan kelib chiqib hisoblangan o'rtacha tortilgan arifmetik qiymati CCyB hamda pnCCyB darajalarini ifodalaydi. Inqiroz holatining sodir bo'lish ehtimolining katta qiymatiga bufer darajasining yuqori qiymati to'g'ri keladi.

Umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi natijalari asosida CCyB hamda pnCCyB darajalari aniqlanadi. Samarali ko'rsatkichlar dastlab Z-ko'rsatkich usuli orqali standartlashtiriladi va asosiy komponentlar tahlili (PCA)¹²⁵ yordamida yagona umumiy indeksga birlashtiriladi. Kombinatorikaning guruhlash elementi, tartiblangan lojistik regressiya (Ordered Logistic Regression) hamda AUROC orqali aniqlangan indeksning pastki va yuqori optimal chegaralari sifatida indeksning 35 va 90 protsentillardagi qiymatlari¹²⁶ bufer darajasini hisoblashda foydalaniladi. Indeksning oxirgi kuzatuv davridagi qiymati indeks taqsimotining 35 protsentildagi qiymatidan kichik holatda CCyB darajasi 0 foizga, 90 protsentildagi qiymatidan katta holatda 2,5 foizga teng bo'ladi. Shuningdek,

¹²⁵ Asosiy komponentlar tahlilidan bo'yicha batafsil ma'lumot Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

¹²⁶ Batafsil ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslarida keltirilgan.

indeks qiymati indeks taqsimotining 35 va 90 protsentil qiymatlari orasida shakllangan holatlarda CCyB darajasi 0 va 2,5 foiz oralig'ida shakllanadi. pnCCyB darajasi indeks natijasining tarixiy 60 protsentilga to'g'ri keladigan qiymati asosida belgilanadi.

Yo'qotishlarga asoslangan bufer darajasi yondashuvi pnCCyB darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv bo'yicha kvantil regressiya modeli orqali ma'lumotlar to'plami asosida bank faoliyati va makromoliyaviy ko'rsatkichlar, shuningdek banklar va davrlar uchun umumiy xos bo'lgan o'zgarmas omillarning banklarning ROAgaga ta'siri baholanadi. pnCCyB darajasini belgilashda ROAning 25 protsentil bo'yicha ma'lumotlar to'plami asosida kvantil regressiya modeli natijalari inobatga olinadi. Model orqali hisoblangan har bir davrga xos bo'lgan umumiy o'zgarmas omillarning ROAgaga salbiy ta'sirini RWA zichligining o'rtacha oddiy arifmetik qiymatiga bo'lish orqali pnCCyB darajasi hisoblanadi.

CCyB va pnCCyB bo'yicha miqdoriy yondashuvlarning natijalari yagona darajaga keltiriladi¹²⁷. Miqdoriy yondashuvlarning natijalari va ularning yagona darajasi 0,25 foiz bandga karrali tarzda yuqoriga qarab¹²⁸ yaxlitlanadi¹²⁹. Bunda, yaxlitlangan qiymatlar 0–2,5 foiz oralig'ida

¹²⁷ Miqdoriy yondashuvlarning natijalari quyidagi formula orqali yagona darajaga keltiriladi:

$$\bar{R} = \frac{\sum_{i=1}^n R_i}{n}$$

$$R \in \{CCyB; pnCCyB\}$$

Bu yerda,

$\bar{R}$ – CCyB yoki pnCCyB bo'yicha miqdoriy yondashuv natijalarining yagona darajasi;
 R_i – i tartibli miqdoriy yondashuv bo'yicha aniqlangan CCyB yoki pnCCyB darajasi;
 n – miqdoriy yondashuvlar soni.

¹²⁸ Yaxlitlanmagan qiymatdan kichik bo'lmagan eng yaqin 0,25 foiz bandga karrali songa qarab yaxlitlanadi.

¹²⁹ Miqdoriy yondashuvlarning natijalari hamda miqdoriy yondashuvlarning yagona darajasi quyidagi formula orqali yaxlitlanadi:

$$\tilde{r} = \min \left(\max \left(\frac{[\hat{r} * 4]}{4}; 0 \right); 2,5 \right)$$

$$r \in \{R_i; \bar{R}\}$$

Bu yerda,

$[\hat{r}]$ – $\hat{r}$ sonidan kichik bo'lmagan eng yaqin butun son;
 $\tilde{r}$ – miqdoriy yondashuv natijalari yoki yagona darajasining yaxlitlangan qiymati;
 $\hat{r}$ – miqdoriy yondashuv natijalari yoki yagona darajasining yaxlitlanmagan qiymati;
 R_i – miqdoriy yondashuv natijalari;
 $\bar{R}$ – miqdoriy yondashuv natijalarining yagona darajasi;
 $\min$ – ko'rsatkichlar orasidagi eng kichik qiymat;
 $\max$ – ko'rsatkichlar orasidagi eng katta qiymat.

shakllanadi. CCyB va pnCCyB bo'yicha yagona darajasi miqdoriy yondashuvlarning yaxlitlangan natijalari bo'yicha oddiy o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi.

2-jadval. CCyB darajasini aniqlash bo'yicha miqdoriy yondashuv natijalari, % (2025-yil 1-iyul holatiga)

Miqdoriy yondashuvlar	CCyB darajasi, %
Buferning benchmark darajasi	0
To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi	2,5
Tarixiy yo'qotishlar	1,75
Ko'p o'zgaruvchili lojit modeli	0,25
Umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi	0

Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Miqdoriy yondashuvlarning natijalari 0,25 foiz bandga karrali tarzda yaxlitlangan.

CCyB darajasini aniqlash bo'yicha miqdoriy yondashuvlarning yagona darajasi 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 foizni tashkil etdi. To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi 2,5 foiz, tarixiy yo'qotishlar 1,75 foiz, ko'p o'zgaruvchili lojit modeli 0,25 foiz miqdorida CCyB darajasini o'rnatish zaruratini ko'rsatdi. Shuningdek, buferning benchmark darajasi hamda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi yondashuvlari bo'yicha ko'rsatkichlarning natijasi CCyBni faollashtirishga ishora beradigan chegaradan pastda joylashdi.

3-jadval. pnCCyB darajasini aniqlash bo'yicha miqdoriy yondashuv natijalari, % (2025-yil 1-iyul holatiga)

Miqdoriy yondashuvlar	pnCCyB darajasi, %
Yo'qotishlar asosida bufer darajasi	0,5
To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testi	0
Ko'p o'zgaruvchili lojit modeli	0,25
Umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi	0,75

Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Miqdoriy yondashuvlarning natijalari 0,25 foiz bandga karrali tarzda yaxlitlangan.

Miqdoriy yondashuvlarning yagona darajasi standart xatar muhitida 0,5 foizlik pnCCyBni shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Yo'qotishlar asosida bufer darajasi yondashuviga ko'ra zaruriy pnCCyB darajasi 0,5 foizni, ko'p o'zgaruvchili lojit modeli va umumlashtirilgan ko'rsatkichlar indeksi yondashuvlariga ko'ra mos ravishda 0,25 va 0,75 foizlarni tashkil etdi. To'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-test yondashuvi bo'yicha pnCCyB darajasi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan nol foizda shakllandi. CCyB darajasini belgilashda yagona darajalarning eng katta qiymati olinadi¹³⁰.

¹³⁰ CCyB hamda pnCCyB bo'yicha amalga oshirilgan miqdoriy yondashuvlarning yagona darajalari orasidagi buferning eng katta miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$CCyB = \max (CCyB; pnCCyB)$$

Bu yerda,

CCyB – kontrsiklik kapital bufer darajasi;

pnCCyB – ijobiy neytral kontrsiklik kapital bufer darajasi;

max – ko'rsatkichlar orasidagi eng katta qiymat.

6.2. Xatarlar va yengillashtiruvchi choralar

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o'zgarishi	
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda
Xalqaro moliya bozorlarida noaniqliklar va tashqi moliyalashtirish bo'yicha yuqori xarajatlarning saqlanib qolishi. Xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining pasayishiga qaramay, nisbatan yuqori foiz stavka muhitining saqlanib qolayotgani mamlakatga tashqi manbalar hisobidan moliyaviy mablag'larni jalb etishni qiyinlashtirib, tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa, banklarning xorijiy mablag'lar evaziga iqtisodiyotga kredit ajratish imkoniyatlarini qisqartiradi hamda ichki kredit foiz stavkalarining o'sishiga bosim yaratadi. Global moliya bozorlarida investorlar tomonidan qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan kriptο-aktivlar (stablecoins) ommalashmoqda. Shuningdek, ta'minlangan kriptο-aktivlarning emitentlari bo'yicha konsentratsiya darajasi yuqori hisoblanadi. Kriptο-aktivlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan keskin o'zgarishlar hisobiga qimmatli qog'ozlarning favqulodda keng ko'lamli sotilishi qimmatli qog'ozlar taklifini keskin oshirib, xalqaro kapital bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - investitsion muhitni yaxshilash hisobiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etish imkoniyatlarini oshirish; - konsolidatsiyalashgan budget taqchilligining belgilangan yuqori chegarasiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash; - tashqi moliyalashtirish qisqarishining milliy valyuta qadsizlanishiga bosimini kamaytirish maqsadida eksportni rag'batlantirish choralarini ko'rish; - xalqaro moliya bozorlaridagi yuqori o'zgaruvchanlik sharoitida ichki moliyalashtirishlar ko'lamini oshirish.		

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o'zgarishi	
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda
Mikroqarzarlar bo'yicha kredit xatarining ortishi. Banklar kredit portfelida mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning ortib borishi kredit xatarini yuqorilashiga va natijada kredit yo'qotishlarining ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, mikroqarzarlar ajratishda garov ta'minotining talab etilmasligi hisobiga qarzдорlarning mikroqarzarlar bo'yicha majburiyatlarini bajara olmagan holatida tijorat banklarida kredit yo'qotishlari yuzaga kelishi mumkin. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - qarz yuki talablari doirasida qarz yuki ko'rsatkichini inobatga olmasdan kredit ajratish bo'yicha istisno holatlarni mikroqarzlarga nisbatan tatbiq etmaslik; - mikroqarzarlar uchun kredit summasini daromadga nisbati (LTI) cheklovini joriy qilish; - minimal iste'mol xarajatlaridan kelib chiqqan holda, mikroqarz olish uchun zarur bo'lgan minimal oylik daromad miqdorini o'rnatish.		
Banklarda depozit konsentratsiyasining mavjudligi. Banklarning depozit portfelida yirik depozitorlar bilan bog'liq konsentratsiya xavfi saqlanib qolmoqda. Ayrim tijorat banklarining milliy va xorijiy valyuta bo'yicha depozit portfelida eng yirik depozitor mablag'larining ulushi yuqori shakllangan. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - bir shaxs yoki o'zaro aloqador shaxslar guruhiga tegishli depozit mablag'larining I darajali kapitalga yoki bank aktiviga nisbatan eng ko'p miqdori bo'yicha cheklov o'rnatish; - likvidlikni qoplash hamda sof barqaror moliyalashtirish me'yorlarini hisoblashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni yirik depozitorlar mablag'lari uchun qat'iylashtirish.		
Kiber xatarlarning ortib borishi. To'lov tizimlari hamda raqamlashtirish jarayoni jadallashishi bilan birga kiber xatarlarning sodir bo'lishi ham oshib bormoqda. Ushbu turdagi xatarning oshishi moliya tizimiga bo'lgan ishonchning susayishiga va natijada moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kiberhujumlar, axborot		

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o'zgarishi	
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda
xavfsizligining buzilishi hamda axborotlarni o'g'irlash ko'rinishidagi operatsion xatarlarning ortishi moliya tizimi ishtirokchilarining tashqi hodisalar ta'siridagi moliyaviy yo'qotishlarini oshiradi. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - shubhali tranzaksiyalarni aniqlashda sun'iy intellekt orqali kuzatish tizimini joriy etish va shubhali hisoblangan tranzaksiyalar uchun cheklovlarni o'rnatish; - axborot vositalarining rivojlanib borayotgan sharoitda moliya tizimi ishtirokchilari tomonidan bardoshli axborot xavfsizligi tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish; - kiberhujumlar va firibgarlik bo'yicha aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish.		
Uy-joylar narxlaridagi tuzatishlar bo'yicha noaniqliklarning saqlanib qolishi. Ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning bozor narxi pasayib, o'zining fundamental qiymatiga yaqinlashgan. Uy-joy narxlaridagi pasayish tendensiyasining davom etishi ipoteka kreditlarini garov bilan ta'minlanganlik holatini yomonlashtirishi mumkin. Kredit miqdorining garov ta'minotiga qaraganda sezilarli darajada yuqori shakllanishi oqibatida kredit to'lashdan ko'ra garovdan voz kechish va kredit bo'yicha yo'qotish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - tarmoq bo'yicha kontrsiklik kapital buferini joriy qilish; - kredit skoring tizimini takomillashtirish, ipoteka kreditlari ajratishda qarz oluvchilarning eng kam kredit skoring bali bo'yicha nisbatan yuqori talab belgilash.		
Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavotirlarning ortishi. Iqlim o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan xavflar biznes vakillari hamda jismoniy shaxslar uchun yirik yo'qotishlarni keltirib chiqarishi va bu orqali moliyaviy tizimga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, mamlakat iqtisodiyotidagi muhim tarmoqlarning iqlim o'zgarishiga bog'liq moddiy va o'tish xavflariga zaifligi ortishi mumkin.		

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o'zgarishi	
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda
Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - iqlim o'zgarishining moddiy va o'tish xavflarining banklar moliyaviy holatiga ta'sirini iqlim stress-testi vositasi yordamida doimiy baholab borish; - iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlarga zaif tarmoqlar uchun nisbatan qat'iyroq va aksincha yashil investitsion loyihalar uchun pastroq kapital talablarini belgilash; - iqlim o'zgarishi xatarlariga nisbatan zaif tarmoqlar bo'yicha yuqori konsentratsiyalashuv darajasiga ega banklar uchun likvidlilik talablarini qat'iylashtirish; - davlat budjeti xarajatlari tarkibida iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni oshirish.		

Xavf darajasi past

Xavf darajasi o'rta

Xavf darajasi yuqori

Izoh: Yashil, sariq va qizil ranglar bilan ko'rsatilgan belgining yo'nalishi xatar darajasining o'zgarishini ifodalaydi.

Iqlim o'zgarishi xaritasi

4-jadval. O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar paneli

Ko'rsatkich		Birligi	Oxirgi davrdan oldingi qiymati	Oxirgi davrdagi qiymat	Oxirgi davr	O'zgarish
Iqlim ko'rsatkichlari	Jami issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂)* ekvivalentida	211,4	227,5	2024	↑
	Aholi jon boshiga jami issiqxona gaz chiqindilari	tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	5,7	6,1	2024	↑
	Jami issiqxona gaz chiqindilarining YalMga nisbati	kilogramm, har 1 mln so'm qiymatiga nisbatan	175,5	156,4	2024	↓
	Qishloq xo'jaligida issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	51,9	52,2	2024	↑
	Sanoat ishlab chiqarish va mahsulotlardan foydalanish jarayonidagi issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	10,3	10,3	2023	→
	Energetika tarmoqlarida issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	147,3	145,3	2023	↓
	Chiqindilarni yo'q qilish jarayonlarida issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	6,9	7,1	2024	↑
	O'rmon xo'jaligi va yerlardan foydalanishning issiqxona gaz chiqindilariga ta'siri	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	-3,4	-3,4	2023	→
	Boshqa tarmoqlardagi issiqxona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	0,3	0,3	2023	→
	Iqlim o'zgarishi xatarlari O'zbekiston bilan umumiy bo'lgan davlatlarda** jami issiqxona gaz chiqindilari	mlrd tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	44,4	44,9	2024	↑
	Jami uglerod dioksidi chiqindilari	mln tonna	132,6	148,5	2024	↑
	Jami metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	64,4	64,3	2024	↓
	Qishloq xo'jaligida metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	37,6	37,8	2024	↑
	Sanoat ishlab chiqarish va mahsulotlardan foydalanish jarayonidagi metan chiqindilari	ming tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	0,9	0,9	2023	→
	Energetika tarmoqlarida jami metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	19,7	18,7	2023	↓
	Chiqindilarni yo'q qilish jarayonlarida jami metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	6,3	6,4	2024	↑

Ko'rsatkich		Birligi	Oxirgi davrdan oldingi qiymati	Oxirgi davrdagi qiymat	Oxirgi davr	O' zgarish
	Jami energiya samaradorligi***	Foiz	4,5	4,2	2024	↓
	Iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yer qatlami indeksi (CALCI)****	Indeks	99,04	98,98	2022	↓
	Havo haroratining bazaviy qiymatiga (1951–1980-yillardagi o'rtacha) nisbatan o'zgarishi	Selsiy	2,4	2,1	2024	↓
	Suv tanqisligi ko'rsatkichi	Indeks		3,1	2024	
Real iqtisodiy ko' rsatkichlar	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi	Foiz	9,6	17,2	2024	↑
	Jami elektr energiya iste'molida sanoatning ulushi	Foiz	30,2	31,1	2024	↑
	Jami elektr energiya iste'molida qishloq xo'jaligining ulushi	Foiz	11,7	11,3	2024	↓
	Atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarining YalMdagi ulushi	Foiz	0,38	0,42	2024 H1	↑
	Iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir xususiyatiga ega davlat budjeti xarajatlarining***** YalMdagi ulushi	Foiz	3,8	2,6	2024	↓
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari eksportining YalMdagi ulushi	Foiz	0,1	0,1	2023	→
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari importining YalMdagi ulushi	Foiz	1,8	3,2	2023	↑
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari savdosining YalMdagi ulushi	Foiz	1,9	3,3	2023	↑
	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi	mlrd kVt soat	7,5	13,0	2024	↑
	Elektr energiya narxlarining o'sishi	Foiz	67,0	18,8	2025 H1	↓
	Qazib olinadigan yoqilg'i uchun ajratilgan subsidiya miqdori	mlrd AQSh dollari	13,2	14,5	2022	↑

Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ko'rsatkichlar	"Yashil" suveren xalqaro obligatsiyalar hajmi	mln AQSh dollari	348,4	873,4	2025 H1	↑
	Sanoat sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	28,2	27,4	2025 H1	↓
	Qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	10,5	10,1	2025 H1	↓
	Qurilish sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	2,5	2,6	2025 H1	↑
	Transport va kommunikatsiya sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	6,9	5,8	2025 H1	↓
	Toshkent shahrida ajratilgan kreditlarning Respublikadagi jami kreditlardagi ulushi	Foiz		49,9	2025 H1	
	Bank tizimi aktivlari tarkibida nomoliyaviy tashkilotlariga ajratilgan kreditlarning ulushi	Foiz	47,8	44,0	2025 H1	↓
	Bank tizimi aktivlari tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlarining ulushi	Foiz	9,0	8,5	2025 H1	↓
	Umumiy sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi	Promille	6,3	7,2	2025 H1	↑

Manbalar: XVJ, Yevropa komissiyasi, Jahon tabiat jamg'armasi, Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ko'rsatkichdagi ijobiy o'zgarish yashil rang, salbiy o'zgarish qizil rang hamda o'zgarishsiz holatlar sariq rang bilan ko'rsatilgan belgilar orqali ifodalangan. Shuningdek, ushbu belgilarning yo'nalishi ko'rsatkichlar qiymatidagi o'zgarishlarni anglatadi.

*Uglerod dioksidi (CO₂) ekvivalenti – boshqa gazlar miqdorini bir xil global isish potensialiga ega bo'lgan ekvivalent miqdordagi uglerod dioksidiga aylantirish orqali, turli xil issiqxona gazlari emissiyasini ularning global isish potensialiga (global-warming potential, GWP) asoslangan holda solishtirish uchun ishlatiladigan metrik o'lchovdir. Uglerod dioksidi ekvivalentlari odatda million metrik tonna uglerod dioksidi ekvivalentlarida ifodalanadi. Ma'lum bir gaz uchun uglerod dioksidi ekvivalenti tonna birligidagi ushbu gaz hajmini tegishli global isish potensialiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

** Iqlim o'zgarishi xatarlari O'zbekiston bilan umumiy bo'lgan davlatlar¹³¹ sifatida Afg'oniston, Rossiya, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari inobatga olingan.

***Jami energiya samaradorligi jami yoqilg'i-energetika resurslari iste'moli birligiga to'g'ri keladigan YaIM miqdorini belgilaydi.

****Iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yer qatlami indeksi (Climate Altering Land Cover Index, CALCI) iqlim o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yer qatlamidagi o'zgarishlarni baholashda foydalaniladi. Bunda o'rmonlarning kesilishi, urbanizatsiya darajasi va qishloq xo'jaligi yerlarining kengayishi kabi yer qatlamidagi o'zgarishlar darajasi inobatga olinadi. Barcha mamlakatlar bo'yicha yer

¹³¹ Kollenda, P., Logan, S., & Wang, D. (2025). Finding your Peers: Comparing Countries on a Level Playing Field. World Bank Paper.

Mamlakatga iqlim xatarlari bo'yicha ta'sir qiluvchi davlatlarni tanlab olishda davlatlarning joylashgan o'rni, o'zaro savdo aylanmasi, daromadi, xususan aholi jon boshiga YaIM miqdorini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

qoplami ma'lumotlarining 2015-yildan boshlab e'lon qilinganligi sababli, ushbu davr indeks uchun bazaviy yil sifatida tanlangan (2015-yil = 100).

*****Iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi davlat budjeti xarajatlari xususiyatiga ko'ra, iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olish va iqlim o'zgarishiga moslashish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Bular issiqxona gazlari chiqindilarini qisqarishiga olib keladigan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan xarajatlardir, shuningdek iqlim o'zgarishlarining muqarrar oqibatlari bilan bog'liq yo'qotishlarni oldini olish yoki kamaytirish maqsadida iqlim o'zgarishlariga o'z vaqtida moslashish xarajatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar paneli iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'tish¹³² xavflarining ortganligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yilda O'zbekistondagi jami issiqxona gaz chiqindilari 2023-yilga nisbatan 7,6 foizga, iqlim o'zgarishi xatarlari O'zbekiston bilan umumiy bo'lgan davlatlar tomonidan atmosferaga chiqarilgan jami issiqxona gaz chiqindilari miqdori 1,3 foizga oshgan.

Jami issiqxona gaz chiqindilari tarkibida energetika tarmog'i eng yuqori ulushni tashkil etmoqda. Mamlakatda jami energiya samaradorligi pasaygan. 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi yillik hisobda 73,7 foizga ortib, ushbu manbalarning elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 17,2 foizni tashkil etdi¹³³. Bu esa, o'z navbatida, iqlim o'zgarishiga nisbatan zaif tarmoqlardan biri hisoblangan energetika tarmog'idagi o'tish xavflari bilan bog'liq zaifliklar kamayganligidan dalolat beradi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy¹³⁴ xavflar ko'lami ham pasaydi. Xususan, iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yer qatlami indeksida kuzatilgan pasayish iqlim o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yer qatlamidagi o'zgarishlarni qisqarganligini ifodalaydi. Shuningdek, O'zbekistonda havo haroratining o'rtacha bazaviy qiymatiga nisbatan o'sishi 2,1°C gacha pasaydi.

2024-yilda iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi davlat budjeti xarajatlarining YalMdagi ulushi 2023-yilga nisbatan 1,2 foiz bandga kamaygan. O'z navbatida, 2025-yilning I yarim yilligida O'zbekiston Respublikasining navbatdagi suveren xalqaro obligatsiyalari¹³⁵ jahon moliya bozorlarida joylashtirilishi natijasida "Yashil" maqomi¹³⁶ bilan chiqarilgan suveren xalqaro obligatsiyalar hajmi 2,5 barobarga oshdi.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlari ko'lami pasaygan. Xususan, 2025-yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, bank tizimi kredit portfeli tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya kabi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy va o'tish xavflariga

¹³² O'tish xavflari kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashishga qaratilgan texnologiya, qonunchilik va mamlakat siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymatiga ta'sir qilishi mumkin.

¹³³ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Energiya ishlab chiqarishda yashil energiyaning ulushi (yillik).

¹³⁴ Moddiy xavflar, ya'ni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalarining keskinlashuvi va tez-tez takrorlanishi bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlardir moliyaviy aktivlar qiymatini pasaytirishi yoki majburiyatlarni oshirishi mumkin.

¹³⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Yangiliklar: O'zbekiston Respublikasi navbatdagi suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirdi.

¹³⁶ "Yashil" maqomga ega suveren xalqaro obligatsiyalar O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish uchun ishlab chiqilgan obligatsiyalar dasturi doirasida chiqarilgan bo'lib, "Yashil" obligatsiyalardan kelib tushadigan mablag'lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish hamda shu kabi boshqa loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

nisbatan zaifroq tarmoqlarga ajratilgan kreditlar ulushi kamaygan. Ushbu tendensiya kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish chora-tadbirlari¹³⁷ ta'sirida ushbu tarmoqlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar tufayli sodir bo'ladigan kredit xatar darajasi nisbatan pasayganligidan dalolat beradi.

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori.

Tizimli shartli xatarlar tahlili modeli (Systemic Contingent Claims Analysis)

Tizimli shartli xatarlar tahlili (Systemic Contingent Claims Analysis, Systemic CCA)¹³⁸ modeli bank aktivlarining bozor qiymati va majburiyatlari orasidagi munosabatni tahlil qilish orqali tizimli xatarlarni baholashda foydalaniladi. Ushbu model orqali banklardagi aktivlarning kutilayotgan yo'qotishlari va banklar orasidagi bog'liqlikdan foydalangan holda bank tizimi uchun kutilayotgan ekstremal yuqotishlar aniqlanadi.

Systemic CCA modeli ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda, banklar muvaffaqiyatsizligini ifodalovchi omillar orqali shartli xatarlar tahlili (Contingent Claims Analysis, CCA)¹³⁹ amalga oshiriladi. Bunda, tahlil etilayotgan har bir bank uchun defoltgacha bo'lgan masofa (Distance to Default, DtD), defolt ehtimolligi (Probability of Default, PD) va kutilayotgan yo'qotishlar (Expected Loss) aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda banklar uchun hisoblangan kutilayotgan yo'qotishlar butun bank tizimi darajasidagi ko'p o'lchovli taqsimotga birlashtiriladi. Banklarning birgalikdagi kutilayotgan yo'qotishlarini ehtimollik o'lchovi belgilanadi va bank tizimi uchun Systemic CCA qiymati aniqlanadi.

A. Contingent Claims Analysis (CCA)

CCA orqali balans va bozor ma'lumotlaridan foydalangan holda bank aktivlarining xavf darajasidan pastga tushish ehtimolligi va ushbu ehtimollikdagi kutilayotgan yo'qotishlar aniqlanadi. Jumladan, CCAni amalga oshirishda bank kapitalining bozor qiymati, uning o'zgaruvchanligi, risksiz foiz stavka va majburiyatlar miqdoridan kelib chiqib aniqlangan xatar chegarasidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali defoltgacha bo'lgan masofa, defolt ehtimolligi va kutilayotgan yo'qotishlar hisoblanadi.

Bank kapitalining bozor qiymati oddiy va imtiyozli aksiyalarning kapital bozoridagi qiymati va sonining o'zaro ko'paytmalarini yig'indisi sifatida

¹³⁸ Jobst, A., & Gray, D. (2013). Systemic Contingent Claims Analysis – Estimating Market-Implied Systemic Risk. IMF Working Paper.

¹³⁹ Kyriakopoulos, C., Koulis, A., & Varvounis, G. (2023). Importance of the Contingent Claims Analysis in Detecting Banking Risks: Evidence from the Greek Bank Crisis. Journal of Central Banking Theory and Practice.

aniqlanadi. Bank kapitali bozor qiymatining o'zgaruvchanligi sifatida har kunlik o'zgaruvchanlikning 125 kundagi standart chetlanishini yillik ko'rinishga¹⁴⁰ keltirilgan qiymatidan foydalaniladi. Risksiz foiz stavka sifatida g'aznachilik obligatsiyalari foiz stavkasi inobatga olinadi.

SSA modelida xatar chegarasi (distress barrier) aniqlanadi. Ushbu chegaradan bank aktivlarining pasayishi defolt ehtimolining ortishini anglatadi. Bunda, xatar chegarasi sifatida qisqa muddatli majburiyatlar va uzoq muddatli majburiyatlarning yarmidan foydalaniladi:

$$B = D_S + 0,5 * D_L$$

Bu yerda,

B – xatar chegarasi;

D_S – qisqa muddatli majburiyatlar;

D_L – uzoq muddatli majburiyatlar.

Bank majburiyatlarining bozor qiymati xatarsiz majburiyatlarning joriy qiymati va kutilayotgan yo'qotishlar qiymatlari orasidagi farq orqali aniqlanadi:

$$D_t = B_t e^{-(T-t)} - P_t$$

Bu yerda,

D_t – t davrdagi majburiyatning bozor qiymati;

B_t – xatar chegarasi;

T – majburiyatlarning to'lov muddati;

P_t – t davrdagi kutilayotgan yo'qotishlar qiymati.

¹⁴⁰ Bir yilda o'rtacha 250 ta savdo kunining bo'lishini inobatga olgan holda, bank kapitali bozor qiymatining o'zgaruvchanligini yillik ko'rinishga keltirishda har kunlik o'zgaruvchanlikning 125 kundagi standart chetlanishi $\sqrt{250}$ soniga ko'paytirilgan.

166-chizma. CCA algoritmi

Ma'lumotlarni kiritish

$$E, \sigma_E, B, r, T$$

Aktivlarning bozor qiymati va o'zgaruvchanligini baholash

$$A, \sigma_A$$

Defoltgacha bo'lgan masofani aniqlash

$$d_1 = \frac{\ln\left(\frac{A}{B}\right) + \left(r + \frac{\sigma_A^2}{2}\right)T}{\sigma_A\sqrt{T}}$$
$$d_2 = d_1 - \sigma_A\sqrt{T}$$

Defolt ehtimolligini baholash

$$PD = N(-d_2) = 1 - N(d_2)$$

Kutilayotgan yo'qotishlarni aniqlash

$$P = B_T e^{-rT} (1 - N(d_2)) - A(1 - N(d_1))$$

Manba: Markaziy bank.

Aktivlar odatda stoxastik jarayonga¹⁴¹ amal qiladi va ularning differensial ko'rinishdagi tenglamasi quyidagicha hosil qilinadi:

$$\frac{dA}{A} = \mu_A dt + \sigma_A dZ(t)$$

Bu yerda,

$\frac{dA}{A}$ – aktiv qiymatining nisbiy o'zgarishi;

μ_A – aktivlarning qisqa muddatdagi o'zgarishi (instantaneous drift);

σ_A – aktivlarning o'zgaruvchanligi (volatility of assets);

$Z(t)$ – Wiener jarayoni (Wiener-process)¹⁴².

Ushbu keltirilgan uzluksiz tasodifiy miqdorning¹⁴³ differensial ko'rinishdagi tenglamasi geometrik Brownian harakati (Brownian motion)¹⁴⁴ deb ataladi.

Geometrik Brownian harakati tenglamani yechish yordamida aktivlarning t davrdagi uzluksiz tasodifiy miqdori quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

$$A_t = A_0 e^{\left(\mu_A - \frac{\sigma_A^2}{2}\right)t + \sigma_A Z(t)}$$

Bu yerda,

A_t – t vaqtida aktivlarning bozor qiymati;

A_0 – aktivlarning boshlang'ich qiymati;

¹⁴¹ Stoxastik jarayon — bu vaqt davomida tasodifiylik ta'sirida rivojlanib boradigan jarayon.

¹⁴² Szabados, T. (1994). An Elementary Introduction to the Wiener Process and Stochastic Integrals. Technical University of Budapest.

Wiener jarayoni – aktivlar narxining tasodifiy komponentini ifodalaydi va aktivlar narxidagi kutilmagan beqaror o'zgarishlarni modellashtirishda qo'llaniladi.

¹⁴³ Uzluksiz tasodifiy miqdor – bu chekli yoki cheksiz sonli oraliqdagi barcha qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan tasodifiy miqdor bo'lib, uning ehtimollik zichlik funksiyasi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$P(a \leq X \leq b) = \int_a^b f(x) dx$$

Bu yerda,

a – ehtimollik zichlik funksiyasining quyi chegarasi;

b – ehtimollik zichlik funksiyasining yuqori chegarasi.

¹⁴⁴ Shreve, S. (2004). Stochastic Calculus for Finance II: Continuous-Time Models. Springer Finance.

Geometrik Brownian harakati – moliyaviy aktivlarning vaqt bo'yicha evolyutsiyasini tasvirlaydigan model.

μ_A – aktivlarning qisqa muddatdagi o'zgarishi;
 σ_A – aktivlarning o'zgaruvchanligi;
 $Z(t)$ – Wiener jarayoni.

Bank aktivlarining t vaqtidagi qiymati xatar chegarasidan past shakllanishi zaifliklardan dalolat beradi. Ushbu hodisaning nazariy jihatdan aniqlangan defolt ehtimolligi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P(A_t \leq B_t) = N \left(- \frac{\ln \left(\frac{A_0}{B_t} \right) + \left(\mu_A - \frac{\sigma_A^2}{2} \right) (T - t)}{\sigma_A \sqrt{T - t}} = -d_{2,\mu} \right).$$

Bu yerda,

$P(A_t \leq B_t)$ – defoltga uchrash ehtimolligi;

$N(-d_{2,\mu})$ – standart normal taqsimot funksiyasi;

$d_{2,\mu}$ – defoltgacha bo'lgan masofa.

Kapital va majburiyat yig'indisining aktivlar qiymatiga tengligidan foydalanib majburiyatlarning bozor qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$D_t = A_t - E_t.$$

Bu yerda,

D_t – majburiyatlarning bozor qiymati;

E_t – kapitalning bozor qiymati;

A_t – aktivlarning bozor qiymati.

Majburiyatlarning bozor qiymatini aniqlashda aktivlarning bozor qiymati va ularning o'zgaruvchanligidan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} E &= AN(d_1) - Be^{-rT}N(d_2). \\ D &= A - AN(d_1) + Be^{-rT}N(d_2) \\ d_1 &= \frac{\ln \left(\frac{A}{B} \right) + \left(r + \frac{\sigma_A^2}{2} \right) T}{\sigma_A \sqrt{T}} \\ d_2 &= d_1 - \sigma_A \sqrt{T}. \end{aligned}$$

Aktivlar bozor qiymati va o'zgaruvchanligi kapitalning bozor qiymati hamda o'zgaruvchanligi orqali Ito lemmasi (Ito's lemma)¹⁴⁵ yordamida aniqlanadi. Ito lemmasi doimiy o'zgarib turuvchi va kutilmagan jarayonlarda funksiyaning o'zgarishini hisoblashga yordam beradi. Bunda, oddiy differensialga ikkinchi tartibli hadning qo'shilishi orqali quyidagi tenglik hosil qilinadi:

$$dE = \left(\frac{\partial E}{\partial A} \mu_A + \frac{\partial E}{\partial t} + \frac{1}{2} \frac{\partial^2 E}{\partial A^2} \sigma_A^2 \right) dt + \frac{\partial E}{\partial A} \sigma_A dZ$$

$$E \sigma_E = A \sigma_A \frac{\partial E}{\partial A} = A \sigma_A N(d_1).$$

$$E = AN(d_1) - Be^{-rT} N(d_2)$$

$$E \sigma_E = A \sigma_A N(d_1)$$

Bu orqali aktivlarning bozor qiymati va o'zgaruvchanligini aniqlash mumkin. Bunda, noma'lum parametrlar Broyden usuli (Broyden method)¹⁴⁶ yordamida aniqlanadi.

Aniqlangan aktivlarning bozor qiymati va o'zgaruvchanligi orqali defoltgacha bo'lgan masofa, defolt ehtimolligi va kutilayotgan yo'qotishlar aniqlanadi. Xususan, defoltgacha bo'lgan masofa hamda defolt ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi:

$$DtD = \frac{\ln\left(\frac{A}{B}\right) + \left(r - \frac{\sigma_A^2}{2}\right)T}{\sigma_A \sqrt{T}} = d_2$$

$$PD = N(-d_2) = 1 - N(d_2)$$

Defoltgacha bo'lgan masofa aktivlar qiymati va xavf chegarasi o'rtasidagi standart og'ishlar sonini ifodalaydi. Baholangan aktivlar xatar chegarasidan pastda bo'lgan holatlarda defoltgacha bo'lgan masofaning ortishi defolt ehtimolini kamaytiradi, aksincha standart og'ishlar sonining kamayishi esa defolt ehtimolini oshiradi.

¹⁴⁵ Washburn, B., & Dik, M. (2021). Derivation of Black-Scholes equation using Ito's lemma. Proceedings of International Mathematical Sciences.

¹⁴⁶ Dennis, J., & Schnabel, R. (1996). Numerical Methods for Unconstrained Optimization and Nonlinear Equations. Society for Industrial and Applied Mathematics Philadelphia.

Broyden usuli – nohiziqli murakkab ko'rinishdagi tenglamalar sistemasini yechish uchun qo'llaniladigan raqamli takrorlash algoritmidir.

Defoltgacha bo'lgan masofa va defolt ehtimolligidan kelib chiqib, kutilayotgan yo'qotishlar aniqlanadi:

$$P = B_T e^{-rT} (1 - N(d_2)) - A(1 - N(d_1))$$
$$d_1 = d_2 + \sigma_A \sqrt{T}.$$

Bu yerda,

P – kutilayotgan yo'qotishlar;

B – xatar chegarasi;

r – risksiz foiz stavka;

T – majburiyatlarning to'lov muddati;

d_2 – defoltgacha bo'lgan masofa;

A – aktivlarning bozor qiymati;

σ_A – aktivlarning o'zgaruvchanligi.

Keyingi bosqichda banklar qirqimida hisoblangan kutilayotgan yo'qotishlar butun tizim darajasidagi ko'p o'lchovli taqsimotga jamlanadi.

B. Systemic Contingent Claims Analysis (Systemic CCA)

Bank tizimi bo'yicha defolt xavfini aniqlash uchun banklarning kutilayotgan yo'qotishlari birlashtiriladi. Bank tizimi bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarni aniqlashda banklarda kutilayotgan yo'qotishlarning marjinal taqsimoti, bog'liqlik tuzilishi va birgalikdagi taqsimlanishi baholanadi.

Har bir bank bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarning marjinal taqsimotini baholash CCA modeli yordamida aniqlangan kutilayotgan yo'qotishlar asosida ekstremal qiymat nazariyasiga (Extreme Value Theory, EVT)¹⁴⁷ muvofiq amalga oshiriladi.

¹⁴⁷ Kotz, S., & Nadarajah, S. (1999). Extreme Value Distributions: Theory and Applications. Imperial College Press.

167-chizma. Tizimli shartli xatarlar tahlili algoritmi

Aniqlangan kutilayotgan
yo'qotishlarni kiritish

$$P_{E,j}^n(t), \dots, P_{E,m}^n(t)$$

Individual marjinal
taqsimot parametrlarini
baholash

$$\hat{\mu}_j, \hat{\sigma}_j, \hat{\xi}_j$$

Bog'liqlilik tuzilishini
aniqlash

$$\Upsilon(\omega) = \min \left\{ 1, \max \left\{ n \left(\sum_{j=1}^n \Lambda_{j=1}^m \frac{y_{i,j}}{\omega_j \hat{y}_{\cdot j}} \right)^{-1}, \omega, 1 - \omega \right\} \right\}$$

Birgalikdagi taqsimotini
aniqlash

$$G_{t,m}(x) = \exp \left\{ - \left(\sum_{j=1}^m y_{t,j} \right) \Upsilon_t(\omega) \right\}$$

Birlashtirilgan $VaR(a)$
qiymatini baholash

$$VaR(a) = \inf \{ x: F(x) \geq a \}$$

Kutilayotgan ekstremal
qiymatlarni aniqlash

$$ES(a) = \frac{1}{1-a} \int_a^1 VaR(b) db$$

Manba: Markaziy bank.

Tasodifiy qiymatlari mustaqil va bir xil taqsimlangan kutilayotgan yo'qotishlarning vektor qiymatlari qatori quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$X_j^n = P_{E,1}^n(t), \dots, P_{E,m}^n(t).$$

Bu yerda,

j – banklar;

$P_{E,m}^n(t)$ – t davrda kutilayotgan yo'qotishlar.

Individual asimptotik yuqori darajali (asymptotic tail) harakati Fisher-Tippett-Gnedenko¹⁴⁸ teoremasiga muvofiq modellashtirilgan bo'lib, normallashtirilgan maksimal (yoki minimal) taqsimotning ekstremal bo'lishi aniqlanadi:

$$X = \max(P_{E,j}^n(t), \dots, P_{E,m}^n(t)).$$

Normallashtiruvchi $\beta_j^n > 0$ va α_j^n o'zgarmas koeffitsiyentlar yordamida n ta kuzatuvdan olingan maksimal qiymatlarni normallashtirilgan ko'rinishda ifodalanganda ushbu qiymatlar umumiy ekstremal qiymatlar (Generalized Extreme Value, GEV) taqsimotiga yaqinlashadi ($x \in R$):

$$F_n^{[\beta^n x + \alpha^n]}(x) = \lim_{n \rightarrow \infty} \Pr\left(\frac{X - \alpha^n}{\beta^n} \leq y\right) = [F(\beta^n y + \alpha^n)]^n \rightarrow H(x).$$

Umumiy ekstremal qiymatlar taqsimoti ekstremal harakatlarning uchta alohida turidan Gumbel (EV_0), Frechet (EV_1) va salbiy Weibull (EV_2) biriga mos keladi va quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} EV_0: H_0(x) &= \exp(-\exp(-x)), & \text{agar } x \geq 0, \quad \xi &= 0 \\ EV_1: H_{1,\xi}(x) &= \exp\left(-x^{-\frac{1}{\xi}}\right), & \text{agar } x \in \left[\mu - \frac{\sigma}{\xi}, \infty\right), \xi &> 0 \\ EV_2: H_{2,\xi}(x) &= \exp\left(-(-x)^{-\frac{1}{\xi}}\right), & \text{agar } x \in \left(-\infty, \mu - \frac{\sigma}{\xi}\right], \xi &< 0. \end{aligned}$$

¹⁴⁸ Peon, P. (2020). Statistical Extreme Value Theory. Application to basins of the Basque Country. Master Universitario en Matematicas y Computacion.

Chegaraviy taqsimotlar birlashtirilib quyidagi funksiya hosil qilinadi:

$$b_{\mu,\sigma,\xi}(x) = \frac{1}{\sigma} \left(1 + \xi \frac{(x - \mu)}{\sigma} \right)^{\left(\frac{1}{\xi}\right)-1} \exp \left(- \left(1 + \xi \frac{(x - \mu)}{\sigma} \right)^{\frac{1}{\xi}} \right)_+$$

Ehtimollik zichlik funksiyaning taqsimot funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$H_{\mu,\sigma,\xi}(x) = \begin{cases} \exp \left(- \left(1 + \xi \frac{(x - \mu)}{\sigma} \right)^{\frac{1}{\xi}} \right), & \text{agar } 1 + \xi \frac{(x - \mu)}{\sigma} \geq 0 \\ \exp \left(- \exp \left(- \frac{(x - \mu)}{\sigma} \right) \right), & \text{agar } x \in R, \xi = 0. \end{cases}$$

Har bir kutilayotgan yo'qotish qatorining umumiy ekstremal qiymatlar taqsimotiga chegarada yaqinlashuvchi individual marjinal zichlik funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$y_i(x) = \left(1 + \xi_j \frac{(x - \hat{\mu}_j)}{\hat{\sigma}_j} \right)^{-\frac{1}{\xi_j}}_+ \quad (j = 1, \dots, m).$$

$$1 + \xi_j \frac{x - \mu_j}{\sigma_j} > 0$$

$$\sigma_j > 0$$

$$\xi_j \neq 0$$

Bir o'zgaruvchili zichlik funksiyasining o'rtacha (Mean), chetlanish (Variance), egrilik (Skewness) va keskinlik (Kurtosis) ko'rsatkichlari aniqlanadi:

$$\text{O'rtacha: } \begin{cases} \mu + \frac{\sigma(G(1 - \xi) - 1)}{\xi}, & \text{agar } \xi \neq 0, \xi < 1 \\ \mu + \sigma\gamma, & \text{agar } \xi = 0 \\ \infty, & \text{agar } \xi \geq 1 \end{cases}$$

$$\begin{aligned}
\text{Chetlanish: } & \begin{cases} \frac{\sigma^2(b_1 - b_1^2)}{\xi^2}, \text{ agar } \xi \neq 0, \xi < \frac{1}{2} \\ \frac{\sigma^2\pi^2}{6}, \text{ agar } \xi = 0 \\ \infty, \text{ agar } \xi \geq \frac{1}{2} \end{cases} \\
\text{Egrilik: } & \begin{cases} \frac{b_3 - 3b_1b_2 + 2b_1^3}{(b_2 - b_1^2)^{3/2}}, \text{ agar } \xi \neq 0 \\ \frac{12\sqrt{6}\zeta(3)}{\pi^3}, \text{ agar } \xi = 0 \end{cases} \\
\text{Keskinlik: } & \begin{cases} \frac{b_4 - 4b_1b_3 + 6b_2b_1^2 - 2b_1^4}{(b_2 - b_1^2)^2}, \text{ agar } \xi \neq 0 \\ \frac{12}{5}, \text{ agar } \xi = 0 \end{cases}
\end{aligned}$$

Bu yerda,

$b_p = G(1 - p\xi)$, $p \in \{1, \dots, 4\}$;

γ – Eyler doimiysi (Euler constant) ($\approx 0,577$)¹⁴⁹;

$\zeta(t)$ – Riman-zeta funksiyasi (Riemann zeta function)¹⁵⁰;

$G(t)$ – gamma ehtimollik zichlik funksiyasi¹⁵¹.

Ushbu ko'rsatkichlar maksimal ehtimollik orqali raqamli takrorlash¹⁵² yordamida bir vaqtda baholanadi. Xususan, umumiy ekstremal qiymatlar taqsimotidagi maksimal ehtimollik baholovchisi bir vaqtning o'zida uchta μ , σ , va ξ parametrlar bo'yicha $\prod_{i=1}^n b_{\mu, \sigma, \xi}(x|\theta)$ ehtimolini maksimallashtirish uchun takrorlash yondashuvi orqali baholanadi. Takrorlash yondashuvida baholashni boshlang'ich qiymati sifatida oraliqlar nisbatlarining chiziqli

¹⁴⁹ Kaczowski, S. (2021). On a generalization of Euler's constant. Surveys in Mathematics and its Applications.

¹⁵⁰ Waldschmidt, M. (2017). An introduction to the Riemann zeta function. CIMPA-ICTP Research School.

Riman-zeta funksiyasining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi: $\zeta(t) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n^t}$.

¹⁵¹ Capinski, M., & Kopp, E. (1998). Measure, Integral and Probability. Springer-Verlag.

Gamma funksiyasi ushbu ko'rinishda bo'ladi: $G(t) = \int_0^{\infty} x^{t-1} e^{-x} dx$.

¹⁵² Raqamli takrorlash – model parametrlarini ketma-ket hisoblash va yangilash orqali optimal qiymatlarga yaqinlashish usuli.

kombinatsiyalaridan¹⁵³ (linear combinations of ratios of spacings) foydalaniladi.

Banklar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarning bog'liqlik tuzilishi baholanadi. Xususan, kutilayotgan yo'qotishlarining marginal taqsimotlari o'rtasida parametrik bo'lmagan, ko'p o'lchovli bog'liqlik funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Y(\omega) = \min \left\{ 1, \max \left\{ n \left(\sum_{j=1}^n \Lambda_{j=1}^m \frac{y_{i,j}}{\omega_j \hat{y}_{\cdot j}} \right)^{-1}, \omega, 1 - \omega \right\} \right\}$$

$$\hat{y}_{\cdot j} = \sum_{i=1}^n \frac{y_{i,j}}{n}$$

$$0 \leq \max(\omega_1, \dots, \omega_{m-1}) \leq Y(\omega_j) \leq 1.$$

Bu yerda,

$Y(\cdot)$ – qavariq funksiya ($Y(0) = Y(1) = 1$);

$\hat{y}_{\cdot j}$ – barcha kutilayotgan yo'qotishlar qiymatlarining ($i \in n$) o'rtacha marginal zichligini aks ettiradi;

Λ – barcha banklar bo'yicha ekstremal zichliklarning eng kichik nisbati.

Banklar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarning marjinal taqsimotlarini birlashtirilib, ko'p o'zgaruvchili ekstremal qiymat taqsimoti aniqlanadi:

$$G_{t,m}(x) = \exp \left\{ - \left(\sum_{j=1}^m y_{t,j} \right) Y_t(\omega) \right\}.$$

Ko'p o'zgaruvchili ekstremal qiymat taqsimotining ehtimollik zichlik funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$g_{t,m}(x) = \hat{\sigma}_{t,m}^{-1} \left(\left(\sum_{j=1}^m y_{t,j} \right) Y_t(\omega) \right)^{\hat{\xi}_{t,m}+1} \exp \left\{ - \left(\sum_{j=1}^m y_{t,j} \right) Y_t(\omega) \right\}.$$

¹⁵³ Oraliqlar nisbatlarining chiziqli kombinatsiyasida tartiblangan kuzatuvlar orasidagi farq olinadi. Yuqori va past qiymatlar atrofidagi oraliqlarni solishtirib logarifmik nisbatlar yig'iladi.

Quyidagi ehtimollik funksiyasini maksimal qilish orqali noma'lum parametrlar baholanadi:

$$\prod_{j=1}^m g_{t,m}(x|\theta)$$

Ehtimollik zichlik funksiyalar ko'paytmasini logarifmlangan qiymati orqali logarifmik ehtimollik funksiyasi aniqlanadi. Bunda, logarifmik ehtimollik funksiyasini maksimallashtiruvchi θ_0 qiymati baholanadi:

$$\sum_{j=1}^m \ln g(x|\theta)$$

$$\hat{\theta}_{MLE} = \underset{\theta \in \Theta}{\operatorname{argmax}} \hat{l}(\theta|x) \rightarrow \theta_0$$

Noma'lum parametrlar logarifmik ehtimollik funksiyasining maksimal qiymatida aniqlanadi.

Shartli zarar kutilmasi (conditional tail expectation) sifatida kutilayotgan ekstremal yo'qotish inobatga olinadi. Xususan, ekstremal yo'qotish aktivlardagi yo'qotishlarning $VaR_{\alpha=0,95}$ darajasidan oshadigan moliyaviy zararlarni kutilgan qiymatini ifodalaydi:

$$ES_a = E[X|X > VaR_a] = \frac{1}{1-F(VaR_a)} \int_{VaR_a}^{\infty} (1-F(x))dx = \frac{1}{1-a} \int_a^1 VaR_a da.$$

$$VaR_a = \inf\{x: F(x) \geq a\}$$

Xavf ostidagi qiymatning F taqsimot funksiyasiga tegishli kvantildagi ($0 < a < 1$) ko'p o'zgaruvchili ekstremal yo'qotishlar quyidagicha hisoblanadi:

$$ES_{t,\tau,m,a} = -E[z_t | z_t \geq G_{t,\tau,m}^{-1}(a) = VaR_{t,a}]$$

$$= -\frac{1}{a} \int_0^a G_{t,\tau,m}^{-1}(x) dx$$

$$G^{-1}(a) = \inf(x | G(x) \geq a)$$

Bu yerda,

ES – ekstremal yo‘qotishlar;

$G^{-1}(a)$ – ehtimollikka mos keladigan kvantil;

z_t – birgalikdagi yo‘qotishlar.

Ekstremal yo‘qotishlar bo‘yicha VaR qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$VaR_{t,a} = \sup\{G_{t,\tau,m}^{-1}(a) \mid Pr[z_t > G_{t,\tau,m}^{-1}(a)] \geq a = 0.95\}.$$

Xususan, birgalikda yo‘qotishlarining ma‘lum bir davrdagi bahosi aniqlanadi:

$$G_{t,\tau,m}^{-1}(a) = \hat{\mu}_{t,m} + \frac{\hat{\sigma}_{t,m}}{\hat{\xi}_{t,m}} \left(\left(-\frac{\ln(a)}{\Upsilon_t(\omega)} \right)^{-\hat{\xi}_{t,m}} - 1 \right).$$

Ekstremal yo‘qotishlar tasodifiy o‘zgaruvchilar fazosida aniqlangan haqiqiy funksional izchil xavf o‘lchovini (coherent risk measures)¹⁵⁴ ifodalaydi quyidagi aksiomalar o‘rinli hisoblanadi:

- 1) barcha X va Y lar uchun, $v(X + Y) \leq v(X) + v(Y)$;
- 2) agar $X \leq Y$ bo‘lsa, $v(X) \leq v(Y)$;
- 3) λ musbat o‘zgarmas son uchun $v(\lambda X) = \lambda v(X)$ o‘rinli;
- 4) c o‘zgarmas son uchun $v(X + c) = v(X) + c$ o‘rinli.

Tizimli shartli xatarlar tahlili modelining yakuniy natijasi sifatida ko‘p o‘zgaruvchili ekstremal yo‘qotishlar qiymati inobatga olinadi. Bank tizimi uchun tizimli shartli xatarlar tahlilini amalga oshirishda banklarning tizimli ahamiyatga molik ekanligi, fond birjasidan ro‘yxatdan o‘tganligi va vaqt qatorlari bo‘yicha zaruriy ma‘lumotlarning mavjudligi e‘tiborga olinadi.

¹⁵⁴ Lam, T., Verma, A., Low, B., & Jaillet, P. (2023). Risk-Aware Reinforcement Learning with Coherent Risk Measures and Non-linear Function Approximation.

5-jadval. To'lov qobiliyati bo'yicha yuqoridan pastga qaratilgan (top-down) makro stress-test vositasi tafsiri

Asosiy parametrlar	Jami 35 ta tijorat banklari, shundan 7 tasi tizimli ahamiyatga molik banklar inobatga olingan. 2025-yil 1-iyul holatiga, makro stress-testda qamrab olingan tijorat banklari aktivlari bank tizimi aktivlarining 100 foizini tashkil qilgan. Barcha tijorat banklari Markaziy bank tomonidan joriy qilingan kapital monandlilik talablariga rioya qilishi lozim.
Vaqt qamrovi	3 yil (2025-yil I yarim yilligi – 2028-yil I yarim yilligi)
Stress-test bo'yicha farazlar (assumptions)	Dinamik balans: – jami kreditlar va boshqa bank aktivlari miqdori (Moliya vazirligi yoki Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, xususiy tashkilotlar qimmatli qog'ozlari, boshqa banklarga va Markaziy bankka talablar) ssenariylar bo'yicha yillik kredit qoldig'i o'sishiga asosan oshib boradi; – aktivlar tarkibi stress-test amalga oshiriladigan davr davomida o'zgaradi; – banklar o'z kapitalini taqsimlanmagan foyda hisobiga shakllantiradi.
Makroiqtisodiy ssenariylar	Makroiqtisodiy ssenariylar ko'rsatkichlarning prognozlarini ifoda etmaydi. Balki, yuzaga kelish ehtimoli juda past bo'lgan yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) xatarli ssenariylarni shakllantirish hamda O'zbekiston tijorat banklarining jiddiy xatarlarga bardoshlilikini baholash uchun ishlab chiqilgan. Asosiy ssenariyda iqtisodiy o'zgarishlarning joriy tendensiyalari saqlanib qolinishi natijasida iqtisodiyotning istiqboldagi ehtimoliy holati ifodalanadi. Xatarli ssenariyda kelgusida yuzaga kelish ehtimoli past hamda bank tizimi uchun salbiy ta'siri yuqori bo'lgan ichki va tashqi shoklar (tail risks) inobatga olingan. Xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sish sur'ati Growth-at-Risk (GaR) modeli orqali aniqlangan. Bunda, iqtisodiy o'sish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar sifatida moliyaviy sikl indeksi hamda real YaIMning oldingi davrdagi qiymatidan foydalanilgan. Xatarlarni to'liq qamrab olish maqsadida xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sish sur'atini baholashda moliyaviy sikl indeksiga uch standart chetlanish miqdorida qo'shimcha shok berilgan. Inflyatsiya darajasi va real YaIM o'sish sur'atlarining o'zaro ko'paytmasi asosida aniqlanadigan nominal YaIM o'sish

	sur'atiga teng bo'lgan kredit o'sish sur'ati xatarli ssenariy bo'yicha aniqlangan. Kredit va depozit foiz stavkalari Markaziy bank asosiy stavkasi ta'sirini inobatga olgan holda modellar orqali milliy hamda xorijiy valyutalar bo'yicha baholangan. Ssenariylar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keyingi davrlar uchun baholangan yillik ko'rinishdagi qiymatlarini yordamchi regression modellarda foydalanish uchun Kubik splayn interpolyatsiyasi orqali choraklik ko'rinishga o'tkazilgan.
Regulyativ normativlar	Jami regulyativ kapital, CET1 va Tier 1 uchun kapital monandlilik talablari, leveraj koeffitsiyenti uchun minimal talab o'rnatilgan. Banklar kredit tavakkalchiligi uchun tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hisob-kitobida standart yondashuvdan (standardized approach)¹⁵⁵ foydalanadi. Aktivlar sifati bo'yicha 5 xil guruhga tasniflanadi va ular uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan quyidagi zaxiralar yaratiladi¹⁵⁶: – “standart” aktivlar uchun 1 foiz; – “substandart” aktivlar uchun 20 foiz; – “qoniqarsiz” aktivlar uchun 25 foiz; – “shubhali” aktivlar uchun 50 foiz; – “umidsiz” aktivlar uchun 100 foiz.
Metodologiya va inobatga olingan xatar turlari	Makroiqtisodiy ssenariylar asosida foyda va zarar moduli komponentlari baholanadi. Kredit xatari. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha kredit portfelidagi defolt ehtimoli (probability of default, PD) yordamchi regression modellar orqali makroiqtisodiy ssenariy bo'yicha kelgusi davrlar uchun baholanadi. Milliy valyuta bo'yicha defolt ehtimolini baholashda o'zining davr oldingi qiymati, YaIM o'sishi hamda milliy valyutadagi real kredit foiz stavkasining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalaniladi. Xorijiy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli davr oldingi qiymati, valyuta almashinuv kursi va YaIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib kelgusi davrlar uchun baholanadi.

¹⁵⁵ Bank for International Settlements. Calculation of RWA for credit risk, standardized approach.

¹⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 19-noyabrdagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 27/7–sonli qarori.

	Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha kredit yo'qotishlar hajmi kreditlar qoldig'i, defolt ehtimoli hamda defolt bo'yicha yo'qotishlar (loss given default, LGD) darajalarini o'zaro ko'paytirish orqali hisoblanadi. Defolt bo'yicha yo'qotishlar darajasi (LGD) sifatida kredit portfelining zaxiralar bilan ta'minlanmaganlik darajasidan foydalaniladi. Bunda, yaratilgan zaxiralarni chegirib tashlash orqali aniqlangan sof kreditlarni jami kreditlardagi ulushi kreditlarni zaxiralar bilan ta'minlanmaganlik darajasi sifatida hisoblanadi. Bozor va valyuta xatari. O'zbekistondagi amaldagi tartibga ko'ra, banklar tomonidan o'z ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni bozor narxida qayta baholash talab qilinmaydi. Shu sababli, qimmatli qog'ozlarning balans qiymati bazaviy narxlarda aks ettirilgan. Bozor foiz stavkalarining o'zgarishi qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qilmaydi. Biroq, amaldagi tartibga asosan, ma'lum vaqt davomida daromad keltirmaydigan qimmatli qog'ozlar uchun zaxiralarni yaratish talab etiladi. Shuning uchun, xatarli ssenariyda xususiy tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari uchun qo'shimcha zaxiralarni yaratish inobatga olingan. Shuningdek, makro stress-testda xorijiy valyuta almashuv kursidagi o'zgarishlar sababli banklar tomonidan e'lon qilingan valyuta pozitsiyalari asosida xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarning qayta baholanishida foyda yoki yo'qotishlar ham inobatga olinadi. Sof foizli daromadlar. Sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha yordamchi regression modellar orqali baholanadi. Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromadlarning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, kredit o'sish sur'ati, milliy valyutadagi foiz stavka marjasi (kredit va depozit foiz stavkalari orasidagi farq) hamda real YalIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlari asosida kelgusi davrlar uchun baholanadi. Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromadni foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatining ssenariylar asosida keyingi davrlardagi qiymatini baholash uchun ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, xorijiy valyutadagi kredit va depozit foiz stavkalari hamda valyuta almashinuv kursi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha sof foizli daromad miqdori foizli daromad keltiruvchi aktivlarning hamda yordamchi regression modellar orqali baholangan sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati
--	--

	ko'rsatkichining qiymatlarini o'zaro ko'paytirish orqali aniqlanadi. Sof foizsiz daromadlar. Sof foizsiz daromadning jami aktivlarga nisbati yordamchi regression model (satellite model) orqali YaIM o'sishi va valyuta almashuv kursining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib kelgusi davrlar uchun baholanadi. Sof foizsiz daromad miqdori jami aktivlarni yordamchi regression model orqali baholangan sof foizsiz daromadning jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichiga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Operatsion xarajatlar. O'tgan davrlarda operatsion xarajatlarning jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichining deyarli o'zgarishsiz shakllanganligi tufayli, kelgusi davrlar uchun operatsion xarajatlarning o'sishi jami aktivlarning o'sish sur'atlari bilan bir xil shakllangan. Jami aktivlarning o'sish sur'ati jami aktivlar tarkibida yuqori ulushga ega foizli daromad keltiruvchi aktivlarning o'sish sur'atlari bilan bir xil bo'lishi belgilangan. Dividendlar. Soliq to'langanidan keyingi sof foydasi ijobiy bo'lgan banklar tomonidan keyingi davrlar uchun dividendlar to'lovlari to'lanishi inobatga olinadi. Soliq to'langan keyingi sof foydasi hisobidan dividendlarni to'lash nisbati har bir bank bo'yicha oldingi davrlardagi dividend to'lovlari ko'rsatkichlaridan kelib chiqib belgilangan.
Kapital talablari	Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun kapital monandliligiga qo'yiladigan talablarga ko'ra (tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)¹⁵⁷: – I darajali asosiy kapitalning monandlilik koeffitsiyenti (CET1): 8 foiz – I darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyenti (Tier 1): 10 foiz (shundan, kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi barcha aktivlarning 3,0 foizi) – Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti (CAR): 13 foiz. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining 100 foizdan oshib ketgan holda, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi. Bundan tashqari, II darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyentiga kiritilgan "standart" tasnifidagi kreditlar bo'yicha zaxiralar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 1,25 foizidan yuqori bo'lmasligi lozim.

¹⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 11-yanvardagi "Tijorat banklari kapitalining monandliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 28/22–sonli qarori.

	Leveraj koeffitsiyenti uchun belgilangan minimal talab 6 foizni tashkil etadi ¹⁵⁸ .
Konsentratsiya xatari	Xatarli ssenariyga qo'shimcha shok sifatida banklar bo'yicha eng yirik qarz oluvchilarning defoltga uchrashining bank tizimi jami kapitaliga ta'siri inobatga olingan. Bunda, defoltga uchragan yirik qarz oluvchilar kredit qoldig'ining shartli ravishda 50 foizi banklar tomonidan yo'qotilishi (loss given default) farazi inobatga olinadi.
Aktivlar narxlari keskin arzonlashishining bank tizimi barqarorligiga ta'siri	Xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish sifatida aktivlar narxlari keskin arzonlashishining banklar kredit portfeli sifatiga hamda jami kapitaliga ta'siri baholangan. Aktivlar narxlarining keskin arzonlashishi tufayli kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aktivlar narxlarining bozor qiymatini kamayishi banklarda kredit yo'qotishlari ehtimolini oshiradi. Bunda, tijorat banklari tomonidan ajratilgan ipoteka kreditlari uchun garov sifatida olingan ko'chmas mulk bozor qiymatining kamayishi hisobiga LTV ko'rsatkichi ortishi inobatga olingan. Shuningdek, uy-joy narxlarining keskin tushishi natijasida kredit miqdorini garov qiymatiga nisbati 120 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarning shartli ravishda qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik farazi ilgari surilgan.
Tarqalish xatari	Xatarli ssenariyda bank defoltining boshqa banklarga tarqalish xatari bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan hamda umuman qaytmaslik usullari bo'yicha baholanadi: – Bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar tarqalish xataridan qancha yo'qotishi defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlilik koeffitsiyenti qiymatiga bog'lanadi. Bunda, defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlilik koeffitsiyenti qanchalik past darajada bo'lsa, bu bank bilan moliyaviy aloqalari (kredit ajratgan yoki depozit joylashtirgan) bo'lgan bank proporsional ravishda ko'p zarar ko'radi. – Bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar defoltga uchrash ehtimoli yuqori ya'ni kapital monandlilik koeffitsiyenti ko'rsatkichi minimal talabdan past bo'lgan bankka ajratgan jami kreditlari yoki depozitlarini to'liqligicha yo'qotadi.

¹⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 31-martdagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 12/21–sonli qarori.

Yakuniy natija	Jami bank tizimi va har bir bank bo'yicha makro stress-test o'tkazilganidan keyingi kapital monandlilik ko'rsatkichlari (CET1, Tier 1 va CAR) hamda leveraj koeffitsiyenti stress-testning yakuniy natijalari hisoblanadi.
-----------------------	--

6-jadval. Kreditlarning defolt ehtimoli (PD) tavsifi

Defolt ehtimolining mohiyati	Kreditlarning defolt ehtimoli (probability of default, PD) banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik ehtimolligini ifodalaydi. Kreditlarning defolt ehtimoli orqali banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlar baholanadi. Ssenariylar asosida keyingi davrlardagi kredit yo'qotishlarini aniqlash uchun yordamchi regression modellar (satellite model) orqali baholangan defolt ehtimolidan foydalaniladi.
Vaqt qamrovi	Defolt ehtimolining boshlang'ich davri: 2021-yil I chorak. Ma'lumotlar choraklik asosida.
Ma'lumotlar to'plami	Jami 35 ta tijorat banklari, shundan 7 tasi tizimli ahamiyatga molik banklar inobatga olingan. Tijorat banklari kredit portfelining defolt ehtimoli milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha alohida aniqlanadi.
Defolt ehtimolini hisoblash	Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha kreditlarning defolt ehtimoli banklar qirqimida quyidagicha hisoblanadi: $PD_{i,t} = \frac{NPL_{i,t} - NPL_{i,t-1} + NWO_{i,t}}{PL_{i,t-1}}$ Bu yerda, $PD_{i,t}$ – t davrdagi defolt ehtimoli; $NPL_{i,t}$ – t davrdagi muammoli kreditlar hajmi; $NPL_{i,t-1}$ – $t-1$ davrdagi muammoli kreditlar hajmi; $NWO_{i,t}$ – t davrdagi sof hisobdan chiqarilgan kreditlar hajmi¹⁵⁹; $PL_{i,t-1}$ – $t-1$ davrdagi muammoli bo'lmagan kreditlar hajmi.
Samarali ko'rsatkichlarni tanlash mezonlari	• Kredit xatari bilan o'zaro to'g'ri bog'liqlik ishorasining mavjudligi; • Sargan-Hansen testi bo'yicha ko'rsatkichlarning ahamiyatli (significant) bo'lishi; • O'zgaruvchilar orasida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi.

¹⁵⁹ Sof hisobdan chiqarilgan kreditlar so'nggi 12 oy davomida hisobdan chiqarilgan va hisobga qaytarilgan kreditlar orasidagi farq.

Foydalanilgan ko'rsatkichlar	Milliy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli: • milliy valyuta bo'yicha defolt ehtimolining davr oldingi qiymati; • real YalM o'sish sur'ati; • milliy valyutadagi real kredit foiz stavka. Xorijiy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli: • xorijiy valyuta bo'yicha defolt ehtimolining davr oldingi qiymati; • real YalM o'sishi; • milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursining yillik o'zgarishi.
Modelni tanlash mezonlari	• Qisqa vaqt qatorlari uchun erkli va erksiz o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni baholashdagi xatolikning past shakllanishi; • Panel ma'lumotlarida bankka xos bo'lgan umumiy o'zgarmas omillar (bank fixed effect) hamda erksiz o'zgaruvchining oldingi qiymati orasida Nickell og'ishining (Nickell bias)¹⁶⁰ yuzaga kelmasligi.
Qo'llanilgan modellar	Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha bank tizimi kredit portfelining defolt ehtimoli yordamchi regression modellar orqali makroiqtisodiy ssenariylar asosida keyingi davrlar uchun baholanadi. Milliy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli: dinamik panel modelining (Dynamic panel model) ikki bosqichli tizimli momentlarning umumlashtirilgan usuli (Two-steps System Generalized Method of Moments, System GMM)¹⁶¹. Xorijiy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli: dinamik panel modelining ikki bosqichli farqlar usulidagi umumlashtirilgan momentlar usuli (Two-steps Difference Generalized Method of Moments, Difference GMM)¹⁶².

¹⁶⁰ Stephen, N. (1981). Biases in Dynamic Models with Fixed Effects. *Econometrica*.

Nickell egriligi – qisqa vaqt qatorlarida panel ma'lumotlari bo'yicha o'zgarmas omillar (fixed effects) va vaqt tafovuti bilan ta'sir qiladigan o'zgaruvchi o'rtasida yuzaga keladigan egrilik.

¹⁶¹ Blundell, R., & Bond, S. (1998). Initial conditions and moment restrictions in dynamic panel data models. *Journal of Econometrics*.

¹⁶² Arellano, M., & Bond, S (1991). Some Tests of Specification for Panel Data: Monte Carlo Evidence and an Application to Employment Equations. *The Review of Economic Studies*.

Natijalar talqini va kredit yo'qotishlarni hisoblash	Modellar orqali baholangan milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha defolt ehtimoli kredit yo'qotishlari miqdorini aniqlashda foydalaniladi. Bank tizimining kredit yo'qotishlari kreditlar qoldig'i, defolt ehtimoli hamda defolt bo'yicha yo'qotishlar (loss given default, LGD) darajalari ko'paytmasi orqali hisoblanadi.
---	--

7-jadval. Likvidlilik stress-testida asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha pul oqimi ko'rsatkichlari uchun o'rnatilgan koeffitsiyentlar

Pul kirimi va chiqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
Pul kirimi ko'rsatkichlari		
1. Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	100%	100%
2. Bankning Markaziy bankdagi mablag'lari (majburiy zaxirasiz)	100%	100%
3. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100%	100%
4. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50%	50%
5. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	100%	90%
6. Tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarning qimmatli qog'ozlari	85%	85%
7. XVJ, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiya banki, YTTB, Yevropa investitsiya banki, Yevropa investitsiya jamg'armasi, Islom taraqqiyot banki va Yevropa Kengashining taraqqiyot banki tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	100%	100%
8. Tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarning yetakchi kompaniyalari qimmatli qog'ozlari	50%	50%
9. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari qimmatli qog'ozlari	75%	65%
10. Boshqa qimmatli qog'ozlar	100%	100%
11. Mijozlarning akkreditiv va trast hujjatlari bilan kafolatlangan tratalari bo'yicha majburiyatlari, sof	100%	100%
12. Mijozlarning bank oldidagi to'lanmagan akseptlari bo'yicha majburiyatlari, sof	100%	100%
13. Markaziy bankka berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kungacha)	100%	100%
14. Markaziy bankka berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kundan ortiq)	50%	50%
15. Boshqa banklarga berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kungacha)	100%	100%
16. Boshqa banklarga berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kundan ortiq)	50%	50%
17. Mijozlarga berilgan kredit va lizinglar, sof	50%	25%
18. REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar	100%	100%
19. Hosilaviy instrumentlarning revalvatsiyasi natijasida o'zlashtirilmagan foyda (muddatsiz)	0%	0%
20. Hosilaviy instrumentlarning revalvatsiyasi natijasida o'zlashtirilmagan foyda (muddatli)	100%	100%
21. Valyuta savdosi va valyuta pozitsiyalari	100%	100%
22. Boshqa aktivlar (muddatsiz)	0%	0%
23. Boshqa aktivlar (muddatli)	100%	100%

Pul kirimi va chiqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
24. Garovga qo'yilgan yuqori likvidli aktivlar	100%	100%
Pul chiqim ko'rsatkichlari		
1. Aholining talab qilib olinguncha omonatlari	5%	20%
2. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aholi omonatlari (181 kungacha)	100%	100%
3. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aholi omonatlari (181 kundan ortiq)	50%	50%
4. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan boshqa depozitlar (181 kungacha)	100%	100%
5. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan boshqa depozitlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
6. Talab qilib olinguncha boshqa depozitlar	40%	50%
7. Muddatli depozitlar	40%	40%
8. Aholi omonatlari	5%	20%
9. Jismoniy shaxslarning bank plastik kartalaridagi mablag'lari	5%	20%
10. Boshqa mijozlarning bank plastik kartalaridagi mablag'lari	40%	50%
11. Mijozlarning akkreditiv bo'yicha depozitlari	-5%	-20%
12. Boshqa depozitlar	40%	50%
13. Markaziy bankka to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar	40%	40%
14. Markaziy bankka to'lanishi lozim bo'lgan boshqa mablag'lar (tezkor to'lovlar hamda kliring tizimlari)	25%	25%
15. Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100%	100%
16. Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50%	50%
17. Boshqa banklarning hisobvaraqlari – Depozitlar (181 kungacha)	100%	100%
18. Boshqa banklarning hisobvaraqlari – Depozitlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
19. Bank kartalaridan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100%	100%
20. Bank kartalaridan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50%	50%
21. Boshqa moddalar (181 kungacha)	100%	100%
22. Boshqa moddalar (181 kundan ortiq)	50%	50%
23. Bankning to'lanmagan akseptlari (181 kungacha)	100%	100%
24. Bankning to'lanmagan akseptlari (181 kundan ortiq)	50%	50%
25. Olingan kredit va lizinglar (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar (181 kungacha)	5%	5%
26. Olingan kredit va lizinglar (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar (181 kundan ortiq)	2,5%	2,5%
27. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (181 kungacha)	100%	100%

Pul kirimi va chiqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
28. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
29. Subordinar qarz majburiyatlari (181 kungacha)	100%	100%
30. Subordinar qarz majburiyatlari (181 kundan ortiq)	50%	50%
31. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar	100%	100%
32. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan boshqa qimmatli qog'ozlar (181 kungacha)	100%	100%
33. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan boshqa qimmatli qog'ozlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
34. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha revalvatsiya natijasida amalga oshmagan zararlar va boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar (181 kungacha)	100%	100%
35. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha revalvatsiya natijasida amalga oshmagan zararlar va boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
36. Kliring tranzaksiyalari (181 kungacha)	100%	100%
37. Kliring tranzaksiyalari (181 kundan ortiq)	50%	50%
38. Boshqa majburiyatlar (muddatsiz)	0%	0%
39. Boshqa majburiyatlar (1 kundan 181 kungacha)	100%	100%
40. Boshqa majburiyatlar (181 kundan ortiq)	50%	50%
41. Balansdan tashqari majburiyatlar	5%	20%

8-jadval. O'zbekistonda moliya tizimi barqarorligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar (2025-yil 1-iyul holatiga)

Chora-tadbir yo'nalishi	Vosita	Amaldagi me'yor
Bank tizimida likvidlilikni ta'minlash	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	10%
	Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti	25%
	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)	100%
	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)	100%
Bank tizimida kapital yetarliligini saqlab turish	Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	13%
	I darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	10%
	I darajali asosiy kapitalning monandlilik koeffitsiyenti	8%
	Kapitalning konservatsiya buferi	3% (regulyativ talablar tarkibida)
Bank tizimida leveraj va xatarga moyillikni kamaytirish	Tavakkalchilik darajalari	Yillik foiz stavka va boshqa ko'rsatkichlarga asoslangan holda
	Leveraj koeffitsiyenti	6%
Dollarlashuv darajasini pasaytirish	Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar ajratish cheklovi	Xorijiy valyutada kreditlar ajratilmaydi
	Tabaqalashtirilgan majburiy rezerv normativlari	4% (milliy valyuta) 10,5% (xorijiy valyuta)
	Xorijiy valyutalarda LCR	100%
	Xorijiy valyutalarda NSFR	100%
Qarz yukini tartibga solish	Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI)	50%
	Kredit yoki mikroqarz bo'yicha foiz to'lovlarining asosiy qarz qoldig'iga nisbatan kunlik cheklovi	0,3%
	Tabaqalashtirilgan tavakkalchilik darajalari	Ipoteka va avtokreditlar bo'yicha LTV va DSTI nisbatlariga mos ravishda
Yirik tavakkalchiliklarni oldini olish	Bankning bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	25% (bank I darajali kapitaliga nisbatan)
	Bankning bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minotsiz kredit tavakkalchiligining eng ko'p miqdori	5% (bank I darajali kapitaliga nisbatan)
	Bankning barcha yirik tavakkalchiliklarining umumiy miqdori cheklovi	Bank I darajali kapitalining 5 barobarigacha
	Bankka aloqador bitta shaxsga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	25% (bank I darajali kapitaliga nisbatan)
	Bankka aloqador bo'lgan barcha shaxslarga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	50% (bank I darajali kapitaliga nisbatan)

Manba: Markaziy bank.

9-jadval. Mamlakatlar bo'yicha kapitalga qo'yilgan minimal talablar hamda kapital buferlar, RWA nisbatan foizda (2025-yil 1-iyul holatiga)

Mamlakat	Kapitalga qo'yilgan minimal talablar			Kapital bufer talablari			
	CET1 ratio ¹⁶³	Tier 1 ratio ¹⁶⁴	CAR	CCoB	CCyB	SyRB	D-SIB buffer
Avstriya	4,5	6	8	2,5	0	0,5–1	0,45–1,75
Albaniya	6,75	9	12	2,5	0,25	0	0,5–1,5
Belgiya	4,5	6	8	2,5	1	6	0,75–1,5
Birlashgan Qirollik	4,5	6	8	2,5	2	0	1–2
Bolgariya	4,5	6	8	2,5	2	3	0,5–1
Daniya	4,5	6	8	2,5	2,5	7	1–3
Estoniya	4,5	6	8	2,5	1,5	0	0,5–2
Finlandiya	4,5	6	8	2,5	0	1	0,5–2,5
Germaniya	4,5	6	8	2,5	0,75	1	0,25–2
Gongkong	4,5	6	8	2,5	0,5	0	1–2,5
Gretsiya	4,5	6	8	2,5	0	0	1–1,25
Gruziya	4,5	6	8	2,5	0,5	0	0,5–3
Irlandiya	4,5	6	8	2,5	1,5	0	0,5–1,5
Islandiya	4,5	6	8	2,5	2,5	2	3
Ispaniya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–1,25
Italiya	4,5	6	8	2,5	0	1	0,25–1,5
Kanada	4,5	6	8	2,5	0	0	1
Latviya	4,5	6	8	2,5	1	0	0,25–2
Litva	4,5	6	8	2,5	1	2	1–2
Lixtenshteyn	4,5	6	8	2,5	0	1	2
Lyuksemburg	4,5	6	8	2,5	0,5	0	0,5–1
Malayziya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–1
Malta	4,5	6	8	2,5	0	1,5	0,438–2
Moldova	5,5	7,5	10	2,5	0	1	0,5–1,5
Niderlandiya	4,5	6	8	2,5	2	0	0,25–2
Norvegiya	4,5	6	8	2,5	2,5	4,5	1–2
Polsha	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–2
Portugaliya	4,5	6	8	2,5	0	4	0,25–1
Ruminiya	4,5	6	8	2,5	1	0–2	0,5–2,5
Saudiya Arabistoni	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–2,5
Slovakiya	4,5	6	8	2,5	1,5	0	0,25–2
Sloveniya	4,5	6	8	2,5	1	0,5	0,25–1,25
Vengriya	4,5	6	8	2,5	1	0	0,5–2
Fransiya	4,5	6	8	2,5	1	0	0,25–1,5
Xorvatiya	4,5	6	8	2,5	1,5	1,5	0,25–2,5
Yangi Zelandiya	4,5	7	9	3,5	0	0	2
Chernogoriya	4,5	6	8	2,5	0,5	1,5	1,25–2
Chexiya	4,5	6	8	2,5	1,25	0,5	0,5–2,5
Shvetsiya	4,5	6	8	2,5	2	3	1
Shimoliy Makedoniya	4,5	6	8	2,5	1,5	0	1–3,5

Manbalar: vakolatli davlat organlari va Yevropa tizimli xatarlar kengashi.

¹⁶³ Birinchi darajali kapital uchun qo'yilgan minimal talab birinchi darajali asosiy kapital uchun qo'yilgan minimal talabni o'z ichiga oladi.

¹⁶⁴ Regulyativ kapital uchun qo'yilgan minimal talab (8 foiz) birinchi darajali kapital uchun qo'yilgan minimal talabni (6 foiz) o'z ichiga oladi.

10-jadval. O'rnatilgan va kelgusi davr uchun e'lon qilingan kontrsiklik kapital bufer talabi, RWAg nisbatan foizda

Mamlakat	2025-yil 1-iyul holatiga amalda	Keyingi davrda kuchga kirishi kutilayotgan
Avstraliya	→ 1	
Avstriya	→ 0	
Albaniya	↑ 0,25	31.12.2025: ↑0,5
Armaniston	↑ 1,75	
Belgiya	→ 1	
Birlashgan Qirollik	→ 2	
Bolgariya	→ 2	
Daniya	→ 2,5	
Estoniya	→ 1,5	
Fransiya	→ 1	
Germaniya	→ 0,75	
Gonkong	→ 0,5	
Gretsiya	→ 0	01.10.2025: ↑0,25
Gruziya	↑ 0,5	15.03.2026: ↑0,75 15.03.2027: ↑1
Irlandiya	→ 1,5	
Islandiya	→ 2,5	
Ispaniya	→ 0	01.10.2025: ↑0,5 01.10.2026: ↑1
Italiya	→ 0	
Janubiy Koreya	→ 1	
Kipr	→ 1	14.01.2026: ↑1,5
Latviya	↑ 1	
Litva	→ 1	
Lyuksemburg	→ 0,5	
Moldova	→ 0	30.01.2026: ↑0,5
Niderlandiya	→ 2	
Norvegiya	→ 2,5	
Polsha	→ 0	25.09.2025: ↑1 30.09.2026: ↑2
Portugaliya	→ 0	01.01.2026: ↑0,75
Ruminiya	→ 1	
Singapur	→ 0	
Slovakiya	→ 1,5	
Sloveniya	→ 1	
Vengriya	↑ 1	
Xorvatiya	→ 1,5	
Chernogoriya	↑ 0,5	01.01.2026: ↑1
Chexiya	→ 1,25	
Chili	→ 0,5	
Shveytsariya	→ 0	
Shvetsiya	→ 2	
Shimoliy Makedoniya	→ 1,5	01.08.2025: ↑1,75 01.10.2026: ↑2

Manbalar: vakolatli davlat organlari.

Atamalar

Aktivlarning shoshilinch sotuvi – aktiv egasining kreditor talablarini qondirish uchun aktivlarini chegirmali narxda majburan sotishi.

Davriy tizimli xatar – moliyaviy hamda boshqa iqtisodiy sub'ektlar tomonidan prosiklik, ya'ni moliyaviy siklning o'sish bosqichida tavakkalchilik darajasini oshirish va aksincha, pasayish davrida esa xatardan keragidan ortiqcha qochishi sababli paydo bo'ladi. Ushbu prosiklik tendensiyalar o'zini moliyaviy institutlardagi (shuningdek, boshqa iqtisodiy sub'ektlarda ham) ortiqcha leveraj hamda moliyaviy sektordagi muddatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar natijasida yuzaga kelgan kredit va likvidlilik sikllari sharoitida namoyon bo'ladi.

Defolt holatida yo'qotishlar hajmi – bankning qarz oluvchi o'z qarzini to'lashga qodir bo'lmaganda yoki uni to'lashni istamaganda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish; kredit yoki garov nominal qiymatining defolt sodir bo'lgandan keyin qoplanmaydigan qismi.

Kapital buferlar – banklarning turli shoklarga bardoshlilikini oshirish maqsadida birinchi darajali asosiy kapital tarkibida shakllantiriladigan hamda regulativ kapital me'yorlarga qo'shimcha tarzda joriy qilinadigan talablar.

Kontrsiklik kapital bufer – kredit tashkilotlari tomonidan sektordagi davriy tizimli xatarlar ortib borayotganda keyinchalik yo'qotishlar yuzaga keladigan stress davrida bank tizimining bardoshlilikini oshirish maqsadida to'planadigan kapital buferlari hisoblanadi. Mazkur buferlar iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash darajasini bir maromda saqlab qolish hamda moliyaviy siklning pasayish davridagi yo'qotishlarni yumshatishga hissa qo'shadi. Shuningdek, kontrsiklik kapital buferlari moliyaviy siklning o'sish davrida kreditlarning keragidan ortiqcha oshish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Qat'iy qoidaga asoslanmagan (moslashuvchan) boshqaruv – makroprudensial vositalar moliyaviy tizimga turlicha ta'sir qila olishini inobatga olgan holda, mazkur vositalarni faollashtirish yoki faolsizlantirish hamda ularning darajalarini moslashtirish bo'yicha makroprudensial siyosat qarorlari faqatgina qat'iy qoidalarga tayanmasligi va shu orqali markaziy bank uchun qaror qabul qilish jarayoniga sifat omillari va asoslantirilgan ekspert xulosalarini inobatga olish uchun yuqori darajadagi ixtiyoriylik imkoniyatining berilishi.

Leveraj koeffitsiyenti – bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich bo'lib, bankning umumiy xatarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Uning asosiy maqsadi bankning o'z kapitalidan foydalanishi mumkin bo'lgan maksimal darajaga cheklov o'rnatishdir. Leveraj koeffitsiyentida tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hisobga olinmaydi va shu bilan kapital monandlilik talablaridan farq qiladi. Bu aktivlarning kapitalga nisbatan nomutanosib ravishda oshib ketishiga qarshi oddiy va samarali vosita hisoblanadi.

Leverajni kamaytirish (Deleveraging) – banklar tomonidan o'z qarzlarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon. Leverajni kamaytirish ixtiyoriy bo'lganda asosan xatarlarni yumshatish ko'zda tutilsa, ba'zan moliyaviy holatning yomonlashuvi natijasida kelib chiqadigan bankrotlikdan qochish uchun ham foydalaniladi.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti – likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti banklarning qisqa muddatli likvidlilik shoklariga bardoshlilikini oshirishuvchi vosita hisoblanadi. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi.

Makro stress-test – butun moliyaviy tizimning xatarli ssenariylardagi o'ta xavfli, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan tizimli xatar omillariga bardoshlilikini o'lchash hamda stress holati yuzaga kelganda barqarorlikni saqlab qolish uchun yetarli kapital va likvid aktivlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan vositalar majmui.

Makroprudensial siyosat vositalari – makroprudensial siyosatning bosh va oraliq maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan vositalar va cheklovlar.

Makroprudensial siyosat – tizimli xatarlarni cheklash va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish, iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan buferlar joriy etish orqali moliyaviy tizimning barqarorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuasidan iborat. Makroprudensial siyosat quyidagilar bilan tavsiflanadi: (a) uning maqsadi tizimli xatarlarni cheklashdan iborat; (b) qo'llanilish doirasi individual institutlarga emas, balki butun moliyaviy tizimga (jumladan, real va moliyaviy sektorlarning o'zaro munosabatlariga) qaratilgan siyosatdir; (s) birinchi navbatda, tizimli xatarlarning manbalariga yo'naltirish uchun moslashtirilgan prudensial vositalardan foydalanadi.

Makroprudensial siyosatning transmission (uzatish) kanallari – makroprudensial siyosatga doir qarorlarning moliyaviy tizim bardoshliligiga va kredit sikliga ta'sir qilish kanallari hisoblanadi. Makroprudensial siyosat vositalarining qat'iylashtirilishi moliyaviy tizim va real iqtisodiyotga narx, miqdor, bardoshlilik va kutilmalar kanallari orqali uzatiladi.

Moliyaviy barqarorlik – bank tizimning, ya'ni kredit tashkilotlari va bozor infratuzilmalarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoklarga bardoshli bo'lib, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajarishda uzilishlar yuz berish ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlikka erishish deganda, individual moliyaviy tashkilotlarning emas, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash tushuniladi;

Moliyaviy tizimning xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish hamda iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, shuningdek, tashqi va ichki shoklar yuz berishiga qaramasdan moliyaviy xizmatlarni uzluksiz ko'rsata olish qobiliyati hisoblanadi. Moliyaviy tizim iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish hamda kutilmagan moliyaviy nomutanositliklarni bartaraf etishga qodir bo'lganda barqaror hisoblanadi.

Moliyaviy sikl – to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy tizim sababli kelib chiqadigan yoki u tomonidan kuchaytiriladigan iqtisodiy tebranishlar sifatida qaralishi mumkin. Odatda, moliyaviy sikl o'zini kredit agregatlari va aktivlar narxлари o'rtasidagi birgalikdagi harakat sifatida namoyon qiladi, bu esa real iqtisodiy o'zgarishlarga ham ta'sir qilishi mumkin.

Tartibga solish arbitraji – moliyaviy bozor ishtirokchilari cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida nisbatan kamroq nazorat qilinadigan bozor segmentlarida o'z faoliyatlarini ko'chirishi va (yoki) boshlashi natijasida nisbiy afzalliklarga ega bo'lishi.

Risk-profil – portfel uchun investitsiya aktivlarini to'g'ri taqsimlashni aniqlash uchun zarur bo'lgan baholashdir. Individual investorlar, moliyaviy tashkilotlar yoki kompaniyalar o'ziga xos risk-profillariga ega, chunki ularning risk appetitlari psixologik faktorlar, yo'qotishlarni qoplash qobiliyati, investorlarning yoshi va boshqa investitsion maqsadlari bo'yicha farqlanishi mumkin; bu investorning tavakkalchilikka bo'lgan munosabatini ifoda etadi va investitsion portfeldagi aktivlarni samarali taqsimoti uchun muhim ahamiyatga ega. Odatda, risk-profilidan kelib chiqib investorlarni konservativ, ratsional va agressiv turlarga ajratish mumkin.

Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti –uzoq davr davomida moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, banklardan uzoq muddatli aktivlarni uzoq muddatli majburiyatlar bilan moliyalashtirishni talab qiladi va shu orqali muddatlar o'rtasidagi nomutanosiblik (maturity mismatch) darajasini cheklaydi. Mazkur vositadan likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyentini to'ldiruvchi qo'shimcha talab sifatida foydalaniladi.

Tizimli ahamiyatga molik bank – bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bog'liq bo'lsa, o'sha bank tushuniladi; o'z hajmi, murakkabligi va tizimli o'zaro bog'liqligi natijasida nazorat qilib bo'lmaydigan muvaffaqiyatsizligi butun bank tizimi hamda iqtisodiy faoliyatda jiddiy uzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan banklardir.

Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi – tizimli ahamiyatga molik deb topilgan banklarning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shok yoki yo'qotishlarga bardoshlilikini oshirish maqsadida kapitalga qo'shimcha talablar joriy etilishidir. Tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklarning to'lov qobiliyati yuqoriligi nafaqat moliyaviy tizimining, balki umuman iqtisodiyotning barqarorligi va xavfsizligini mustahkamlaydi.

Tizimli xatar buferi – kontrsiklik kapital buferi yoki tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlari kabi makroprudetsial vositalar orqali qamrab olinmagan tizimli xatarlar mavjud bo'lganda, ularni bartaraf etishga qaratilgan vosita. Mazkur bufer umumiy darajadagi tizimli xatarlarni yoki bank tavakkalchiliklari to'plamlariga bog'langan xatarlarni bartaraf qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Tizimli xatar – umumiy moliya tizimida yoki uning ma'lum bir sektorida jiddiy muvaffaqiyatsizlik natijasida yuzaga keladigan va real iqtisodiyot uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdagi keng miqyosdagi uzilishlar xavfi. Makroprudensial chora-tadbirlar qo'llashdan asosiy ko'zlangan maqsad tizimli xatarlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini yumshatish orqali moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelish davriyligi va keskinligini kamaytirish hisoblanadi. Tizimli xatarlar odatda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: tarkibiy va davriy tizimli xatarlar.

Tarkibiy tizimli xatar – moliya tizimi bo'ylab xatarlarning taqsimlanishi va moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar hamda umumiy tavakkalchiliklar natijasida paydo bo'luvchi xavf.

“Tanazzulga uchramoq uchun haddan ziyod yirik” tashkilot – ma’lum bir moliyaviy tashkilot yuqori darajada tizimli ahamiyatga ega ekanligini hamda uning qulashi butun moliyaviy tizimda nobarqarorlikni va umuman iqtisodiyotning inqirozga uchrashiga olib kelishini anglatadi.